

SAIDOV ShAVKAT

**Xorazm Xalq Sovet
Respublikasining tashqi
munosabatlari va savdo aloqalari
(1920–1924 yy.)**

TOSHKENT – 2007

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

SAIDOV SHAVKAT JUMABAEVICH

**Xorazm Xalq Sovet
Respublikasining tashqi
munosabatlari va savdo aloqalari
(1920–1924 yy.)**

TOSHKENT – 2007

Mazkur kitob ilm-fan
jumiysi Shakarov Nusratning
xomiyligida nashr qilindi

Xorazm mintaqasida o'zbek davlatchiligi uch ming yillik tarixga ega. Uning so'nggi bosqichi Xiva xonligi o'rnida tashkil qilingan Xorazm xalq Sovet respublikasi hisoblanadi. XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarini, jumladan Turkistonni qamrab olgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ma'rifiy-demokratik harakatlar oqimi Xorazmni ham qamrab oldi. Xorazmlik vatanparvarlar «Yosh Xivaliklar» harakatiga asos solib, Xiva xonligi o'rnida Xorazm xalq Sovet respublikasini tashkil qildilar. Xorazm respublikasi qisqa tarixiy muddatda faoliyat ko'rsatgan bo'lsada (1920-1924 y.y), Buxoro, Afg'oniston, Kavkaz orti respublikalari, Rossiya, Ukraina, Finlyandiya, Germaniya, Angliya kabi o'nlab Sharq va G'arb davlatlari bilan diplomatik, savdosotik aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Monografiyada mazkur tarixiy voqealar, o'sha davr matbuot materiallari, arxiv hujjatlarining chuqur tahlili asosida yoritilganligi bilan ilmiy qimmatga egadir.

Monografiya, XX asr boshlari Xorazm tarixi bilan qiziquvchilar, aspirantlar, magistrantlar, shuningdek keng ilmiy jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: t.f.d. **ZIYO EVA D.X**

Taqrizchilar: t.f.d, professor **BOBOXADJAEV M.**

t.f.n, dotsent **ALIMOVA R.A**

K I R I S h

XX asr boshlarida butun Sharq mamlakatlari, jumladan Turkistonni ham milliy-ozodlik, demokratik xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar qamrab oldi. Mustamlakachilik va o'rta asr qoloqligiga qarshi qaratilgan ma'rifatparvarlik, umuminsoniy, demokratik maqsadlarni ko'zlagan Misr, Turkiya, Hindiston, Eron, Xitoy va boshqa davlatlarga qarab keng yoyilgan mazkur harakat namoyandalari o'z mamlakatlarini dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida ko'rishni orzu qilganlar. Ilg'or, zamonasining yetuk shaxslarini birlashtirgan, jadidlar nomi bilan tarix sahnasiga kirgan Turkistonni hur va ozod ko'rishni istagan fidoiy vatanparvarlar Chor Rossiyasi, Buxoro amirligi, Xiva xonliklaridagi mustabid tuzumning tazyiqlariga qaramay kurashga otlandilar. Ma'rifatparvarlik, demokratik oqim Xiva xonligida ham «Yosh xivaliklar» timsolida namoyon bo'ldi. Polvonniyoz Xoji Yusupov, Boboxxun Salimov, Nazar Sholikarov, Husayn Matmurodov va boshqa o'nlab Xorazm vatanparvarlarining faol harakatlari tufayli, Xiva xonligida ilk bora 1917 yilga kelib Parlament monarxiya boshqaruvi, demokratik konstitutsiyaviy monarxiya tizimi o'rnatildi. Ammo bu harakat mustabid xon hokimiyati tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi.

Xivalik demokratik ma'rifatparvarlar, mavjud tarixiy va harbiy vaziyatni hisobga olib, shuningdek, bolsheviklarning «ozodlik», «hurriyat», «demokratiya» kabi balandparvoz shiorlariga ishonib, ularni Xivada mavjud siyosiy tuzumini ag'darib tashlashda o'zlariga ittifoqchilar deb bildilar.

Sovet hokimiyati bunday vaziyatdan unumli foydalandilar. Sharq xalqlarini «sovetlashtirish», «butun dunyo proletariat inqilobi» kabi maqsadlarni ko'zlagan bolsheviklar Xorazm va ayrim turkman vatanparvarlari kuchi va yordami bilan Xivaga tajovuz uyushtirdilar, natijada xonlik tuzumi tugatildi.

«Yosh xivaliklar» darhol demokratik islohatlarni amalga oshirishga kirishdilar. Shu maqsadda Muvaqqat hukumat tuzildi. Milliy taraqqiyot yo'lini ishlab chiqdilar. Bunda mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, milliy, diniy urf-odatlarini hisobga olindi.

Ammo bolsheviklar birinchi kunlardan oq yosh hukumatning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashdilar. Hatto taraqqiyot yo'lini belgilashda «bolshevikcha» andozani tiqishtirishni boshladilar, natijada milliy

demokratik taraqqiyot va bolshevistik sovet taraqqiyoti tarafdorlari o'rtasida tinimsiz kurash boshlandi. Bu kurash Xiva xonligi o'rnida tashkil qilingan Xorazm xalq sovet respublikasi (1920–1924 yy.) davrida yanada kuchaydi. Sovet Rossiyasi Xorazm Respublikasining nafaqat tashqi siyosatiga, balki ichki siyosatini ham belgilab berish yo'lini tutdilar.

Shunday bo'lsa-da, XXSR rahbariyati o'z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash uchun kurash olib bordilar. Ularni hatto bolsheviklarning qatag'onlari ham to'xtatib qolmadi.

Qizig'i shundaki, XXSR qisqa muddatda Sovet Rossiyasi tomonidan qo'yilgan cheklov va to'siqlarga qaramay dunyoning ko'pgina davlatlari bilan diplomatik, savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. G'arb davlatlaridan Finlayandiya, Germaniya, Angliya, Boltiq bo'yi respublikalari, shuningdek, Rossiya, Ukraina, Kavkaz orti respublikalari, Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi davlatlar bilan faol siyosiy-iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. XXSR G'arb davlatlariga nafaqat xom-ashyo, balki tayyor sanoat mahsulotlarini ham eksport qildi. Hatto Rossiya iqtisodiyotiga sarmoya olib kelishga muvaffaq bo'ldilar. Dunyoda o'z o'rniga ega bo'la boshladilar.

Ammo, RSFSR da sovet hukumati mustahkamlanib borgan sari RSFSR, keyinchalik SSSR ning kommunistik rahbariyati Xorazm respublikasiga nisbatan har qanday mustaqil davlatning asosiy suveren huquqlaridan hisoblangan tashqi iqtisodiy faoliyatini erkin amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik siyosatini yurgizdi. 1924-1925 yillarda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralanishi natijasida XXSR tugatildi. Uning hududlari Turkmaniston, Qoraqalpoqiston, shuningdek O'zbekiston Sovet respublikalariga qo'shib yuborildi. O'zbekiston SSR ga qo'shilgan hududida Xorazm viloyati tashkil qilindi.

Qo'lingizdagi ushbu monografiya XXSR ning munosabatlari va savdo aloqalariga bag'ishlangan bo'lib, undagi asosiy ma'lumotlar ilk bora ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

Shuning uchun ham ushbu kitob muhim ilmiy qimmatga ega bo'lib, bu borada amalga oshirilgan dastlabki olib borilgan tadqiqotlar natijasi-dir.

I BOB. XXSRNING TASHKIL QILINISHI VA TASHQI ALOQALARINING YO‘LGA QO‘YILISHI

1 §. Xiva xonligining ag‘darilishi va XXSRning tashkil qilinishi

XX asrning boshlarida Xiva xonligi iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligiga asoslangan agrar mamlakat edi. 1873 yil 12 avgustda Rossiya va Xiva xonligi o‘rtasida tuzilgan Gandamiyon shartnomasiga muvofiq, xonlik hududining yarmidan ko‘prog‘i majburiy ravishda Rossiya saltanatining ixtiyoriga o‘tkazildi. Natijada Xiva xonligining umumiy maydoni ikki barobarga qisqarib, 54 000 kvadrat verstni¹ tashkil qildi² (73 000 km²).

Xonlik aholisi taxminan, 800–900 ming kishi atrofida bo‘lib, etnik tarkibi – o‘zbeklar – 450–500 ming (60 %), turkmanlar 132 000 (25 %) qoraqalpoqlar 20 000, qozoqlar 18 000, shuningdek, qirg‘izlar, koreyslar, tatarlar va ruslar 6 000 tani tashkil qilgan.

Xiva xonligi aholisining ijtimoiy tarkibi quyidagicha bo‘lgan³:

1. oqsuyaklar, xo‘jalar (5 %) – xon saroyi ayonlari, katta mansabdorlar, amaldorlar;

2. ruhoniylar (3 %) – masjid imomlari, maktab, madrasa imomlari va qozilar;

3. savdogarlar (yirik, o‘rta, mayda) 5–7 %;

4. shahar hunarmandlari (10 %);

5. yollanma ishchilar (5 %);

6. dehqonlar 70–75 %.

Aholining 85–90 % dan ortiqrog‘i qishloq joylarida istiqomat qilgan. Sug‘oriladigan yerlar taxminan 400-500 ming tanob⁴ maydonni tashkil qilgan⁵. Qishloq xo‘jaligida boshqali ekinlar yetishtirishga jiddiy e‘tibor

¹ Верста – 1,6 км га тенг узунлик

² ЎЗР МДА. 73-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, в. 4.

³ Хамдамов Х. Хива хонлигининг ағдарилиши ва Хоразм Халқ Совет Республикасининг ўрнатилиши. – Т., 1960. – Б. 92.

⁴ Таноб – 0.2 гектарга тўғри келадиган ер ўлчови.

⁵ История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. – М., 1971. – С. 9.

qaratilar edi. Rossiyaning I jahon urushiga tortilishi natijasida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli nihoyatda og'irlashdi. Ayniqsa, mahsulotlar eksporti va importi keskin kamaydi. Masalan, 1912 yilda eksportni umumiy hajmi 2 mln. 800 ming pud (1 pud – 16 kg)ni tashkil qilgan bo'lsa, 1918 yilga kelib, 150 ming pudni tashkil qildi. Xorazmning asosiy eksport mahsuloti hisoblangan paxtani chetga chiqarish hajmi bu davrda 1 mln. 740 ming puddan, 10 ming pudgacha tushib qoldi¹. Natijada xalqning turmush darajasi ancha pasaydi, chunki Xorazm iqtisodiyoti bevosita Rossiyaning iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'liq edi.

XX asr boshlarida Turkistonni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, milliy uyg'onish asosida vujudga kelgan demokratik harakatlar to'qlini Xiva xonligini ham chetlab o'tmadi. Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga nisbatan amalga oshirgan qattiq proteksionistik siyosati xonlikni Turkistonning boshqa hududlaridan, ayniqsa, jahon xo'jaligidan deyarli ajratib qo'ygan edi. Shunga qaramasdan, Sharq mamlakatlarini qamrab olayotgan yangilikka intilish, mustaqillik g'oyasi Xiva xonligining ilg'or fikrli vakillarini ham harakatga soldi. Hindiston, Eron, Turkiya kabi yarim feodal davlatlardagi milliy-ozodlik va demokratik harakatlar ta'sirida Turkistonda, jumladan, Xiva xonligida ham ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik harakatining yangi to'qlini boshlandi.

Chunki Xiva xonligidagi o'rta asrlarga xos tuzum, ya'ni xonning mutlaq yakka hukmronligiga asoslangan boshqaruv tartibi, demokratik o'zgarishlar yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib qolgan edi.

«Yosh xivaliklar» xonlikdagi mustabid tuzumni ag'darib tashlash maqsadida qurolli kurashga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Bunda ular sovet Rossiyasidan harbiy yordam olishni, shuningdek, ayrim turkman oqsoqollarining askariy qo'shilmalardan foydalanishni rejalashtirgan edilar. Xorazm jadidlari sovet Rossiyasining harbiy yordam bilan Xivada demokratik tuzum o'rnatishni asosiy maqsad qilib qo'ygan edilar. Ammo, voqealarning keyingi rivojlanishi «Yosh xivaliklar»ning bolsheviklar hukumatiga ishonib katta xato qilganliklarini ko'rsatdi.

¹ ЎзР МДА. Ж.70. рўйхат-1, иш 5, варақлар-82,83.

1919 yilning yozida Kaspiyorti hududlarida qizil armiya o'z pozitsiyalarini mustahkamlab oldi. Xiva xonligi sovet fronti xalqasi orasida qoldi. Bolshheviklar rahbarlari bunday vaziyatdan unumli foydalanib, Xiva xonligiga qurolli tajovuz qilish rejasini yangidan tayyorlay boshladilar. Shu maqsadda xonlik hududiga tinimsiz tashviqotchilar, targ'ibotchilar yuborilib turildi. Bu ishlarga Turkiston ASSR ning Xivadagi vakili Xristoforov boshchilik qildi. U Xivadagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat to'g'risida sovet hukumatiga doimiy ravishda ma'lumot berib turdi. 1919 yil 10 iyulda yuborgan telegrammasida «Xivada sovet adabiyotlarini tarqatish va tashviqot olib borish uchun maxsus guruh tashkil qilindi, ayniqsa, yovmudlar orasida hayrixohlikni vujudga keltirish kerak»¹ deb xabar berdi. Ammo bu harakatlar kutilgan natijaga olib kelishiga ishonmasdan «maqsadga yaqin vaqt ichida faqat harbiy tazyiq yo'li bilangina erishish mumkin» deb, sovet hukumati Xiva xonligiga qarshi harbiy kuch ishlatishga da'vat qildi.

Xristoforov keyinchalik o'z fikrini yanada ochiqroq bayon qilib 1919 yil 31 iyulda shunday deb yozadi: «Yovmudlarning 10-20 kishilik otliq guruhleri Pitnakdan, Darg'onotagacha bo'lgan Amudaryo qirg'og'ida kuchaytirilgan tartibda kuzatish ishlarini olib bormoqdalar... Yana alohida ta'kidlayman, qo'shinlarimiz Xivani okkupatsiya qilmagunicha, ular doimo bizga xavf soladilar va hech qanday murosaaga bormaydilar».

Shu dalilning o'ziyoq sovet hukumatining Sharq mamlakatlariga, jumladan, Xiva xonligiga nisbatan siyosatining mohiyatini ochiq ifodalaydi. Xuddi shunday mazmundagi radiogramma 12 avgust 1919 yil Moskvaga, RSFSR tashqi ishlar vazirligiga jo'natildi².

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, To'rtko'lda «Yosh xivaliklar» inqilobiy qo'mita sho'rbasi bilan bir vaqtda bolsheviklar tomonidan tashkil qilingan Petro-Aleksandrovsk soveti faoliyat olib borayotgan edi. Sovetga, asosan, yevropa millatiga mansub kishilar, ya'ni

¹ ЎзР МДА.17-жамғарма, 1-рўйхат, 1127-иш, в. 58.

² Ўша жойда. в. 87.

N.A. Shaydakov, A.N. Xristoforov, S. Naumov, A.A. Timoshenko, B.V. Cheprunov, I.K. Sertukiy, N.N. Fedko va boshqalar kirgan edi¹.

«Yosh xivaliklar» Xivaga uyushtirilayotgan harbiy hujumlardan faqatgina millat, xalq manfaatlarini uchun ishtirok qilishni maqsad qilib qo'ydilar. Xivaning demokratik kayfiyatdagi qatlamlari orzu-umidlari ifodalangan bu partiya xonlik tuzumini ag'darib, demokratik asosdagi milliy mustaqil davlat tuzishni eng asosiy vazifa deb belgilagan bo'lsa, sovet hukumati bu kuchlardan xonlikni tugatib, sovet hokimiyatini zo'rlik bilan o'rnatish, oxir oqibatda sovet Rossiyasiga qo'shib olishda foydalanmoqchi edi. Voqealarning keyingi rivoji ham shuni ko'rsatardi. «Yosh xivaliklar» kurashga jiddiy tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda To'rtko'lga Junaidxon norozi bo'lgan turkman urug'larining ayrim nufuzli boshliqlaridan vakillar keldi. Ularning maqsadlari Xiva xonligida sovet hokimiyatini o'rnatish emas, balki Junaidxon diktaturasidan qutulishda sovet hukumatidan, faqat askariy yordam olish edi, xolos. Bu holat turkmanlarning urug'-qabilaviy nizolari oqibati bo'lib, bu vaziyatdan sovetlar ustalik bilan foydalandilar. Shunisi achinarliki, xonlik tuzumi tugatilgandan keyin bolsheviklardan yordam so'rab murojaat qilgan turkman sardorlari va Xorazm xalqining mustaqilligi uchun jonini tikkanlarning ko'pchiligi qatag'on qilindi.

Kommunistlar xalq orasida umuman obro'-e'tiborga ega bo'lmaganligi uchun, «Yosh xivaliklar»ning bu boradagi ta'siridan o'z faoliyatlarida foydalandilar. «Yosh xivaliklar»ning Xivada yashirin tashkilotlari bo'lib, ularga Petro-Aleksandrovskdagi «Yosh xivaliklar» sho'bbasi boshchilik qilardi². Shuningdek «Yosh xivaliklar»ning Chorjo'y va Marv shaharlarida ham sho'bbalari ish boshladi³.

Umuman, 1919 yil kuziga kelib Junaidxonga qarshi uch siyosiy kuch birlashib harakat qilishga qaror qildilar. Bular quyidagilar edi:

1. Bolsheviklar boshchiligidagi qizil armiya qismlari;

¹ История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. – М., 1971. – С. 81.

² История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик... – С. 82.

³ Юсупов П.. Ёш хивалиklar тарихи.... 189-190-б.

2. «Yosh xivaliklar»ning ko'ngilli otryadlari;
3. Turkman urug'lari yo'lboshchilarining qo'shinlari.

Bu kuchlarning birlashishi, eng avvalo, Junaidxonga qarshi kurashishda alohida harakat qilingan taqdirda muvaffaqiyatsizlikka uchrash xavfi mavjudligidan kelib chiqildi. Chunki Junaidxon qo'shini katta kuchga ega bo'lib, ularning soni 15 ming kishiga yetgan edi¹.

«Yosh xivaliklar» va turkman sardorlarining yordam so'rab qilgan murojaati Sovet Turkistoni bolsheviklari uchun juda qulay imkoniyat berdi. Chunki bu «qo'zg'olon ko'targan Xiva xalqiga yordam ko'rsatish» va uning «iltimosi» bilan qo'shni mustaqil davlatga qo'shin kiritish uchun bolsheviklarga katta bahona edi². Bu masalada ularni Turkkomissiya ham qo'llab-quvvatlagan. 1919 yil 20 noyabrda RSFSRning Xivadagi vakili G.K. Skalov Turkkomissiyaning «qo'zg'olon ko'targan Xiva xalqi»ga yordam ko'rsatish haqidagi direktivasini oldi. Bu direktivaning qabul qilinishi va uning amaliy jihatdan bajarilishi RSFSR hukumatining suveren Xiva davlati ichki ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi edi. Turkkomissiya RSFSR hukumatining mintaqadagi «nazoratchisi» sifatida bu bosqinchilikni bevosita ijrochisi bo'ldi. Bu Turkkomissiyaning ushbu qarorni qabul qilishdan maqsadi Xivadagi mavjud rejimni tugatib, bundan keyin qanday davlat bo'lishi masalasini yechishda va uni idora qilishda sovetlarga ma'qul bo'lgan shaklni tanlashga erishish edi. Sovet rahbariyati mazkur masalaga doir hujjatlardan birida to'g'ridan-to'g'ri, ko'rsatib o'tganidek, xonlikdagi qo'zg'olonning sovetlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan maqsad «vujudga kelgan harakatni so'ndirib qo'ymaslik va uni kerakli yo'nalishga solish»dan iborat edi.

1919 yil 23 dekabrda sovet qo'shinlarining xonlik hududiga bostirib kirishi boshlandi. Xivaliklardan tashkil topgan ko'ngilli otryadlar ularga qo'shildilar. Sovet qo'shinlari umumiy qo'mondon G.K. Skalov boshchiligida Urganchni egallab, uni harbiy harakatlarni boshqarish shtabiga aylantirdi.

¹ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Ўзбекистоннинг янги тарихи. II-жилд. – Т., 2000. 118-б.

² Ўша жойда. Б. 118.

Qizil armiya qismlari Xiva xonligi hududi ichkarisiga kirib borgan sari ularga turkman va o'zbek aholisidan tashkil topgan qo'zg'olonchilar otryadlari kelib qo'shilaverdi. 1919 yil 28 dekabrda Kushmamadxon Yaxshi geldi, Murod baxshi, G'ulomali otryadlari qo'shildi. Tez orada xivalik qo'zg'olonchilarning umumiy soni 3 ming kishiga yetdi. Qizil armiya qo'shinlari Junaidxon qo'shinlarining qarshiligini yengib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda Ko'hna Urganch, Emin qal'a, Porsu, Ilyali, Toshhovuzni qo'lga kiritdilar. Qizil armiya qismlari va qo'zg'olonchilar otryadlari 1920 yil yanvarining ikkinchi yarmida Junaidxon qo'shinlariga G'azovot tumanida jiddiy zarba berib, poytaxtga yaqinlashib keldilar¹. Junaidxon vaziyatning og'irlashganini ko'rib, Xiva shahrini, xonlikni Said Abdullaxonning ixtiyoriga tashlab Qoraqumga chekindi.

Said Abdullaxon o'z a'yonlari bilan maslahatlashib, sovet qo'shinlari qo'mondoni G.K. Skalov bilan sulh tuzish maqsadida Urganchga elchilar yubordi. Elchilar guruhiga qozikalon Hikmatullo Eshon boshchilik qildi. Ammo Skalov ular bilan hech qanday sulh tuzmasligini va Xivaga qaytib ketishini, yaqin orada o'sha yerda uchrashishlarini aytdi.

Shuni aytib o'tish kerakki, sovet qo'shinlari bosib olingan hududlarda zo'rvonlik siyosatini amalga oshirdilar. Xo'jaylida, Gurlanning ba'zi bir qishloqlarida nufuzli eshonlarning uyiga kirib, talon-taroj qilish bilan mashg'ul bo'lganlar². Ammo Gurlan qal'asi talon-tarojdan «Yosh xivaliklar» partiyasi yetakchilaridan biri Boboovun Salimovning qat'iy xatti-harakatlari tufayli omon qoldi³.

1920 yil 1 fevralda G.K. Skalov boshchiligidagi barcha qo'shinlar Xiva shahriga kirib keldi. G.K. Skalov Xiva xonligi hukumat boshlig'i Davlatmurod yasovulboshini hech qanday sudsiz otib o'ldirishga buyruq berdi⁴. Bu yangi hukumatning qatag'onlik zo'rvonlik siyosatining boshlanishi bo'ldi. 1920 yil 2 fevral kuni sovet qo'shinlari rah-

¹ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.... – Б. 119.

² Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи.... – Б. 197.

³ Ўша жойда. – Б. 198.

⁴ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 199.

barlarining tazyiqi natijasida Xiva xoni Said Abdullaxon o'z ixtiyori bilan taxtdan voz kechganligi haqidagi manifestga qo'l qo'ydi. Shu bilan deyarli 500 yil davomida yashab kelgan Xiva xonligi davlat sifatida tugatildi, Xivada xonlik tuzumi ag'darildi.

Yuqorida qayd etilganidek, Xorazm hududida mahalliy siyosiy kuchlar asosan «Yosh xivaliklar» partiyasi va turkman urug'larining Junaidxonga qarshi kayfiyatda bo'lgan oqsoqollardan iborat guruhlar hisoblanardi. Xiva xonligining ag'darilishi bilan bog'liq voqealarni tahlil qilar ekanmiz, bolsheviklar mazkur ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan naqadar ustalik bilan foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Xiva xalqi tarixidagi bu muhim tarixiy burilish davrida sovet qo'shinlari va uning qo'mondonlari Xiva xonligi ag'darilgandan keyingi voqealarda asosiy rol o'ynaganligini ko'ramiz.

Mahalliy vatanparvarlar Xivada yangi davlat qanday bo'lishi, yangi jamiyat qurish uchun qanday vazifalarni bajarish kerak degan savollarga javob topish va yechishda bevosita bolsheviklarning ko'rsatmalariga amal qila boshladilar. Xorazmda yangi davlat asoslarini barpo qilishda sovet hukumatining beg'araz yordam berishiga astoydil ishonidilar. Bolsheviklar o'zlarini, go'yo sharq xalqlarini zolim xon, amirlar zulmidan ozod qiluvchilar qilib ko'rsatdilar. Xiva xalqi xonlikning ag'darilishini va Junaidxonning yengilganligini har holda hayrixohlik bilan qabul qildi.

1920 yil 2 fevralda Ark oldidagi maydonda Mulla Jumaniyozov katta nutq so'zlab, shunday dedi: «Birodarlar o'zlaringizga ma'lum, bul vaqtgacha zulm istibdod bilan ezilib xarob bo'ldingiz... Endi bundan buyon Xorazmda hech xon bo'lmas turur. Endi o'z ichlaringizdan yaxshi insofli, diyonatli odamlaringizni bir necha vaqt saylab qo'yorsizlar. Agar saylab qo'yg'an odamlaringiz sizlarni hayringizdan boshqa o'z foydasi uchun bir ish qilsa, darhol o'rnidan tushirib, o'rniga boshqa birovni saylab qo'yorsizlar»¹.

Xorazm xalqining umumqurultoyi chaqirilgunga qadar mamlakatni idora qilib turish va yangi demokratik tartiblarni o'rnatish, islohotlarni boshlash uchun Muvaqqat inqilobiy hukumat tuzildi. Unga 5

¹ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи....

kishi saylandi¹. Hukumatga 2 ta vakil «Yosh xivaliklar»dan, 2 ta vakil turkman oqsoqollaridan va 1 ta vakil diniy ulamolar tomonidan saylangan. «Mulla Jumaniyoz – «Yosh xivaliklar» tarafidin rais, Matpanaboy – savdogarlar tarafidin a'zo, Odash mullalar – tarafidin a'zo va sarkotib, Mulla O'roz Qo'shmamatxon – tarafidin a'zo, Mulla Navro'z G'ulom Ali – tarafidin a'zo, jami 5 kishidan iborat, Muvaqqat hukumat barpo qilganlar².

Yangi hukumat Xiva xonligining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini qamrab olgan bo'lib, o'z oldiga demokratik vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirgan edi. Muvaqqat hukumat 1920 yil fevral oyi boshida Manifest e'lon qildi. Unda mamlakatni demokratik rivojlantirish yo'lida keng miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi³.

Manifestda quyidagi tadbirlar Muvaqqat Hukumatning birinchi galdagi vazifalari qilib belgilandi: «Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq o'z xohishicha boshqarishni tugatish; Xiva xoniga, shahzodalarga hamda vazirlarga tegishli pul va mulklarni ko'rinishlaridan qat'i nazar xalq mulki deb e'lon qilish; kambag'allarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida yirik yer egalaridan foydalanish; Xivaning bo'sh yotgan yerlariga Amudaryodan suv chiqarish maqsadida kanallar qazish; Xivaning hamma joylarida bolalarni tekin o'qitish uchun maktablar ochish; shahar va aholi punktlarida tekinga davolash joylari va kasalxonalar ochish; Xiva xoni va beklari tomonidan aholidan zo'rlik bilan tortib olingan yer, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish; majburiy mehnat (begar) ni abadiy yo'q qilish»⁴.

Xivada tuzilgan yangi Muvaqqat hukumatning yuqorida qayd etilgan harakat dasturining bandlari va o'z oldiga qo'ygan vazifalari bilan tanishar ekanmiz, «Yosh xivaliklar» va hukumat a'zolari mamlakatni birinchi galda demokratik taraqqiyot yo'lidan

¹ История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик.... – С. 103.

² Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 201.

³ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т., 2000. – С. 305.

⁴ Туркестан в начале XX века... – С. 305.

rivojlantirishni maqsad qilib quyiganliklarining guvohi bo'lamiz. Mamlakatda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishning bosh yo'li – agrar islohotlar, ya'ni yer bilan bog'liq islohotlar ekanligini yangi hukumat yaxshi anglagan edi. Ammo, Xiva aholisining mentaliteti, turmush an'analarini va urf-odatlarini to'g'ri tushungan Muvaqqat hukumat faqat yirik yer egalari yerga yerlaridan foydalanishni (*e'tibor bering tortib olish emas!!!* - S.Sh.), bunda vaqf o'rta va mayda egalari mulklariga dahl qilmaslikni ko'zlagan edi. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadida «Yosh xivaliklar» tez fursatda xalq hokimiyatini tashkil qilishni e'lon qildilar¹.

Aynan shu kunlarda «Yosh xivaliklar»ning yirik sardorlaridan biri bo'lgan P. Yusupov Toshkentda edi. U yangi sovet hukumatini demokratik o'zgarish ishlarini amalga oshirishda yordam berishga chaqirdi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, bolsheviklar hukumati Xiva xonligidagi davlat to'ntarishida faol qatnashishi bilan birgalikda, Xivadagi milliy demokratik islohotlarni qanday amalga oshirish yo'llarini ham belgilab berishga harakat qildilar. Bu yo'l bilan RSFSR manfaatlariga mos keluvchi rejim o'rnatishni rejalashtirgan edilar. «Yosh xivaliklar» bolsheviklarning balandparvoz, millatlarning erkinliklari, ozodlik, mustaqillik kabi shiorlariga ishonib ulardan chin yurakdan beg'araz yordam berishlariga qat'iy ishonidilar. Ammo «Yosh xivaliklar» Turkiston Respublikasiga murojaat qilar ekanlar, avvalambor mahalliy millat fuqarolaridan maxsus vakolatli vakillar yuborishlarini so'rashdi².

Biroq inqilobning Turkistondagi bevosita «nazoratchisi» vazifasini bajarayotgan Turkkomissiya bu masalada boshqacha yo'l tutdi. Xivaga maxsus vakil sifatida G.I. Broydo yuborildi. «Yosh xivaliklar» G.I. Broydoga Yusuf Ibrohimovni birga qo'shib jo'natishni so'rashdi. Ammo aniq bir javob olisha olmaydi³.

Xivada milliy-demokratik yo'nalishda Muvaqqat hukumat faoliyat yurgizayotgan bir paytda, 1920 y. Rossiya bolsheviklari Xiva hududida sovet hokimiyatini o'rnatish bilan bog'liq faoliyatni boshladilar.

¹ Ўша жойда. – С. 305.

² Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи.... 202-б.

³ Ўша жойда.

G.I. Broydoning tashabbusi bilan 1920 yil 4 aprel kuni «Yosh xivaliklar» faollari, mahalliy vatanparvar va Rossiya bolsheviklarining umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Turkiston Markaziy ijroiya komitetining vakili, bolshevik Olimjon Akchurin rahbarligida Xorazm kommunistik partiyasining tashkiliy qo'mitasi saylandi. «Yosh xivaliklar» partiyasi, ya'ni Xorazmda demokratik o'zgarishlar uchun kurashgan milliy partiya tugatildi¹. Hukumat Xiva hududida Butun Xorazm Qurultoyi chaqirilgunga qadar XKP tashkiliy qo'mitasiga topshirildi². 1920 yil 2 fevralda xalq mitingida saylangan Muvaqqat hukumat o'z faoliyatini tugatdi. Hokimiyat amalda kommunistlar qo'liga o'tdi. Shu tariqa Xorazmni sovetlashtirish boshlandi. Yangi hukumatda rahbarlik RSFSR va Turkistondan kelgan kommunistlar qo'liga o'tdi. Yangi vaziyatda ko'pgina «Yosh xivaliklar», jumladan, Muvaqqat hukumatining raisi Jumaniyoz Sultanmurodov boshchiligidagi ayrim vakillari XKP safiga o'tdilar³. «Yosh xivaliklar» partiyasi rahnamosi Polvoniyoz Xoji Yusupov yetakchi yesh xivaliklardan Boboovun Salimovlar va boshqa millatparvarlar yangi partiya kirishmadi. Ular o'z e'tiqodlariga zid ish qilishni lozim topmadilar. Ammo Rossiya vakillari, bolsheviklar bu vatanparvarlarning xalq orasidagi katta obro'e'tibori bilan hisoblashish majbur edilar.

Sovet hukumati dastlab Xivada o'z maqsadlari va manfaatlariga javob beruvchi markaziy hokimiyat boshqaruv organlarini tashkil qildi. Xorazm xo'jaligining turli sohalariga boshqarish maqsadida nozirliklar tuzildi. Nozirlarni saylash maqsadida 1920 yil 9 aprelda Muvaqqat hukumat va RSFSRning favqulodda vakili ishtirokida qo'shma majlis o'tkazildi. Majlisda 10 kishidan iborat quyidagi tarkibda Muvaqqat Hukumat tashkil qilindi:

1. Hukumat raisi, tashqi ishlar noziri Jumaniyoz Sultonmurodov;
2. Hukumat raisi o'rinbosari Odamoxun Ortiqov;
3. Muvaqqat hukumat kotibi – Dauruz Rajabov;

¹ Туркестан в начале XX века.... – С. 308.

² История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик... – С. 106.

³ Туркестан в начале XX века... С. 308.

4. Muvaqqat hukumat kotibi yordamchisi – Mulla O‘roz Xo‘ja Mamedov;

5. Moliya noziri – Matfanaboy Madrahimov;

6. Harbiy ishlar noziri – Shayxutdin Hasanov;

7. Davlat nazoratchisi – Polvonniyoz Hoji Yusupov;

8. Xalq iqtisodiyoti noziri – Ipzan Kori Jabborqulov;

9. Xalq madaniyati va maorif noziri – Bekchan Rahmon Ko‘rg‘onov;

10. Adliya vaziri – Bobooxun Salimov⁷³.

Bu hukumat mehnatkashlarning Butun Xorazm Qurultoyi chaqirilgunga qadar faoliyat olib borishi belgilandi. Shuningdek, joylarda ham Muvaqqat hukumatning tarmoqlarini, bo‘limlarini tashkil qilish maqsadida mas’ul shaxslar tayinlandi. Ularga mahalliy hokimiyat organlarini tuzish va bo‘lajak Butun Xorazm Qurultoyiga vakillarni saylashni tashkil qilish vazifasi yuklatildi. Bu xaqda arxiv manbalarida quyidagicha ma’lumot berilgan:

1. Darg‘on ota hududi bo‘yicha: a) G‘animurodov – rais; b) Xudoybergan – a’zo. Ularga saylovlar o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

2. Pitnak bo‘yicha: rais – Jo‘raboy Mo‘minov o‘zbek va turkmanlardan bittadan vakil. Jo‘raboy Mo‘minovga vakillarni tashkil qilish yuklatilsin.

3. Xazoraspeda 5 kishilik hokimiyat organi tashkil qilish, unga Xo‘nib G‘aniev raisligida.

4. Besh ariqda – Tohir G‘aniev raisligida.

5. Hanqada – Zarif Ayubov raisligida.

6. Yangi Urganchda – Allanazar Abdurahimov raisligida.

7. Gurlanda Safa Quvakov, tashviqot ishlarini olib borishga yuborilsin.

8. Shovotda – Tillabuyurganov boshchiligida.

Shuningdek Qo‘shko‘prik, Manak, Tashxovuz, Ilyali, Qilichboy, Qipchoq, Xo‘jaylida ham sovetlar tashkil qilish va ularga Butun Xorazm mehnatkashlari Qurultoyiga vakillar saylash vazifasi yuklatildi¹.

⁷³ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 2-иш, в. 4.

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 2-иш, в. 4-5.

Yangi hukumat tarkibida «Yosh xivaliklar» ko'pchilik bo'lib ular birinchi navbatda Xorazm xalqi manfaatlarini uchun faoliyat olib borishni ta'minlash choralarini ko'rdilar. Xalq demokratik davlatini yangi qonunlar va huquqiy xujjatlarsiz rivojlantirish mumkin emas edi. Shu maqsadda Xorazm xalq hukumatida adliya nozirligiga alohida e'tibor berildi. RSFSR favqulodda vakili va Muvaqqat hukumat 9 aprelda 1920 yilda bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishda adliya vazirligini tashkil qilish to'g'risida qaror qilindi. Adliya noziri qilib mashhur huquqshunos, Xiva xonligida qozikalon lavozimida ishlagan, «Yosh xivaliklar» partiyasi rahnamalaridan Bobooxun Salimoxun o'g'li (Salimov) tayinlandi. Unga yordamchilar qilib Olimjon Akchurin, Abduvohid Qoziev va Nazir Sholikarovlar saylandilar. Shuningdek, eng muhim huquqiy masalalarni hal qilish maqsadida Bobooxun Salimoxun o'g'li raisligida, uning yordamchilari ishtirokida adliya kengashi tashkil qilindi. Jinoyatchilikka va yangi tartiblar o'rnatilishiga qarshi bo'lganlarga kurash olib borish maqsadida adliya vazirligi qoshida Oliy inqilobiy sud tashkil qilindi. Unga rais qilib Olimjon Akchurin, Kuchmuhammadxon Safaev va Bobooxun Salimov a'zolar qilib saylandi. Sudga jazoning hamma turlarini, hatto oliy jazo (o'lim) tayinlash vakolati berildi¹. Shuningdek, Abdulvohid Qoziev raisligida Adliya nozirligi qoshida xalq sudi tashkil qilindi. Bu sudga umumiy xarakterdagi jinoiy va fuqarolik ishlarni ko'rib chiqish vazifasi yuklandi². Mamlakatda va Xiva shahrida jamoat xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirish maqsadida Nazar Sholikorov rahbarligida milisiya boshqarmasi tashkil qilindi³. Polvonniyoz Xoji Yusupov taftish (reviziya) qo'mitasiga boshliq qilib tayinlandi. Hasan Aliakbarov o'rinbosar, Ernazar Olloqulov, Hasanboy Sholikorov, Rahmonbergan Devanov, Yusuf Otajonov, Sa'dulla Madrahimovlar a'zo qilib saylandilar⁴.

Shunday qilib Butun Xorazm mehnatkashlari Qurultoyi chaqirilishiga qadar Muvaqqat Hukumat to'liq tarkibda ish boshladi.

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-руйхат, 2-иш, в. 7.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда.

⁴ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 213.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, barcha nozirliklar, qo'mita va sudlarga deyarli mahalliy xalq vakillari saylandi. Bu «Yosh xivaliklar»ning katta siyosiy g'alabasi edi. Chunki ular birinchi marta o'zlarining demokratik xarakterdagi maqsadlarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar. Yosh hukumat birinchi navbatda maorifni rivojlantirish, ayniqsa, yetim bolalarni o'z panohiga olish maqsadida hayrli ishlarni boshlab yubordi. Xonning haram saroyida yetim bolalar uchun uy va maktab ochildi. Ular kiyimbosh va maktab o'quv qurollari, o'qituvchilar bilan ta'minlandilar¹.

Muvaqqat hukumatning markaziy va mahalliy hokimiyat vakillari «Xalqqa voqeani tushuntirib, xalqni o'z ixtiyori birlan birinchi Qurultoyga vakillar saylab keldilar»².

1920 yil 27-30 aprel kunlari Xiva shahrida Butun Xorazm mehnatkashlari vakillarining birinchi Qurultoyi bo'lib o'tdi³. Qurultoy ishida Turkiston respublikasi hukumati va o'lka musulmonlar byurosining vakillari Rizaaddin Shokirov, Olimjon Akchurin va Izmailovlar qatnashdilar. Qurultoyni boshqarish uchun Polvonniyoz Xoji Yusupov taklifi bilan Rizaaddin Shokirov raisligida hay'at saylandi. Polvonniyoz Xoji raisning birinchi o'rinbosari, Bobooxun Salimov o'rinbosar, Qo'shmamadxon, Shomurodixon baxshi, G'ulomali va boshqalar hay'at a'zolicigiga saylandilar⁴. Qurultoyda Xiva xonligining o'rniga Xorezm Xalq Sovet Respublikasini tashkil qilish; Xorazm hukumatini tuzish; Xorazm respublikasining konstitutsiyasini qabul qilish va boshqa masalalar ko'rib chiqildi. Xorazm jadidlari oldida, mamlakatda qanday davlat boshqaruv tizimini shakllantirish eng dolzarb masala bo'lib turardi. Demokratik boshqaruvning tayyor andoza-si yo'q edi. RSFSR vakillari Rossiyadagi kabi sovet Respublikasi shaklida davlat tuzilmasi tuzishni talab qildilar. Ammo, Xorazm sharoitida bunday yo'ldan borishni hech qanday iloji yo'q edi. Shuning uchun davlat boshqaruvining ayrim shakllarini, masalan sovetlarni

¹ Ўша жойда.

² Ўша жойда. – Б. 215.

³ История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик... – С. 116.

⁴ Юсупов П.. Ёш хивалиklar тарихи... – Б. 215.

Rossiyadan olgan holda «oʻrta yoʻl birlan mamlakatning ahvoli ruhiyasiga muvofiq qilib qonun asosini tartib»¹ qilib tuzishga Qurultoy qaror qildi. Qurultoy Xiva xonligini tugatilganligini va Xorazm Xalq Sovet Respublikasini tashkil qilinganligini rasmiy eʼlon qildi².

Shunday qilib, besh asrdan ortiq vaqt davomida mavjud boʻlib kelgan mustaqil Xiva xonligi rasmiy ravishda tugatilib, Xorazm respublikasi tashkil qilindi.

Xorazm respublikasining umumiy maydoni sal kam 54000 km² boʻlib, aholisi 900 ming kishini tashkil qilgan. XXSRning maʼmuriy-hududiy tuzilishi 4 ta muxtor viloyatdan tashkil topgan. Bular:

1. Turkman viloyati – markazi Tashxovuz;
2. Qirgʻiz-qaraqalpoq viloyati – Xoʻjayli;
3. Urganch viloyati – Yangi Urganch;
4. Xiva viloyati – Xiva.

XXSR markazi Xiva shahri boʻlib, markaziy boshqaruv apparati shu yerda joylashgan³.

Shuningdek, bu viloyatlar tumanlarga boʻlingan boʻlib, jami 28 tani tashkil qilgan.

- | | |
|---------------------|---------------------|
| 1. Dargʻon-Ota | 15. Anbar-Manaq |
| 2. Pitnyak | 16. Gurlan |
| 3. Xazorasp | 17. Tashhovuz |
| 4. Beshariq | 18. Qilich Niyozboy |
| 5. Xiva | 19. Koʻkchanik |
| 6. Oq-darbant | 20. Xitoy |
| 7. Xanqa | 21. Ilyopi |
| 8. Urganch | 22. Mangʻit |
| 9. Qiyot-Qoʻngʻirot | 23. Qipchoq |
| 10. Qiyot | 24. Porsun |
| 11. Koʻsh-quprik | 25. Xoʻjayli |
| 12. Gʻazovot | 26. Koʻhna-Urganch |
| 13. Shox-Abad | 27. Shumanay |

¹ Ўша жойда... – Б. 216.

² Туркестан в начале XX века... – С. 306.

³ Народное хозяйство Средней Азии. 1924. № 4. – С. 56.

XXSR milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan: o'zbeklar – 61 %, turkmanlar – 26.8 %, qoraqalpoqlar – 3.8 %, qozoqlar – 3.4 % qolganlari ruslar, tojiklar, tatarlar va boshqalarni tashkil qilgan.

Shunday qilib, Xorazmdagi demokratik kayfiyatdagi kuchlar ya'ni «Yosh xivaliklar» rahbarligida xalq demokratik davlat tashkil qildilar. Yangi tashkil qilingan davlat XXSRning o'ziga xos tomoni shunda ediki, davlat qurilmasida Xorazmdagi mavjud mahalliy, milliy va diniy xususiyatlar shart-sharoitlar hisobga olingan edi. Xorazmda o'zbeklardan keyin ikkinchi etnik guruh hisoblangan turkmanlarning vakillari ham davlat boshqaruv ishlariga faol jalb qilindilar. Shuningdek, kam sonli millatlarning manfaatlari ham hisobga olinib, XMIK qoshida qozoq-qirg'iz, qoraqalpoq bo'limlari faoliyat yurgiza boshladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XXSRning davlat qurilishida RSFSRning davlat qurilishi tizimi asosiy andoza qilib olindi. Chunki, Xorazm hukumati rahbarlari Rossiyadagi bolshevistik tuzum ezilgan, mazlum xalqlarning manfaatlarini ko'zlaydigan eng demokratik davlat shakli deb ishongan edilar. XXSRning tashkil qilinishi Xiva xonligiga nisbatan ijobiy tarixiy voqea deb qarashga to'la asos bor. Xorazm jadidlari xalqparvar siyosat olib borish yo'li bilan mamlakatning bundan keyingi taraqqiyotini eng avvalo xalq manfaatlariga mos ravishda olib borish dasturini ishlab chiqdilar. Ular milliy taraqqiyot yo'lini tanlab oldilar.

Ammo, bundan keyingi voqealarning rivoji Sovet Rossiyasining asosiy maqsadi Xorazmda sovet tuzumini o'rnatish va sovetlashtirish orqali bu mustaqil davlatni yo'q qilish, asta sekinlik bilan o'z tarkibiga qo'shib olib, sovet mustamlakasiga aylantirish ekanligini ko'rsatdi.

2 §. XXSR tashqi aloqalarining yo'lga qo'yilishi

Xivada xonlik tuzumining ag'darilishi, despotik monarxiya tuzumining tugatilishidan keyin mamlakat qanday yo'ldan taraqqiy qiladi degan masala asosiy muammoga aylandi. Shuni aytib o'tish joizki, sovet hokimiyati Xorazmning juda qiyin iqtisodiy ahvolidan,

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 59-иш, в. 18.

noqulay geografik joylashuvi (XXSR amalda RSFSR territoriyasi bilan o'rab olingan bo'lib faqat Buxoro XSRsi bilan chegaradosh edi. Vaholanki, BXSRSi ham sovet Rossiyasining «izmida»gi davlat edi)dan foydalanib, o'ziga ma'qul taraqqiyot yo'lini, davlat boshqaruv tizimini zo'rlik bilan tiqishtira boshladi. Bolsheviklar xonliklarni zo'ravonlik bilan bosib olib, ular o'rnida tom ma'nodagi milliy demokratik davlatni tashkil qilishni ko'zlamagan edilar. Ular avval boshdanoq bu hududlarda «Markaz»ga mutlaq bo'ysunadigan, bolsheviklar andozasidagi «mustaqil» davlatlarni yuzaga keltirib, so'ngra ularni o'stamonlik bilan sovet davlati tarkibiga «singdirib» yuborishni maqsad qilib qo'ygandi¹. Sovet Rossiyasi, bolsheviklar partiyasi Xorazmda keyingi taraqqiyot qanday yo'ldan borishi va qanday boshqaruv tizimi shakllantirish to'g'risida o'ziga xos strategiya va taktikasini ishlab chiqqan edilar. Rossiya markazida o'rnatilgan bolshevistik hokimiyatni «proletariat diktaturasi» deb e'lon qilib, ularning nazarida iqtisodiy jihatdan qoloq, ishchilar sinfi shakllanmagan sharq uchun «inqilobiy-demokratik diktatura»ni o'rnatish zarur degan muvofiq g'oyani ishlab chiqdilar. Bunga Rossiya bolsheviklari sharq xalqlari uchun taraqqiyotning «nokapitalistik», ya'ni «feodal jamiyatdan sotsializmga, kapitalizmni chetlab o'tish» yo'lini ishlab chiqqan edilar. Bunday yo'lni bolshevik dohiylari birinchi bo'lib Xorazmda tajribadan o'tkazdilar. Xorazmni sovetlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xorazmda respublikaning e'lon qilinishi arafasida va bundan keyingi bosqichda ham sovet Rossiyasi Turkiston, jumladan, Xorazm xalqining taqdirini belgilab beruvchi siyosatni yurgizdilar. Turli yo'llar bilan davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining barcha sohalariga ochiqdan-ochiq aralasha boshladilar. Turkistonda «Bunday siyosatni bevosita ijrochisi RSFSR xalq komissarlar soveti va Butun Rossiya Markaziy ijroiya komitetining Turkiston ishlari bo'yicha Favqulodda komissiyasi, ya'ni Turkkomissiya bo'ldi². Rossiya Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) MKning 10 oktabr 1919 yil Turkkomissiyaga bergan maxsus mandati O'rta Osiyoda RKP(b)ning siyosatini amalga oshirish vositasi vazifa-

¹ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Ўзбекистоннинг янги тарихи. II-жилд. – Т., 2000. – Б. 213.

² Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... – Б. 213.

sini bajardi. Bunda mahalliy yosh kommunistlarni qoʻllab-quvvatlash bahonasida ularga har tomonlama yordam berildi, mahalliy kommunistlar va harbiy kuch yordamida Turkiston va Xorazmda oʻz siyosatini amalga oshira boshladilar. Aynan tashkiliy jihatdan juda zaif hisoblangan Xiva kommunistlari uchun qanday ishlash va sotsializm qurish boʻyicha direktivalar (koʻrsatmalar) ishlab chiqdilar. Bu bilan Xivadagi tarixiy voqealarni oʻzlari ishlab chiqqan yangi dastur boʻyicha rivojlantirishga harakat qildilar¹. 1920 yil 10 fevralda Toshkentdagi Turkkomissiyasining maxsus yigʻilishida «Xorazmdagi voqealar va Xiva inqilobining istiqboli masalasi koʻrib chiqildi». Shu yigʻilishda Xivaga goʻyo «yordam» berish maqsadida favqulodda komissiya joʻnatishga qaror qilindi. Bu komissiya va undan keyin, Xivaga ketma-ket joʻnatilgan RSFSRning Muxtor vakillari Rossiya bolsheviklarining Xivadagi hokimiyatini mustahkamlashda jonbozlik qildilar. Shuningdek, Xorazm davlati va xalqning taqdirini haqiqatda hal qiluvchilari vazifasini bajarishga kirishdilar².

Ammo «Yosh xivaliklar» Xorazmda agʻdarib tashlangan xonlik tuzumi oʻrniga demokratik respublika qurish uchun intildilar. Ular RKP(b)ning tarkibida «Yosh xivaliklar» partiyasini oʻz-oʻzini tarqatgan deb eʼlon qilsalarda, kommunistik tashkilotlarga aʼzo boʻlib, yoki mustaqil ravishda mamlakatning siyosiy va davlat ishlariga rahbarlikni davom yettirdilar. Xorazm jadidlari Xorazm respublikasining birinchi hukumatini tashkil qildilar. Bu hukumatga kirgan «Yosh xivaliklar»ning koʻpchiligi oʻz qarashlari va gʻoyalariga koʻra liberal demokratlar boʻlib, mamlakatning ming yillar davomida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzidan kelib chiqib mamlakatni milliy-demokratik taraqqiyot yoʻlidan olib borishga intildilar. Shu yoʻl bilan yosh respublikaning xalq demokratik tuzumi va mustaqilligini mustahkamlashga harakat qildilar.

Shunday qilib, Xiva xonligida monarxiya tuzumini agʻdarishda itifoqchi boʻlgan Rossiya bolsheviklari va Xorazm jadidlari oʻrtasida mamlakatning keyingi taraqqiyoti yoʻli masalasida jiddiy kelishmovchiliklar boshlandi. Ammo Rossiya bolsheviklari 1920 yilning boshla-

¹ Ўша жойда.

² Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида... – Б. 213.

rida vujudga kelgan, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, xalq orasida katta ta'sirga ega bo'lgan Xorazm jadidlari, ya'ni «Yosh xivaliklar» partiyasi vakillari bilan hisoblashishga majbur edilar. Shuning uchun ham Xorazm mehnatkashlarining I-Qurultoyini chaqirish va o'tkazish tashabbusi asosan «Yosh xivaliklar»dan chiqqan edi. Xorazmda xonlik tuzumi ag'darilganligini qonunlashtirish va xalq irodasini amalga oshirish maqsadida chaqirilgan xalq vakillarining I-Butun Xorazm Qurultoyi 1920 yil 27-30 aprel kunlari Xiva shahrida bo'lib o'tdi. Unda Xorazm respublikasining qonuniyligini tasdiqlash, yangi davlat va boshqaruv organlarini tuzish asosiy masala edi. Shu bilan birga qurultoyda mamlakatni keyingi taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi asosiy qonun – birinchi Xorazm konstitutsiyasi qabul qilindi. Albatta bu voqea Xorazm xalqi tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki bu hujjat Xorazm Xalq Sovet Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Konstitutsiyaga muvofiq «Xorazm Xalq Sovet Respublikasida oliy hokimiyat Xorazm Qurultoyiga tegishli»¹ deb e'lon qildi. Qurultoyga har 10 ming aholidan bir vakil (deputat), jamoat tashkilotlari, tuman qurultoylari (kasaba qo'mitasi, «Qushchi» ittifoqi va boshqalar) alohida vakillar yubordilar. Qurultoyda vakillar soni 200 kishidan iborat bo'ldi. Butun Xorazm Qurultoyi (ya'ni Xorazm parlamenti – *S.Sh.*) yilda bir marta Xorazm Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan chaqiriladigan bo'ldi (zarur hollarda favqulodda Qurultoy chaqirilishi mumkin).

Xorazmda Oliy Hokimiyat organi sifatida Qurultoylar oralig'ida kundalik hayotga rahbarlik qilib turish uchun 35 kishidan ortiq bo'lmagan tarkibda Markaziy Ijroiya Komiteti tashkil qilindi².

Konstitutsiyaga muvofiq, XMIK Qurultoy oldida javobgar va unga hisobot beradi. Konstitutsiyaning III-bo'limi «Xorazm MIK haqida» deb nomlanadi. Unga muvofiq, XMIK – XXSRning oliy qonun chiqaruvchi, farmoyish beruvchi va nazorat qiluvchi organidir»³ deb belgilandi. XMIK respublikadagi barcha hokimiyat organlari faoliya-

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, в. 17.

² ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, в. 18.

³ Ўша жойда. в. 19-20.

tiga umumiy rahbarlik qiladi, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat organlari ishlarini muvofiqlashtirib turadi. Xorazm konstitutsiyasi normalarini, qurultoy va markaziy hokimiyat organlarini qarorlarini hayotga tadbiiq qilinishini nazorat qilib turadi. XMIK yig'ilishlari butun tarkibda har 3 oyda bir marta chiqariladi. Shu oraliqda XMIKning doimiy ishlovchi organi, 7 kishilik hay'at hisoblanadi. Hay'at raisi, bir vaqtning o'zida XMIKning raisi vazifasini bajargan.

Konstitutsiyaning VI-bo'limi, 23-moddasida Qurultoy va XMIKining huquq va vazifalari belgilab berildi. 23-moddaning 13-bandida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashqi siyosatini belgilash XMIKining vakolati ekanligi qayd qilinadi¹. Unda «chet davlatlar bilan aloqalar o'rnatish, urush e'lon qilish, sulh tuzish» to'g'risida gap boradi. 24-moddaga muvofiq, tashqi siyosat yo'nalishlarini belgilash Butun Xorazm Qurultoyining ustun huquqi ekanligi qayd qilib o'tilgan².

Shunday qilib, Xorazm respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mustaqil davlat sifatida o'z tashqi siyosatini o'zi belgilashi qonuniy yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi.

Konstitutsiyaning IV bo'limi 15-moddasida Xorazm respublikasi ijroiya hokimiyatini amalga oshirish uchun qanday nozirliklar tashkil qilingani to'g'risida qo'yidagicha ko'rsatib o'tilgan:

1. Ichki ishlar;
2. Tashqi ishlar;
3. Maorif
4. Harbiy;
5. Adliya-huquqiy;
6. Ishchi-dehqon inspeksiya³.

Bundan ko'rinadiki tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida alohida nozirlik, ya'ni tashqi ishlar nozirligi tashkil qilingan. Bu nozirlikka XXSRsining chet mamlakatlar bilan diplomatik, savdo va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, xalqaro maydonda Xorazm respublikasini manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklandi. XXSRning tashqi ishlar nozirligi vakolatlari 1921 yil 21 iyul kuni Xorazm Markaziy Ijroiya

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, в. 21-22.

² Ўша жойда. в. 18.

³ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, в. 17.

Komitetining yig'ilishda tasdiqlangan «Nizom»da o'z aksini topgan¹. Mazkur xujjatda XXSR tashqi ishlar nozirligining vazifalari quyidagilar qilib belgilandi:

- XXSR va do'st mamlakatlar o'rtasida doimiy har tomonlama aloqalarni o'rnatish;

- qo'shni va boshqa davlatlarga XXSRning vakolatli va doimiy muxtor vakillarini yuborish. Ularning hukumatlari bilan siyosiy-iqtisodiy va harbiy munosabatlar sohasida muzokaralar olib borish, shartnomalar tuzish;

- bunday vakolatli vakillarning ishlashlari uchun ko'rsatmalar ishlab chiqish va amalga oshirilishini nazorat qilish;

- chet davlatlarning muxtor vakillarini qabul qilish va joylashtirishni tashkil qilish;

- chet davlatlar bilan chegara masalalarini hal qilish uchun maxsus komissiyalar tashkil qilish².

XXSRning tashqi aloqalarini yo'lga qo'yish uchun tashkiliy huquqiy, konstitusion asoslarning yaratilishi amaliy harakatlar uchun yo'l ochib berdi. Oldingi paragraflarda aytib o'tilganidek, Xiva xonligi va XXSR tarixiy, iqtisodiy va geografik shart-sharoitlarga ko'ra Rossiya imperiyasi qo'rshovida qolib ketgan edi. Bu esa Rossiyaga Xorazmga nisbatan o'z manfaatlariga mos keng kamrovli siyosat olib borish imkonini berdi.

Ammo Xorazm respublikasining millatparvar rahbarlari mustaqillikning dastlabki yillarida sovet Rossiyasiga nisbatan yaxshi umid bilan qaragan edilar. Tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, jahon siyosatiga chiqish bevosita RSFSR bilan tuzilajak siyosiy iqtisodiy shartnomalarga bog'liq edi. XXSR Xalq Nozirlar Kengashi 1920 yil iyul oyida bo'lgan yig'ilishida RSFSR bilan keng qamrovli shartnomalarni imzolash uchun Moskvaga vakolatli delegatsiya yuborish masalasini ko'rib chiqdi. Delegatsiya tarkibiga Xivada xonlik tuzumi ag'darilgandan keyin vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, turli millat va

¹ Сарсембаев М.А. Международно-правовые отношения государств Центральной Азии. – Алма-Ата, 1995. С. 156.

² Сарсембаев М.А. Международно-правовые отношения... – С. 156-157.

siyosiy guruh vakillari kiritildi. Uzoq muzokaralardan keyin XXSR hukumati tomonidan RSFSR bilan muzokaralar olib borish uchun quyidagi tarkibda delegatsiya tashkil qilindi:

1. Boboovun Salimov – delegatsiya rahbari;
2. Mulla O‘roz Xoja Ahmad – a‘zo;
3. Mulla Nurmuhammad Boboyor – a‘zo;
4. Jumaniyoz Ollaqulov – a‘zo;
5. Muhammad Rahim – a‘zo;
6. Muhammad Yoqubxonov – a‘zo;
7. Mulla Ibrohimov – a‘zo¹ sifatida kirgan edilar.

Delegatsiya 1920 yil 17 iyul kuni yo‘lga chiqib, Chorjuy–Toshkent yo‘nalishi bilan, temir yo‘l orqali 1920 yil 28 iyul kuni Moskvaga yetib keldi².

Delegatsiya sovet rahbariyati bilan olib borilgan uzoq davom etgan va nihoyatda qiyin kechgan muzokaralardan so‘ng ikki davlatlar o‘rtasida imzolanadigan siyosiy, iqtisodiy va harbiy shartnomalarning matnlarini tayyorladi. Shartnoma loyihalarida Xorazm respublikasi vakillari mumkin qadar Xorazm manfaatlarini himoya qiladigan moddalarini kiritishga harakat qilishdi. Ammo RSFSRning XXSRidagi vakili Sh. Izmaylov, RSFSR tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari L.M. Karaxan va boshqa sovet rahbarlari ikki davlat o‘rtasida tuzilajak shartnoma loyihalarini Rossiya manfaatlariga mos kelmaydi degan bahonada deyarli 50 kundan ortiqroq davom etgan muzokaralar natijalarini yo‘qqa chiqarish uchun ig‘vogarona harakatlarini boshladilar. Hatto, oldingi kelishilgan matnlarni o‘zboshimchalik bilan, qo‘pol ravishda o‘zgartirib, XXSRining milliy manfaatlariga mos kelmaydigan, mustaqil davlatning ichki ishlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashadigan moddalarini kiritib, shartnoma va kelishuvlar moddalarini tubdan o‘zgartirishga harakat qildilar.

RSFSR tashqi ishlar xalq komissari o‘rinbosari Lev Mixaylovich Karaxan Boboovun Salimov va delegatsiyaning boshqa a‘zolarini yo-

¹ Юсупов П.. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 221.

² Ўша жойда. – Б. 238-241.

niga chaqirtirib, tuzilajak ikki tomonlama shartnomalarga quyidagi o'zgartirishlar kiritilganligini ma'lum qildi. Bular:

1. Xorazmdagi butun pochta va telegraflar Rossiya hukumati ixtiyorida qoldirish;

2. Xorazmda hozirgi kunda foydalanmay yotgan bo'sh yerlarni, rus millatiga mansub kishilarga tekin foydalanishiga huquqi borligini Xorazm hukumati tasdiqlamog'i kerak;

3. Amudaryo quyi oqimi va Orol dengizida baliq ovlash huquqi faqat ruslarga berish;

4. Loyihadagi 16-modda umuman olib tashlanadi. Buni o'rniga ya'ni XXSRi mustaqil siyosiy tashkilotlar tuzish to'g'risidagi huquqlari o'rniga, Rossiya manfaatlariga mos keladigan matn kiritildi;

5. Irrigatsiya tarmoqlarini tozalash va yangi kanallarni qazimoq faqat ruslarning rahbarligida, ular xohlaganicha amalga oshirilishi;

6. Xorazm hududida qurilajak temir yo'lining ikki tarafdan 1 chaqirim (*taxminan 1 km uzunlik – S.Sh.*) kenglikda Rossiyaga yer berish;

7. Savdo shartnomalari uchun pullarni faqat rus banklaridan olish;

8. Xorazmga faqat katta foiz evaziga qarz berish, shuningdek, Xorazm hududidagi chor Rossiyasiga tegishli bo'lgan, Xorazm xalqining mehnati evaziga yaratilgan zavodlarni (loyihada ularga hech qanday shartlarsiz XXSRga topshirish ko'zda tutilgan edi) sovet Rossiyasiga qaytarib olish borasida maxsus komissiya yuborish kabi ilovalar kiritilgan edi¹.

Shartnomalarga kiritilgan bu o'zgartirishlar bolsheviklarning asl basharasini ko'rsatgan edi. Vaholanki, «agar bu so'zlar shartnomaga kiritilsa, Xorazm haqida general Kaufman va Galkinlar yasagan shartnomalardan ming martaba yomonroq bo'lgudek turur»², – deganida delegatsiya rahbari Boboovun Salimov ming marta haq edi. Xorazm delegatsiyasi og'ir ahvolda qoldi. Og'izda, kichik xalqlar va millatlarning erkinligi, mustaqilligini ovoza qolgan bolsheviklar, Xorazm

¹ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 289-290.

² Ўша жойда.

xalqiga Chor Rossiyasi zo'rlab tiqishtirgan shartnomadan ham¹ og'irroq, to'la mustamlakaga aylantirishga xizmat qiladigan hujjatga xiyla bilan erishmoqchi bo'lgan edi. O'z xalqining sodiq o'g'loni bo'lgan Bobooxun Salimov bunday adolatsizlikka qarshi qat'iy kurashdi. U «Man, bu ilovalar qo'shilgan shartnomaga hargiz qo'l qo'ymasman. Chunki man Xorazmning yer suvlari ixtiyorini qo'llaridan ketub, qaytadan ularni asir va mazlum qilmoqqa aslo rozi bo'lmasman, man Koraxonning yonida majlis ochilgan vaqtda hamma kuchimni sarf etib, ilovalarning butunlay bekor bo'lmog'i uchun g'ayrat qilurman»², deb Xorazmdan borgan boshqa delegatsiya a'zolari oldida chiqish qildi. Ularni ham o'z Vatani, xalqning erki va kelajagi uchun kurashga chaqirdi. Bobooxun Salimov RSFSR tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Lev Mixaylovich Karaxan bilan bo'lgan uchrashuvda masalani juda keskin qilib qo'yib, shunday dedi: «... agar mazkur ilovalar bizning shartnomamizga qo'shib, hamma yerlarga e'lon etilub taratilsa, Rusiya sho'rolar hukumati Sharq mamlakatlari xalqlari oldida hech obruy topa bilmas, deb o'ylarman. Chunki ushbu ilovalarni Sharqning bir yoshbolasi ko'rsa ham bilurkim, bu shartnomaning Nikolay³ vaqtida kichik mamlakatlar birlan yasagan shartnomalardan hech farqi yo'q turur»⁴. Bobooxun Salimov o'zini yuksak bilimga, aql-zakovatga ega bo'lgan huquqshunos, diplomat, o'z xalqining haqiqiy vatanparvari ekanligini ko'rsatdi. «Har bir ilovani turlik dalillar birlan rad qildim» - deb yozadi Bobooxun Salimov o'z esdaliklarida⁵.

Ammo, sovet rahbarlarida ilovalarni o'zgartirish, qo'shimchalarni qoldirish fikri ustunlik qilmoqda edi. Shunda Bobooxun Salimov RSFSR tashqi ishlar xalq komissari, bolsheviklar dohiysi V.I. Leninga ham qat'iy talab bilan murojaat qiladi. U RSFSR tashqi xalq komissariga borib: «... agar shartnomamizning bitgudek ihtimoli

¹ 1873 йил 12 августда чор Россияси Хивани забт этгач, хонликни ярим мустамлакага айлантирган шартнома назарда тутилмоқда.

² Юсупов П.. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 220.

³ Николай - Россиянинг сўнгги императори Николай II (1894–1917) тўғрисида гап бормоқда. У Хива ва Бухоро халқларини ҳаттиҳ асоратга, ҳарам ҳолатга айлантириш сиёсатининг тарафдори эди.

⁴ Юсупов П.. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 292.

⁵ Ўша жойда.

bo'lmasa, bizlarga yurtimizga qaytmoqqa ruhsat bersunlarkim, bizlarga shartnoma darkor emas»¹ deb qat'iy norozilik bildiradi.

Shundan keyin ularni shaxsan RSFSR tashqi ishlar xalq komissari G.V. Chicherin qabul qiladi. U Rossiya hukumati XXSR bilan ilovalarsiz, dastlabki kelishgan matnda shartnomalarni imzolashga rozi ekanligini bildiradi. Bu yosh Xorazm hukumati, xalqi va diplomatiyasining juda katta erishgan g'alabasi edi. Garchi bu shartnomalar XXSRsini siyosiy-iqtisodiy mustaqilligini bir muncha chegaralab qo'ysada, vatanparvar Xiva jadidlaridan tashkil topgan Xorazm hukumatining xalqaro maydondagi, tashqi siyosat sohasidagi birinchi g'alabasi edi. 1920 yil 13 sentabr kuni RSFSR va XXSR o'rtasida **birinchidan**, «do'stlik» to'g'risida keng tomonlama shartnoma, **ikkinchidan**, «iqtisodiy bitim», **uchinchidan**, «harbiy» shartnomalar imzolandi. Shartnomalarni RSFSR hukumati tomonidan RSFSR tashqi ishlar xalq komissari G.V. Chicherin va uning o'rinbosari L.M. Karaxan, XXSR tomonidan – Boboxxun Salimov, Mulla Oraz Xo'ja Muxamedov, Mulla Nurmuhammad Boboyevlar imzoladilar². Bu shartnomalarni tayyorlash va imzolash uchun delegatsiya 62 kun davomida Moskva shahrida qattiq ish olib bordi.

XXSR RSFSR bilan imzolagan bu shartnomalarni, yosh respublikaning o'sha yillari amalga oshirgan tashqi-iqtisodiy aloqalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. Tuzilgan shartnomalardan ayniqsa «Do'stlik» shartnomasi Xorazm xalqi uchun manfaatli edi. Uning birinchi moddasida: «RSFSR – XXSR mustaqilligini va erkinligini to'la tan oladi, oldingi Rossiya hukumatlarini Xorazm respublikasiga bo'lgan barcha huquqlaridan voz kechadi; ikkilanchi moddada Rusiya sho'rolar hukumati, birinchi Rusiya hukumati, ularning tashkilotlari birlan Xiva xonligi hukumati o'rtasida tuzilgan har qanday shartnoma, sulh va bitimlarni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblaydi.

¹ Юсупов П.. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 294.

² Юсупов П.. Ёш хиваликлар тарихи... Б. 297; ЎЗР МДА. 73-жамғарма, 1-рўйхат, 4-иш, в. 6-8.

Uchinchi moddada, Xiva xonligida mavjud bo'lgan, chor Rossiyasiga tegishli barcha mol-mulk, kapital XXSR ixtiyoriga topshiriladi»¹.

Shartnomaning 8-moddasida RSFSR va XXSR o'rtasida davlat hududlari chegaralari to'g'risida gap borib, shartnoma imzolanadigan vaqtda qanday bo'lsa shunday qoldirishga kelishilgan. Xorazm uchun foydali bo'lgan 9-moddada shunday deyiladi: «1872 yildan to hozirgicha Rossiyaga qo'shilgan Xorazm yerlari, agar mazkur hududda yashayotgan xalqlar xoxish bildirsalar avvalgidek Xorazmga qaytarilishi mumkin»². Shartnomada, shuningdek, fuqarolik, savdo-sotiq, harbiy hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalarni yo'lga qo'yish bilan bog'liq moddalar bor edi. Garchi, Xorazm vatanparvarlarining qat'iy talabi bilan, dastlabki tuzilgan shartnoma Xorazm xalqiga foydalidek ko'rinsada, keyinchalik bu moddalar umuman bajarilmay qo'yildi. «Yosh xivaliklar»dan tashkil topgan Xorazm respublikasining birinchi hukumati, RSFSRning XXSRdagi muxtor vakillari va qizil armiya askarlari ishtirokida 1921 yil mart oyida ag'darib tashlandi. 1922 yilda esa shartnomalar boshqatdan imzolandi. Keyingi shartnomalarda XXSR deyarli RSFSR yoki SSSRning «xomashyo» mustamlakasiga aylantirildi. Masalan 1920 yil 13 sentyabrda tuzilgan «Iqtisodiy kelishuv» bilan, 1922 yil 29 iyunida tuzilgan shartnomalarni qiyoslasak, bu borada juda katta farqni ko'ramiz.

XXSR va RSFSR o'rtasidagi 1920 yildagi tuzilgan shartnomalar bilan 1922 yilda tuzilgan shartnomalarni tahlil qilar ekanmiz, sovet Rossiyasi har qanday yo'llar bilan kichik xalqlarning, sharq mamlakatlarning mustaqil taraqqiyot yo'liga to'siq bo'lishga intilganligini, bolsheviklarning millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash, erkinlikni, ozodlikni qo'llab-quvvatlovchi shiorlari va va'dalari amalda, chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatining davomi ekanligini ko'rishimiz mumkin. XXSRga asos solgan, bolsheviklarning balandparvoz gaplariga ishongan, mustabid xonlik tuzumini ag'darib, o'ziga xos

¹ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 260-261; Иноятов Х.Ш. Народы Средней Азии в борьбе против иностранных интервентов и внутренней контрреволюции. – М., 1984. – С. 340.

² Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 26.

xalq-demokratik milliy davlatini qurishga astoydil kirishgan Xorazm vatanparvarlari sovetlarning bu siyosatini mohiyatini to'la tushunib yetishmadi, oxir-oqibatda sovet tuzumining qurboniga aylandilar. Xorazm hukumatining mustaqil tashqi siyosat yurgizishga qaratilgan har qanday harakati RSFSR rahbariyati tomonidan turli yo'llar bilan yo'qqa chiqarildi.

Shuni ta'kidlamoq kerakki, Xivada xonlik tuzumining ag'darilishi butun Sharq, Osiyo mamlakatlarida katta qiziqish uyg'otdi. Chunki Xorazm Sharqda mustabid rejimini ag'darib tashlagan, birinchi bo'lib milliy-demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat edi.

Xorazm vakillari Rossiya bilan har tomonlama shartnomalarni imzolash uchun Moskvaga borganlarida, ularni tabriklab Turkiya vakillari Izmirlik Nozim Sodiqov, Ota Tuli, doktor Puvatbeklar kelishgan. Ular XXSR vakillari bilan Xorazmda milliy armiya-qo'shin tuzishga yordam berishga kelishib olishadi¹. Shuningdek, Tatariston respublikasi raisi S. Saidaliev, Turkiya Respublikasi harbiy vaziri mashhur Anvar Poshsho, Eron elchisi Mirzo Gushanglar, Afg'oniston vakili Muhammad Valixonlar bilan uchrashib o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida kelishib olindi². 1920 yil 25 avgust kuni Xorazm vakillari Moskvada Afg'oniston vakili Muhammad Valixon bilan uchrashib, o'zaro elchilar almashishga kelishdilar³.

Keyinchalik, 1921 yil 24 noyabrda XXSRining Afg'onistondagi maxsus vakili qilib Boboovun Salimov tayinlandi⁴.

Umuman Xorazm vakillari xalqaro maydonda faqat Rossiya bilan tashqi aloqalarni olib borishni maqsad qilib qo'ymagan edilar. Bu borada boshqa manfaatdor davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar olib borildi. Natijada XXSR Xorazm bilan doimiy munosabatlarni o'rnatishni istagan davlatlarda vakolatli diplomatik, savdo organlarini tashkil qilishga kirishdilar. Mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni keng ahamiyatiga qarab, quyidagi tashqi Vakolatxonalar ochildi.

¹ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... – Б. 252.

² Ўша жойда. – Б. 283.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т., 2001. – Б. 187.

1. RSFSR, Eron, Turkiya, Afgʻoniston, Ozarbayjonda Muxtor diplomatik vakolatxonalar (elchilar darajasida);

2. Buxoro RSFSR, Afgʻoniston Ozarayjon, Turkiston ASSRda konsul xonalar;

3. Buxoro, RSFSR, Finlyandiyada savdo vakolatxonolari ish olib bordi¹. Shuningdek mazkur mamlakatlar XXSRda oʻz elchixona va savdo Vakolatxonalariga ega edilar.

XXSR oʻzining chet el vakolatxonalariga obroʻ-eʼtiborli, bilimli mamlakat manfaatlarini himoya qila oladigan kishilarni yuborishga harakat qildi. Ammo RSFSR vakillari XXSR olib borayotgan mustaqil tashqi siyostiga toʻsiq boʻlish uchun turli tazyiqlar oʻtkaza boshladilar.

Masalan, 1922 yilda RSFSRning talabi bilan XXSR maxsus vakili Afgʻonistondan chaqirib olindi. Chunki sovet Rossiyasi rahbarlari bu vaqtda Xorazmga alohida mustaqil davlat sifatida emas, balki oʻzini boʻlajak bir viloyati sifatida qaray boshlagan edilar. Shu bilan birgalikda, bundan sal oldinroq, yaʼni 1922 yil fevral boshida mazkur davlatlar ustidan siyosiy va mafkuraviy hukmronlikni qoʻlga kiritish maqsadida RKP(b) MK siyosiy byurosi XKP va BKPlarni RKP(b) tarkibiga qabul qilish toʻgʻrisida qaror qabul qildi². XXSR amalda 1922 yilga kelib RSFSR manfaatlariga boʻysundirilgan, yarim qaram davlat ahvoliga tushib qolgan edi.

RSFSR nafaqat mamlakatning tashqi aloqalariga balki ichki ishlariga qoʻpol ravishda aralashib, mamlakatni ochiqdan-ochiq bolshevik-chasiga sovetlashtirish siyosatini yurgizdi. Rossiya shartnoma va bitimlarda koʻrsatilgan asosiy moddalarni, xususan, Xorazm respublikasining mustaqilligi va daxlsizligi huquqini tan olmay, doimiy ravishda yosh respublikaning ichki ishlariga aralashib turdi. Xorazmda katta miqdordagi qizil askarlarni saqlab, bu harbiy kuchlar orqali mamlakatni oʻzi boshqarishga intildi³. Hatto RSFSR va keyinchalik SSSRning Xivadagi favqulodda muxtor vakillari suveren davlatning

¹ Сарсембаев М.А. Международно-правовые отношения... – С. 161.

² Ўша жойда. – С. 15.

³ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари.... – Б. 187.

ichki ishlariga qo‘pol ravishda aralashdilar. Xorazmlik istiqlool uchun kurashgan, mustaqil ichki va tashqi siyosatini olib borishga harakat qilgan hukumatni, vatanparvarlarni turli ig‘vogarona harakatlari bilan, Xorazmdagi qizil armiya qismlariga suyanib ag‘darib tashlash, quvg‘in qilish siyosatini olib bordilar. 1921 yil 6 mart kuni Polvonniyoz Xoji Yusupov boshchiligida hukumat ag‘darildi, ko‘pgina nozir-lar, jumladan, hukumat raisi Polvonniyoz Xoji Yusupov qamoqqa olindi, ayrimlari Junaidxon huzuriga qochib ketishga majbur bo‘ldilar. Oradan ko‘p o‘tmay, 1921 yil sentyabrida XXSR MIK raisi Muhammadrayim Olloberganov o‘z lavozimidan olib tashlandi, hatto o‘limga hukm qilindi¹. O‘rniga saylangan A. Muhammadrahimov hukumatiga ham oldingi hukumat ishini davom ettirib Xorazm xalqi mustaqilligini himoya qilish yo‘lidan bordi. Muhammadrahimov tashabbusi hatto bilan 1921 yil 6 noyabr kuni Junaidxon bilan «Birlashishning kelishuv shartnomasi» imzolandi². Bu shartnoma mamlakatda uzoq kutilgan barqarorlikni boshlanishiga olib keldi.

Ammo, bunday hatti harakatlar sovet Rossiyasining Xivadagi va-killariga umuman yoqmasdi. Muhammadrahimov, Xalq vazirlar ken-gashi raisi M. Abniyamov, nozirlarning ko‘pchiligi «Xorazm xalqin-ing dushmani» sifatida qamoqqa olindilar³.

Moskva, Xorazmdagi vaziyatni to‘la nazorat qilish va o‘ziga ma’qul davlat tuzimini shakllantirish maqsadida 1921 yil aprel oyida BRMIK va RSFSR XKS tomonidan Turk komissiyaning D.Yu. Gopner boshchiligidagi maxsus ekspeditsiyasini yubordi⁴. Shu-ningdek, 1921 yil oktabr oyida Xorazmga RSFSR MIK va XKSning favqulodda vakili A. Ioffe yetib keldi⁵. 1921 yil dekabr oyida XKP mas’ul kotibi qilib RKP(b) MK Turkbyuro vakili M. Gazetdinov say-landi⁶. Yuqorida aytganimizdek XKP RKP(b) tarkibiga kiritilgach, avval RKP(b) Turkbyuroning, keyin O‘rta Osiyo byurolari o‘z vakil-

¹ Ўша жойда. – Б. 188.

² Туркестан в начале XX века... – С. 619.

³ Ўша жойда.

⁴ История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик...

⁵ Туркестан в начале XX века... – С. 620.

⁶ Ўша жойда.

larini to'xtovsiz ravishda Xorazmga jo'natib turdilar. Moskva va Toshkentdan kelib turgan vakillari Xorazmda o'zlarini xo'jayinlardek tutdilar. Mustaqil davlat tamoyillari bilan hech qanday hisoblashmadilar. Bolsheviklar yo'liga qarshi chiqqan har qanday siyosiy kuch va vatanparvarlar ayovsiz jazolandilar.

Umuman olganda, XXSR mavjud bo'lgan qariyb besh yil davomida bolsheviklar tomonidan Xorazm respublikasi MIK raislari va hukumat boshliqlarining har biri 10 martadan almashtirildi¹. Natijada 1922 yilda Bolsheviklar tazyiqi bilan Xorazm XSR MIK va XNK raisi hamda a'zolari lavozimiga aholining eng kambag'al qatlamlaridan vakillar saylanishga erishdilar. Ular siyosiy va iqtisodiy jihatdan savodsiz bo'lib, «Yosh xivaliklar» kabi xalq, millat manfaatlarini uchun yetarli darajada kurasha olmas edilar.

Shunday qilib, RSFSR va SSSR rahbarlari XXSRni mustaqilligini og'izda tan olib, amalda uni har tomonlama o'z manfaatlariga bo'ysundirishga intildilar. Mavjud xalqaro huquq normalarini, davlatlararo kelishuvlarni qo'pol ravishda buzib, suveren davlatni tashqi va ichki ishlariga bepisandlik bilan aralashdilar.

Quyidagi bir muhim xujjat fikrimizni naqadar to'g'ri ekanligi isbotlaydi. Ma'lumki, RSFSRni G'arb davlatlari alohida davlat sifatida tan olmagan. Ammo Rossiyaning tashqi qarzini hal qilish maqsadida G'arb davlatlari 1922 yilda Italiyaning Genuya shahrida o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyada RSFSR vakillarini ham taklif qilishgan edi. 1922 yil boshlarida bolsheviklar XXSRda navbatdagi davlat to'ntarishini amalga oshirib o'ziga ma'qul keladigan hukumatni o'rnatgan edilar. Yangi tashkil qilingan XXSR hukumati nafaqat ichki faoliyatda, balki tashqi siyosat bo'lasidagi vakolatlarni RSFSR hukumatiga topshirishga majbur qilgan. Markaziy ijroiya komiteti raisi Yangi Boymurotov, tashqi ishlar noziri Olloberganovlar Butun Rossiya ijroiya komiteti raisi M.I. Kalinin va RSFSR tashqi ishlar xalq komissari G.V. Chicheringa yozgan xatida shunday fikrlarni bildirishgan: «Xorazm xalqi Ulug' Oktyabr inqilobi tufayli ozodlikka erishdi. Shuning uchun o'zaro baynalminal do'stlik asosida qurilgan munosabatlarimizni tasdig'i sifatida Yevropa konferensiyasi-

¹ Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари.... – Б. 188.

ga qatnashish uchun ketayotgan RSFSR davlat delegatsiyasiga XXSR nomidan har qanday shartnomalarni tuzish huquqini beramiz¹». Bundan ko'rinadiki, sovet Rossiyasi XXSRning tashqi siyosati masalasida ham o'z hukmronlini o'rnatib mamlakat manfaatlarini o'ziga mos tashqi siyosat doirasida ushlab turgan.

Umuman sovet Rossiyasi keyinchalik SSSR rahbarlari tomonidan olib borilgan Sharq davlatlariga, xalqlariga nisbatan qo'llagan ulug' davlatchilik g'oyasiga asoslangan ochiqdan-ochiq diskriminasion siyosati natijasida XXSR asta sekin Rossiyaning (SSSR) siyosiy manfaatlariga bo'ysundirildi. Bunday siyosatning natijasi sifatida Moskva tomonidan amalga oshirilgan va zo'rlik bilan Turkiston xalqariga tiqishtirilgan, uzoq siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy xududiy chegaralash natijasida XXSRi mustaqil davlat sifatida tugatildi va viloyat maqomidagi xududga aylantirildi. XXSRning xududlari Rossiya (Qoraqalpog'iston 1936 yilgacha Rossiya tarkibida edi.) va Turkmaniston Respublikalari taqsimlanib berildi. O'zbekistonga o'tkazilgan xududi doirasida esa Xorazm viloyati tashkil qilindi. XXSRning mustaqil davlat sifatida tugatilishi o'z-o'zidan tashqi siyosiy munosabatlarga ham yakun yasadi.

¹ ЎзМДА 71-жамғарма, 1- рўйхат, 30-иш, в. 12.

II BOB. XXSRNING TASHQI SAVDO ALOQALARI (1920-1924 yillar)

1 §. XXSR tashqi savdo aloqalarining tashkiliy va huquqiy asoslari

XXSRning tashqi savdo aloqalarini yo'lga qo'yish juda murakkab kurashlar bilan kechdi. Sovet hokimiyatining markaz manfaatlarini ko'zlab o'tkazgan tazyiqlari respublika vakillarining Xorazm manfaatlari uchun olib borgan kurashlariga duch keldi. Bu kurashlar tashqi siyosatning mohiyati va yo'nalishiga doim o'z ta'sirini o'tkazib turdi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda o'rganilayotgan davrda XXSR tashqi siyosiy aloqalarning rivojlanishini asosan quyidagi ikki bosqichga bo'lish mumkin:

1. 1920 yil aprel oyidan 1922 yil iyun oyigacha.
2. 1922 yil iyun oyidan 1924 yil oxirigacha.

Sovet hokimiyati Xorazmdagi mavjud iqtisodiy ahvol va jug'rofiy noqulay joylashuvdan o'z manfaatlari yo'lida unumli foydalandi. XIX asr oxiri XX asr boshida Xiva xonligi, hududi, keyinchalik esa Xorazm respublikasi ham amalda Rossiyaning to'liq qurshovida qolgan edi. Bundan foydalangan sovet Rossiyasi uni faqat o'zi bilan savdo aloqalarini olib borishga majbur qilish siyosatini olib bordi. Xorazm respublikasi rahbariyatining o'sha davrdagi faoliyati va xatti-harakatiga baho berishda shu tarixiy real xolatni hisobga olish lozim.

1920 yil 13 sentyabrda RSFSR va XXSR o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni belgilab beruvchi «Do'stlik shartnomasi»ga ilova sifatida «Iqtisodiy shartnoma» ham imzolangan edi. «Iqtisodiy shartnoma»ga binoan ikki mamlakat o'rtasidagi savdo munosabatlarini amalga oshirish bo'yicha qilinishi zarur bo'lgan vazifalar kelishib olindi. Umuman, mazkur shartnomada XXSRning tashqi savdo munosabatida RSFSRga ustunlik qilish huquqlari berilgan edi. Shartnomaning 3-moddasida XXSR tashqi savdo aloqalarining qanday holatda va huquqda bo'lganligi ko'rsatib o'tiladi. Unda shunday deyiladi: «Xorazm respublikasi o'zidagi barcha xom-ashyo mahsulotlarni Ros-

siya Respublikasi ixtiyoriga topshiradi»¹. Shartnomaning 6-moddasida RSFSR XXSRning tashqi iqtisodiy, ya'ni eksport va import hajmini belgilashda bunday huquqni mustahkamlanganligini ko'ramiz. Bu yerda shunday deyiladi: «Eksport tovarlarni sotish rejasi va tartibini, shuningdek, import tovarlarni sotib olish tartibini Xorazm respublikasi RSFSRning tashqi savdo xalq komissarligi bilan birgalikda belgilaydi. Eslatma: Xorazm respublikasi RSFSRga eksport xom-ashyo resurslarini sotib olishda ustunlik huquqini beradi»².

Bundan ko'rinadiki, RSFSR XXSRning iqtisodiy mustaqilligini turli vositalar bilan cheklashga va o'z iqtisodiy manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qilgan.

Ahvol shu darajaga yetdiki, sovet Rossiyasi, XXSRning Moskvadagi elchixonasi va savdo vakolatxonasi ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralasha boshladi. Ma'sul lavozimlarga Rossiya fuqarolarini to'g'ridan-to'g'ri buyruq bilan ishga joylashtira boshladilar. Masalan, quyidagi hujjatlar fikrimizni to'la tasdiqlaydi:

«Xorazm respublikasining muxtor vakili Safaevga Bildirishnoma

Men, Vasilev, ma'lum qilamanki, RKP(b) vakili sifatida 1923 yil 27 iyul № 53 buyrug'i bilan, savdo muxtor vakilining o'rinbosari lavozimini bajarishga kirishaman»³.

Bu hujjat bolsheviklarning bevosita Sharq xalqlariga nisbatan qo'llagan, og'izda erkin, amalda esa qo'pol, siyosiy nayrangbozlikdan iborat mustamlakachilik siyosatining aniq dalilidir. Rossiya fuqarosi, Xorazm respublikasining muxtor vakiliga (ya'ni, elchisiga) uning o'rinbosari etib tayinlanganligini ma'lum qilmoqda, xolos. Tarixiy hujjatlarning ko'rsatishicha Vasilevning Xorazm respublikasining Moskvadagi savdo vakolatxonasida bir necha oylik qabihona faoliyati natijasida respublika uchun oltin miqdorida juda katta iqtisodiy zarar yetkazilgan.

Bu haqda Moskva savdo vakolatxonasining rahbari Karimbergan Safaev o'zining Xorazm hukumatiga bergan ma'lumotida atroflicha

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1- рўйхат, 4-иш, 6-7 в.

² Ўша жойда. 73-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш, 6 в.

³ Ўша жойда. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 55 в.

to'xtalgan bo'lib, unda jumladan, shunday deyiladi: «Savdo vakolatxonasining sobiq o'rinbosari o'rtoq Vasilev va uning hamtovog'i Rossiya fuqarosi Kurganov 1923 yil 29 oktyabrda 89 751 so'mlik mahsulot sotish to'g'risidagi kelishuvdan Xorazm vakolatxonasi 44 859 so'm zarar ko'rgan. Bundan tashqari shu shaxs tomonidan 1923 yil 19 sentyabrdagi tuzilgan 56 638 so'mlik bitimdan Xorazm respublikasi 44 048 so'm zarar ko'rdi. Vasilevning xohishi bilan Moskva savdo vakolatxonasining Orenburg bo'limiga ishga tayinlangan Kurganov xuddi shu vaqtda 81 189 so'mga bitim tuzish natijasida, savdo vakolatxonasiga 81 189 so'mlik zarar yetkazdi. Umuman Vasilevning faoliyati natijasida Xorazm respublikasi 170 ming so'm atrofida zarar ko'rgan»¹.

Shunday qilib, Rossiya hukumati Xorazm respublikasining Moskvadagi savdo vakolatxonasiga Vasilevday nopok shaxslarni ishga tiqishtirish natijasida Xorazm xalqiga katta miqdorda iqtisodiy va ma'naviy zarar yetkazgan.

Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, vatanparvarlik kayfiyatidagi Xorazm farzandlari mamlakatni ichki va tashqi organlarining turli lavozimlarida ishlab, Rossiya tomonidan qo'yilgan to'siq va chegaralanishlarga qaramay, xalqning moddiy farovonligi yo'lida astoydil xizmat qildilar. Bular XXSRning RSFSRdagi va keyinchalik SSSRdagi muxtor vakili Karimbergan Safaev, savdo vakili Madrahim Madiyov, savdo vakolatxonasining tijorat direktori Yusup Salimjonov va savdo aloqalari bo'limi mudiri Komiljon Hakimjonov, maxsus savdo vakili T. Rahmonov va boshqalar edi. T. Rahmonovning tashabbusi bilan 1920 yil 13 sentyabrda imzolangan RSFSR va XXSR o'rtasidagi iqtisodiy bitimni qayta ko'rib chiqish masalasi qo'yiladi. Chunki bu bitim Xorazmning chet davlatlar bilan savdo aloqalarini olib borishga yo'l qo'ymas edi. Faqat Rossiya bilangina shunday aloqalarga ruxsat berilgan bo'lib, Xorazm iqtisodiyoti Rossiya manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Buning Xorazm respublikasi uchun naqadar iqtisodiy zarar yetkazishini bilgan Xorazm vakillari yangi bitim tuzish uchun muzokaralar boshlashni talab qilishdi.

¹ ЎЗР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, в. 53.

Shu maqsadda 1922 yil iyun oyida XXSR xalq nozirlar kengashi raisi A. Xo'jaev boshchiligidagi favqulodda savdo missiyasi jo'natildi¹. Ammo savdo delegatsiyasi o'ziga berilgan topshiriqni bajara olmay, Xorazmga qaytib kelishga majbur bo'ldi.

XXSRning RSFSRdagi Muxtor vakili (elchisi) Karimbergan Sa'faev RSFSR tashqi ishlar xalq komissarining o'rinbosari L.M. Karaxanga norozilik bildirib yozgan xatida shunday deyiladi: «1922 yil iyun oyida xalq nozirlari kengashining raisi Xo'jaev boshchiligidagi Xorazm favqulodda savdo delegatsiyasiga yuklatilgan topshiriqni bajara olmay, Xorazmga qaytib kelishga majbur bo'ldi. Muzokaralar Rossiya hukumati tomonidan to'xtatib qo'yilgan. Bunday xatti-harakatni Toshkentda chaqirilayotgan O'rta Osiyo xalqlari iqtisodiy konferensiyasi bilan bog'lab ko'rsatishgan. Vaholanki, Buxoro bilan muzokaralar davom etgan. RSFSR Xorazmga taklif qilayotgan bitim shartlari umuman Xorazmning suveren davlat manfaatlariga zid edi. Shuni hisobga olib, yangi bitim Xorazm manfaatlariga mos kelgandagina imzolanadi. «XXSRning RSFSRdagi muxtor vakili. 12 iyul 1922 yil № 271»².

Bundan tashqari, 1922 yil 22 fevral kuni Xorazm respublikasining RSFSRdagi vakolatxonasida Rossiya tashqi ishlar xalq komissari vakillari va Xorazm savdo vakillari ishtirokida yig'ilishda o'zaro mol ayirboshlash masalasi ko'rib chiqildi. Yig'ilishda Xorazm savdo vakili T. Rahmanov Xorazm respublikasining barcha ortiqcha xom-ashyoni Rossiyaga topshirishi va faqat Rossiya bilan savdo aloqalarini olib borishi respublikani kamsituvchi siyosat ekanligini ta'kidlab qattiq norozilik bildirdi³.

Bunday qat'iy sa'y-harakatlar natijasida 1922 yil 29 iyun kuni RSFSR va XXSR o'rtasida Toshkent shahrida yangi «Iqtisodiy bitim» imzolandi. Shartnomani RSFSR tomonidan Butun Rossiya MIK va xalq komissarlar sovetining Turkiston ishlari bo'yicha komissiya raisi Sergey Ivanovich Gusev, RSFSR tashqi ishlar xalq komissarli-

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш, 23 в.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 3-5 в.

gining O'rta Osiyo bo'yicha Maxsus vakilining o'rinbosari Vladimir Moiseyevich Sukerman, XXSR tomonidan xalq nozirlar kengashi raisi Abdulla Abdurahmon Xo'jaevlar imzolashdi¹.

Iqtisodiy bitimning mohiyatini tushunish uchun matndagi moddalarni keltirib o'tamiz.

1-modda. RSFSR va XXSR o'rtasidagi savdo aloqalari hech qanday cheklovlersiz hukumat muassasalari, jamoat va xususiy tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

2-modda. RSFSR va XXSR o'rtasidagi bojxona chegaralari tugatiladi. Ayriboshlanayotgan mollardan hech qanday boj soliqlari, kirish-chiqish yig'imi olinmaydi.

3-modda. Ikkala respublika davlat muassasalariga, jamoat va xususiy tashkilotlarga va alohida shaxslarga savdo-sanoat, transport, kredit va boshqa korxonalarni, jamiyatlarni ochishni, shuningdek, bitim tuzayotgan davlatlar qonunlaridan kelib chiqib, mavsumiy yarmarkalar tashkil qilish huquqini beradi.

4-modda. XXSR tashqi bozorlardagi savdo operatsiyalarini mazkur bitimning 5, 6-moddasida ko'rsatilgan qoidalariga muvofiq RSFSR bilan kelishgan holda amalga oshiradi.

5-modda. Zarur mamlakatlarda RSFSR va XXSR o'rtasidagi o'zaro kelishuviga muvofiq RSFSR savdo vakolatxonalari qoshida XXSRning savdo ishlari bo'yicha doimiy vakolatxonalari ochilishi mumkin.

Tashqi ishlar xalq komissarligining vakolatxonalari yo'q mamlakatlarda, agarda XXSR iqtisodiy manfaatdor bo'lsa, RSFSR bilan kelishgan holda RSFSR muxtor vakillarining umumiy *nazorati* (ta'kid muallifniki – *Sh.S.*) ostida Xorazmning savdo vakolatxonalari ochilishi mumkin.

Eslatma: savdo apparati yo'q mamlakatlarda XXSRning savdo operatsiyalari RSFSR organlari orqali amalga oshiriladi.

6-modda. Eksport mollarini sotish rejasi va tartibi, shuningdek, import mollarini sotib olish tartiblarini XXSR hukumati RSFSR TSX komissarligi bilan hamkorlikda amalga oshirdi.

¹ Ўша жойда. 5-иш, 3-5 в.

7-modda. XXSR konsessiyalari RSFSR bilan oldindan kelishgandan keyingina chet davlatlarga, jamiyatlarga va ayrim shaxslarga berishi mumkin.

8-modda. Mazkur kelishuv imzolanishi bilan RSFSR va XXSR o'rtasida 1920 yil 13 sentyabrda tuzilgan bitim o'z kuchini yo'qotadi¹.

Ushbu bitim birinchidan, XXSRga tashqi bozorga chiqish imkonini berdi. Bu esa mamlakat aholisini sifatli mollarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun keng yo'l ochdi. Ikkinchidan, kelishuvning matnlaridan yaqqol ko'rinib turganidek, sovet Rossiyasi XXSRning iqtisodiy, hatto siyosiy huquqlarini har tomonlama chegaralab qo'ygan va Xorazm manfaatlarini Rossiya manfaatlariga to'la bo'ysundirilgan. Xorazm respublikasi tashqi bozorda amalga oshiradigan barcha savdo operatsiyalari faqat Rossiya ruxsati bilan yoki nazorati ostida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Xullas, RSFSR 1922 yilga kelib XXSR ustidan keng qamrovli nazorat o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Shunga qaramay, respublikaning jonkuyar rahbarlari va ma'sul vakillarining harakatlari tufayli XXSR qisqa muddatda chet davlatlar, xususan, Rossiya, Buxoro, Boltiqbo'yi respublikalari, Finlyandiya kabi G'arb davlatlari hamda Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Bunday munosabatlarni qonuniyligini ta'minlash maqsadida XXSR rahbariyati tashqi savdo munosabatlarini olib boruvchi vakolatli davlat organlarini tashkil qildi. Xorazm XSRning chet davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatish dastlab Xalq iqtisodiyoti nozirligi zimmasiga yuklatilgan bo'lib, nozirlik 1920 yil 8 aprelda tashkil qilingan edi². Nozirlik tashqi savdo aloqalari bilan 1921 yil iyun oyigacha shug'ullandi. 1921 yil 9 iyun kuni tashqi savdo aloqalari bilan Tashqi ishlar nozirligi qoshida tashkil qilingan tashqi savdo bo'limi shug'ullana boshladi³. 1922 yil 8 avgust kuni Butun Xorazm mehnatkashlarining III-qurultoyi qarori bilan XXSRning savdo va sanoat xalq nozirligi tashkil qilindi. Natijada tashqi ishlar vazirligi qoshidagi

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 15-иш, 3-5 в.

² ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 4-иш, 105 в.

³ ЎзР МДА. 73- жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш, 17 в.

tashqi savdo bo‘limi savdo va sanoat xalq nozirligi tarkibiga kiritildi. Mazkur davlat organlari XXSRning qo‘shni va uzoq mamlakatlar bilan olib borilgan savdo munosabatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha tashkiliy va huquqiy masalalarni hal qilib bordi.

G‘arb mamlakatlari bilan bo‘lgan savdo aloqalarida XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi asosiy rol o‘ynadi. Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, XXSR va RSFSR o‘rtasida 1922 yil 29 iyunda yangi iqtisodiy kelishuv imzolangan edi. Bu kelishuv RSFSR MIK tomonidan 1922 yil 29 sentyabrda, XXSR MIK tomonidan 1922 yil 12 oktyabrda ratifikatsiya¹ qilindi².

1922 yil 12 avgustda Xorazmda Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining Prezidiumi yig‘ilishida Moskvada XXSR savdo vakolatxonasini ochish to‘g‘risida qaror qabul qilindi³. XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi o‘z faoliyatini 1922 yil 25 oktabr kuni boshladi⁴. Ikki yil davomida XXSRning SSSR va G‘arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish va amalga oshirish bilan shug‘ullandi.

Ushbu vakolatxonaning tuzilishi nizom bo‘yicha quyidagicha edi:

1. umumiy mahkama;
2. umumiy savdo bo‘limi;
3. moliyaviy va hisob-kitob bo‘limi;
4. omborxonalar;
5. Orenburg bo‘limi;
6. Orol dengizidagi Aralsk shahridagi savdo agentligi;
7. Petrograd bo‘limi;
8. Finlyandiyaning Gelsingforsdagi vakolatxonasi⁵.

XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi (yoki savdo kontorasi)ning vakolatlariga quyidagi huquqlar kiritildi:

– urushlar davrida vayron bo‘lgan yoki zarar ko‘rgan korxonalarni tiklash va ko‘maklashish;

¹ Ратификация - давлатлараро ёки халқаро шартномаларни, келишув ёки битимларни олий вакиллик органлари томонидан тасдиқлашиши.

² ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 25-иш, 30 а. в.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда. 51-иш, 8 в.

⁵ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 77-иш, 8 в.

– XXSR savdo va sanoat vazirligi topshirig‘i bilan RSFSR yoki chet davlatlar bilan doimiy savdo aloqalarini o‘rnatish;

– savdo operatsiyalarni amalga oshirish yo‘li bilan zarur moddiy resurslarni topish, Xorazmdan keltirilgan xom-ashyo va tovarlarni ichki va tashqi bozorda sotish, buni naqd hisob-kitob yoki kredit yo‘li bilan amalga oshirish;

– eksport, import va boshqa mahalliy savdo operatsiyalarni amalga oshirish¹.

Chet davlatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirish davomida tashkiliy va prinsipial masalalarda tushunmovchilik kelib chiqmasligi va yuzaga kelgan muammolarni bir tomonlama hal qilishning oldini olish maqsadida savdo vakolatxonasi qoshida maxsus «Kengash» tashkil qilindi. Unga hal qiluvchi ovoz bilan XXSRning Moskvadagi muxtor vakili (elchisi), savdo vakili, uning o‘rinbosarlari, maslahat ovoz bilan esa savdo vakolatxonasini barcha mas‘ul bo‘limlarining vakillari kiritildi. Kengash haftada bir marta yig‘ilar edi².

1923 yil oktyabridan Moskvadagi savdo vakolatxonasining Petrograd bo‘limi shimoliy-g‘arbiy viloyat kontorasiga³, Orenburg bo‘limi janubiy-sharqiy viloyat kontorasiga aylantirildi⁴. Bundan ko‘rinadiki, oradan bir yil o‘tar-o‘tmas XXSRning tashqi savdo aloqalari keskin o‘sib, savdo vakolatxonasi filiallarining vakolatlari ancha kengaytirildi.

1923 yil 22 oktyabrdagi XXSRning SSSRdagi savdo vakolatxonasi va Petrograd harbiy okrugining iqtisodiy kengashi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, okrugning sanoat-tayyorlov bo‘limi Moskva savdo vakolatxonasining shimoliy-g‘arbiy kontorasi ixtiyoriga o‘tkazildi⁵.

Bundan tashqari, «Kengash» qaroriga muvofiq, SSSR tashqi aloqalar xalq komissarligi bilan kelishilgan holda SSSRning Finlyan-

¹ Ўша жойда. 287-иш, 7 в.

² ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 77-иш, 7 в.

³ Ўша жойда. 54-иш, 1 в.

⁴ Ўша жойда. 77-иш, 58 в.

⁵ Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 287-иш, 1-4 в.

diyadagi savdo vakili bir vaqtning o'zida XXSRning Finlyandiyadagi savdo vakili qilib tayinlandi¹.

XXSR savdo missiyasining 1924 yil 14 yanvardagi qaroriga muvofiq XXSRdan tashqarida turgan barcha savdo organlari XXSR hududidan Moskvadagi savdo vakolatxonasiga bo'ysundirildi. Natijada, savdo vakolatxonasi quyidagi tashkiliy tuzilmaga ega bo'ldi:

- 1) markaziy savdo idorasi – Moskvada;
- 2) janubiy-sharqiy bo'lim – Orenburg;
- 3) shimoliy-g'arbiy bo'lim – Petrograd;
- 4) Toshkent bo'limi;
- 5) Orenburg bo'limi².

Finlyandiyaning Gelsingfors shahrida XXSR savdo vakolatxonasi SSSR vakolatxonasi qoshida tashkil qilingan. U tashkiliy jihatdan Xorazmning Moskvadagi savdo vakolatxonasiga kirmasa ham, o'zaro kelishuvga muvofiq XXSR savdo-sanoat nozirligi va SSSR tashqi savdo xalq komissarligi nazoratida faoliyat yuritgan. Shuni e'tiborga olish kerakki, Xorazmning har bir savdo vakolatxonasi va bo'limlarining savdo aloqalarini olib borish bo'yicha o'z harakat yo'nalishlari bo'lgan. Masalan:

– Moskvadagi savdo vakolatxonasi SSSRning markaziy hududlari, shuningdek, Ukraina, Belorussiya hamda G'arb mamlakatlari bilan aloqa olib borgan;

– Gelsingfors (Xelsinki) vakolatxonasi asosan Finlyandiya, u orqali esa G'arb davlatlari bilan, shuningdek, Boltiqbo'yi davlatlari (Latviya, Litva, Estoniya) bilan;

– shimoliy-g'arbiy bo'lim (Petrograd) SSSRning shimoliy hududlari bilan;

– janubiy-g'arbiy bo'lim SSSRning sharqiy hududlari, ya'ni Sibir, Uzoq Sharq hamda u orqali Xitoy bilan;

– Toshkent bo'limi Turkiston Muxtor Sovet Respublikasi bilan;

¹ Ўша жойда. 117-иш, в. 3; 118-иш, 30 в.

² ЎзР МДА. 59-иш, 25-28 в.

– Chorjuy bo‘limi esa asosan BXSR, shuningdek, qisman Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston kabi davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishda asosiy rol o‘ynadilar.

XXSR tashqi bozorga chiqish, yuqoridagi qayd qilingan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish maqsadida quyidagi savdo yo‘llaridan foydalangan edi. Bular: (bu yo‘llar xaritasi ilovada ko‘rsatilgan).

1. Masofasi 500 kilometrdan ortiqroq bo‘lgan Yangi Urganch-Chorjo‘y savdo yo‘li. Bu yo‘lning quyidagi 2 yo‘nalishi bor edi:

a) Daryo yo‘li. U Yangi Urganchdan Amudaryoning janubiy yo‘nalishi bo‘ylab Chorjo‘ygacha davom etgan. O‘sha davrda Xorazm davlati ixtiyorida 45 ta qayiq bo‘lib, shundan 35 tasi katta, 10 tasi kichik qayiqlar edi. Ularning yuk ko‘tarish hajmi 51 150 pud¹ bo‘lgan.

b) Tuproq yo‘li. U Xorazmning Xiva, Yangi Urganch, Xazorasp va boshqa shaharlaridan Chorjo‘ygacha mavjud bo‘lgan. Xom-ashyo va tayyor mahsulotlar Xorazm savdo nozirligi ixtiyorida bo‘lgan 252 ta yuk aravalarida shu tuproq yo‘l orqali Chorjo‘yga keltirilgan².

Shu tarzda Chorjo‘ygacha olib kelingan mahsulotlar bu yerdan temir yo‘l orqali Buxoro va Toshkentga, keyin Orenburg orqali Rossiya markaziga va Yevropa mamlakatlariga olib chiqilgan. Sharqiy yo‘nalish orqali Toshkentdan Rossiyaning Sibir hududlariga va Xi-toyga chiqarilgan. Shuningdek, Chorjuy-Krasnovodsk janubi-g‘arbiy yo‘nalish orqali Eron, Afg‘oniston mamlakatlariga, Kaspiy dengizi orqali Kavkazorti viloyatlariga mahsulotlar eksport qilingan.

2. Masofasi 800 kilometrdan ortiqroq bo‘lgan Yangi Urganch – Aralsk yo‘nalishi Yangi Urganchdan boshlanib, Xorazmning ichki yo‘llari orqali Amudaryoga chiqqan, uning shimoliy oqimi bo‘ylab Orol dengizini kesib o‘tib, Rossiyaning Aralsk porti bilan bog‘langan³. Bu yerdan xom-ashyo va tayyor mahsulotlar Orenburg va Astraxanga, Rossiyaning markaziy hududlariga va Yevropa mamlakatlariga olib chiqilgan.

¹ 1 пуд - 16 килограмм.

² Хлопковое дело. 1924. № 9-10. – С. 3-13.

³ Хлопковое дело. 1924. № 9-10. – С. 3-13.

3. Xorazm-Ashxobod-Krasnovodsk yoʻnalishi Qoraqum orqali oʻtuvchi tuya karvoni yoʻli boʻlganligi sababli oʻsha davrda ham oʻz ahamiyatini saqlagan.

XXSR tashqi iqtisodiy aloqalarining tashkiliy-huquqiy asoslarining keng tahlili shuni koʻrsatadiki, Xorazmda milliy-demokratik boshqaruv shaklini, davlat organlarini qurishga intilgan Xorazm jadidlari bolsheviklar va ularning ayrim mahalliy yugurdaklari tomonidan katta qarshilikka duch kelganlar. RSFSR (SSSR) rahbariyatining olib borgan ulugʻ davlatchilik siyosati XXSRning tashqi iqtisodiy aloqalariga juda qattiq taʼsir qildi. Shunga qaramasdan, XXSR qisqa muddat tashqi savdo aloqalarini olib borish uchun davlat organlarining ichki va tashqi apparatlarini tuzishga, shu yoʻl orqali yaqin va uzoq davlatlar bilan savdo aloqalarini oʻrnatishga muvaffaq boʻldi.

Savdo va sanoat vazirligi chet davlatlar bilan tashqi savdo aloqalarini olib borish maqsadida Moskva, Chorjuy va Toshkentda oʻz boʻlimlarini ochdi. Keyinchalik bu boʻlimlar XXSRning RSFSRdagi Moskva, TASSRdagi Toshkent va BXSrdagi Chorjuy savdo vakolatxonalariga aylantirildi. Bular ichida eng yirigi Xorazmning Moskvadagi Savdo vakolatxonasi boʻlib, respublika tashqi savdosining deyarli 65–75 % dan koʻprogʻi mazkur vakolatxona orqali amalga oshirilardi.

1922 yilga kelib Moskvada Oʻrta Osiyo respublikalarini turli yoʻllar, hiyla-nayranglar bilan asta-sekin majburiy birlashtirish siyosatini boshlagan edi. XXSR amalda mustaqil tashqi siyosat olib borish huquqidan butunlay mahrum qilina boshlandi. Oʻrta Osiyo respublikalari xoʻjaligini rivojlantirishni tezlashtirish baxonasida RKP(b) MK 1922 yil 13 fevral kuni BXSr, XXSR va Turkiston ASSRlarini iqtisodiy jihatdan birlashtirish toʻgʻrisida qaror qabul qildi¹. Bu esa Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining milliy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlariga mutlaqo zid edi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, 1924 yili RSFSR tomonidan oʻtkazilgan Oʻrta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralash siyosati natijasida XXSR sifatida tugatildi. XXSR savdo vazirligining 1924 yil 23 noyabrda asosan Moskvadagi savdo vakolatxonasining muxtor vakilini

¹ Тохтаханов У.Т. Взаимоотношения РСФСР с ХНССР. Автореф. дис... канд. ист. наук. – Т., 1961. – С. 14.

tugatish haqida buyruq berdi. Shu asosda 5 dekabr kuni vakolatxonani tugatish haqida qaror qabul qildi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm respublikaasi qisqa muddatda Sovet Rossiyasi tomonidan oʻrnatilgan iqtisodiy-siyosiy tazyiqlarga qaramasdan, yaqin va uzoq chet mamlakatlar bilan faol savdo aloqalarini olib borishga harakat qilgan. Hujjatlar tahlili quyidagilarni xulosa qilishga imkon beradi:

1. Sovet Rossiyasi XXSRning 1920 yildagi ogʻir iqtisodiy ahvolidan, asosiy transport yoʻllaridan uzoqda joylashganligidan foydalanib oʻz manfaatlariga mos keluvchi iqtisodiy shartnomalarni imzolashga majbur qilgan.

2. Natijada Xorazm respublikasi ogʻizda «mustaqil» deb tan olinsa-da, amalda sovet Rossiyasining «xom-ashyo mustamlakasiga» aylantirish siyosati olib borilgan.

3. Bundan tashqari, RSFSR Xorazmning boshqa davlatlardagi savdo vakolatxonalariga, hatto Xorazm hukumati tarkibiga ham oʻz vakillarini turli yoʻllar, baʼzan toʻgʻridan-toʻgʻri aralashish yoʻli bilan kiritishga muvaffaq boʻldi. Ularning buzgʻunchilik faoliyati natijasida esa, XXSRga katta iqtisodiy zarar yetkazilgan.

4. Ammo XXSRning ayrim vatanparvar rahbarlari, shuningdek, muxtor vakillari, savdo vakolatxonasi boshliqlarining qatʼiy xatti-harakatlari va tashabbuslari bilan XXSRning RSFSR bilan boʻlgan savdo munosabatlarida iloji boricha oʻz manfaatlariga mos keluvchi shartnomalar tuzish, jahon bozorida Xorazm mahsulotlarini mustaqil sotish, shu yoʻl bilan XXSR iqtisodiyotini koʻtarishga harakat qildilar.

2 §. Xorazm respublikasining RSFSR (SSSR) va BXS bilan savdo-sotiq aloqalari

XXSRning iqtisodiy va siyosiy ahvoli bevosita Rossiya bilan chambarchas bogʻliq edi. 1918-1920 yillarda Rossiyani qamrab olgan ichki kurashlar Xorazmning butun hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Ayniqsa, 1920 yillarning boshlariga kelib, Xorazmning iqtisodiy ahvoli nihoyatda ogʻirlashdi. Bu davrda Xorazmdan chiqarilgan eksport bor yoʻgʻi 180 ming pudni tashkil qilgan, vaholanki, birgina 1915 yil-

da 1 mln. 700 ming pud paxta xom-ashyosi eksport qilingan edi¹. Ya'ni, so'nggi 5 yil davomida eksport hajmi deyarli 10 barovar kamayib ketgan. 1917 yildan 1920 yil kuzigacha Xorazmdan mahsulotlarni eksport qilish deyarli to'xtab qolgan². Bunga, avvalo, Rossiya imperiyasining birinchi jahon urushiga tortilishi bo'lsa, ikkinchidan, 1917 yil oktabr davlat to'ntarishidan keyin Rossiyada boshlangan, 5 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan fuqarolar urushi sabab bo'lgan.

Rossiyadagi iqtisodiy ahvol, chuqur inqiroz Xorazmga ta'sir etmasdan qolmas edi. Chunki, avval Xiva xonligi, keyin Xorazm XSR faqat Rossiya bilan savdo-sotiq olib borishga majbur edi. Ma'lumki, 1873 yilda Rossiya imperiyasi Xiva xonligini bosib olgan edi. 1873 yil 12 avgustda ular o'rtasida tuzilgan Gandamiyon shartnomasiga muvofiq Xiva Rossiyaga qaram mamlakatga aylantirildi. Bunga muvofiq Xivaga chet mamlakatlar bilan tashqi munosabatlar olib borish man qilindi. 1895 yilda esa Xiva xonligi Rossiya imperiyasining umumiy bojxona tizimiga kiritildi. Oqibatda Xiva xonligi o'zining savdo mustaqilligini yo'qotib, Eron, Afg'oniston, Hindiston va boshqa davlatlar bilan an'anaviy savdo aloqalarini umuman to'xtatib qo'yishga majbur bo'ldi³. Bunday siyosat oxir-oqibatda Xiva xonligi iqtisodiyotini Rossiya iqtisodiyotiga butunlay qaram qilib qo'ydi. Xorazm Rossiyaning xom-ashyo bazasiga, shuningdek, Rossiya tovarlari uchun bozorga aylantirildi.

Xorazm qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lib, uning xo'jaligini asosini tashkil qiluvchi sug'orish tarmoqlari qarovsizlik natijasida deyarli izdan chiqqan edi. Oqibatda ekin maydonlari juda qisqarib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, Xorazmning asosiy eksport mahsuloti bo'lgan paxta yetishtirishning keskin kamayib ketishiga olib keldi. Masalan, 1913 yilda paxta hosili 2 mln. pud bo'lgan bo'lsa, u umumiy ekin maydonlarining 30 %iga ekilgan⁴. Vaholanki, 1919–1920 yillarga

¹ Хлопковое дело. 1924. № 9-10. С. 3-4.

² Погорольский В.И. Из истории хивинской революции и ХНСР. – Л., 1984. – С. 108.

³ Тохтаханов У.Т. Взаимоотношения царской России с Хивинским ханством с 1873–1910. – М., 1950. – С. 13.

⁴ Туркестан в начале XX века: к истокам истории независимости. – Т., 2000. – С. 3-5.

kelib bor-yo'g'i 100 ming pud paxta hosil olingan¹, ya'ni 6-7 yil davomida paxtaning umumiy hosil miqdori 20 martaga kamaygan. Shundan faqat 15 ming pudigina Rossiyaga eksport qilingan, xolos. Xorazm hududidagi barcha paxta tozalash zavodlari (jami 36 ta) deyarli to'xtab qolgan edi. Rossiya, Xorazmning xom-ashyosiga, ayniqsa paxtasiga katta ehtiyoji borligi tufayli uning qishloq xo'jaligini ko'tarishdan manfaatdor edi. Xorazmda ham Rossiyaning tayyor fabrika mahsulotlariga ehtiyoj katta edi. Shuning uchun ham, oldingi bobda ko'rsatilganidek, ikki tomonlama shartnomalarning imzolanishi har ikki mamlakat manfaatlariga juda mos kelardi. Ammo, sovet Rossiyasi, amalda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini yangi shakl va mazmunda davom ettirib, Xorazmning urushlarda vayron bo'lgan o'z xo'jaligini xom-ashyo bilan ta'minlovchi o'lka sifatida ushlab turishni rejalashtirgan. Buning uchun esa Xorazm qishloq xo'jaligini rivojlantirish, uning xom-ashyoni eksport qilish salohiyatini oshirish talab qilinardi.

Xorazm xo'jaligini o'rganish va tiklashni yo'lga qo'yish maqsadida Rossiya hukumati u yerga ketma-ket turli ilmiy-iqtisodiy ekspedisiyalar yubora boshladi. Masalan, 1921–1924 yillar mashhur olim, injener-irrigator F.L. Morgunenkov boshchiligidagi ekspedisiya Xorazmning sug'orish tarmoqlarini, yer-suv resurslarini o'rganish ishlarini olib bordi². 1923 yilda I.N. Iestal, G.N. Cherdansev, S.K. Malyukin kabi iqtisodchi olimlar ishtirok etgan maxsus ilmiy ekspedisiya XXSRning iqtisodiy ahvoli va uni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rgandi³. B.M. Georgievskiy boshliq ekspedisiya Xorazmni geologik va gidrogeolik jihatidan o'rgandi⁴.

Xorazmning asosiy eksport mahsuloti hisoblangan paxtaga jahon bozorida talabdan kelib chiqib, 1921 yil iyun oyida Xorazm huku-

¹ Мамажонов М.К. Социально-экономические преобразования и развитие экономики ХНCP. - Т., 1974. С. 112.

² Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Ўзбекистоннинг янги тарихи. П-жилд. – Т., 2000. 229-б.

³ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида ... 229-б.

⁴ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида ...

mati maxsus «Paxta uyushmasi» tashkil qildi¹. Tashabbusni oʻz qoʻliga olish maqsadida RSFSR Bosh paxta qoʻmitasi «Xorazm paxta uyushmasi» bilan aloqalar oʻrnatdi. 1921 yilda Xorazm paxta uyushmasi RSFSR Bosh paxta qoʻmitasidan 97 mln. soʻm kredit, 95 987 arshin² manufaktura mahsulotlari, 1 549 pud kerosin, 100 ming dona qutichada gugurt, 6 650 – gʻaltak, turli rangdagi iplar qabul qilib oldi va paxtakorlarga topshirildi³.

RSFSR hukumati Xorazm xom-ashyo ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun 1921 yilning I-choragida 650 mln. soʻm, shu yilning II-choragida esa 2 mlrd. soʻm kredit ajratdi⁴. Shuningdek, Xorazm hukumati ham xoʻjalik hayotini izga solish maqsadida dehqonlarga imtiyozli kreditlar bera boshladi. Masalan, birgina 1922 yil boshida paxta ekish kompaniyasiga Xorazm MİK 250 mln. soʻm imtiyozli kredit ajratdi⁵. Sugʻorish tarmoqlarini kengaytirish, yangi ariqlar, kanallar qazish, daryo va kanal boʻyidagi himoya dambalarini mustahkamlash Xorazmda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri edi. Rossiyadan kelgan maxsus ilmiy-iqtisodiy ekspeditsiyalarning xulosalaridan keyin RSFSR tomonidan XXSRga faqat sugʻorish tizimi inshootlarini takomillashtirish uchun 1 mln. 476 ming 742 soʻm kredit ajratdi⁶. Natijada 1922, 1923 yillarda Xorazmda 13 damba, 8 ta suv bandlari, 2 ta yangi ariq, shuningdek, Shavot kanalining Iloliyopi va Tashhovuz oraligʻidagi yangi irmogʻi qazilib ishga tushirildi⁷.

Xorazm hukumati ham dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi, yaʼni paxta yetishtiruvchilarga turli imtiyozlar berildi, juda kam foiz evaziga uzoq muddatli kreditlar ajratildi, soliqlar kamaytirildi, ayrim hollarda umuman bekor qilindi. Bundan tashqari, har bir topshirilgan 50 pud

¹ Туркестан в начале XX века... – С. 636.

² Аршин – ўлчов бирлиги. 1-тарсақ, яъни 60-70 см тенг бўлади.

³ Туркестан в начале XX века... – С. 637.

⁴ Непесов Г. Из истории хорезмской революции. – Т., 1962. – С. 223.

⁵ Ўша жойда.

⁶ Непесов Г. Из истории хорезмской революции. С. 226.

⁷ Тохтаханов У.Т. Взаимоотношения царской России с Хивинском ханством... С. 15.

hosil uchun hisob-kitobdan tashqari, dehqonlarga mukofot tariqasida 2 ta ketmon, 6 funt¹ g'ildirak moyi, ekish uchun 5 pud urug'lik, 50 funt tuz, 90 arshin manufaktura (gazlama) mahsulotlari berilgan².

Bunday tadbirlar natijasida Xorazm respublikasida paxta ekish va yetishtirish katta sur'atlar bilan o'sib borgan. Buni quyidagi jadval ham ko'rsatib turibdi.

Jadval II. 2. 1. Xorazm respublikasida paxta ekish va yetishtirish haqida ma'lumot³

Yillar	Ekish (tanobda)	Umumiy hosil (pud)
1920	1000	24 000
1921	10 000	100 000
1922	25 000	250 000
1923	43 378	450 000
1924	85 000	800 000

Xorazm qishloq xo'jaligining o'sishi va, ayniqsa, paxtachilikning rivojlantirilishi ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalarining kuchayishiga olib keldi. Rossiyadan Xorazmga asosan tayyor sanoat mahsulotlari, gazlamalar (manufaktura), choy, qand, metall buyumlar, mashinalar, kerosin, un va boshqa mahsulotlar olib kelingan. Xorazm esa, Rossiyaga paxta, urug', qorako'l, teri mahsulotlari, baliq, yog', arava g'ildiraklari, shuningdek, tayyor hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilgan⁴.

Xiva xonligi ag'darilib, XXSR tashkil topganidan keyin, Xorazmning RSFSR bilan savdo aloqalari 1920 yilning ikkinchi yarmida qayta tiklandi. Bu davrda Xorazm Rossiyaga 150 ming pud paxta tolasi jo'natdi. Buning evaziga Rossiyadan Xorazmga 50 ming pud kerosin, 50 ming pud neft, bir vagon uy-ro'zg'or buyumlari, 8 ming juft rezinali kalish, 400 ming arshin⁵ manufaktura mahsulotlarini eks-

¹ фунт - оғирлик ўлчов бирлиги - 0,3 кг тенг.

² Туркестан в начале XX века... С. 637.

³ Непесов Г. Из истории хорезмской революции... С. 165.

⁴ Мамажонов М. Социально-экономическое развитие ХНСР 1920-1924 гг. – Т., 1971. – С. 57.

⁵ аршин - 0,71 см га тенг, яъни 1 тирсак узунликтаги ўлчов бирлиги.

port qildi¹. 1920 yil esa oktabr, noyabr oylarida 37 ming pud g'alla, 47 ming pud jo'xori, 10 ming pud kerosin mahsulotlarini Rossiya Xorazmga jo'natdi².

Xorazm bilan doimiy savdo aloqalarini o'rnatishda Rossiya va Turkistonning bir qancha jamiyat va savdo-vositachilik tashkilotlari jonbozlik qildilar. Bular Turkpaxta qo'mitasining savdo bo'limi, Butun Rossiya texnika ta'minotining Toshkent bo'limi, Markaziy matbuot uyushmasining O'rta Osiyo bo'limi, Petrograd savdo tashkiloti, Turkiston savdo boshqarmasi, Turkiston ipak jamiyati kabi o'nlab tashkilot va jamiyatlar edi. Bu savdo tashkilotlarining ko'magida 1921 yil iyuldan boshlab Xorazmga 219 150 arshin manufaktura, 1250 ta jundan tayyorlangan ko'ylaklar, 100 000 oddiy ko'ylaklar, 30 ming dona Buxoro ko'ylaklari, 65 000 to'plam Buxoro ipak matolari, 2250 pud kerosin, 1 880 pud tamaki mahsulotlari, 1 140 pud quruq choy, 100000 dona quti bo'yoq va bo'yoq mahsulotlari, 40 000 dona rezina kalish, 620 arshin fonus uchun lentalar, 200 000 pud yozish qog'ozlari va boshqa mahsulotlar Xorazmga keltirildi³.

1921 yil oxiriga kelib esa Moskvadan Xorazmga 2 ming yashik gugurt, 2 vagon sement, 200 maktab uchun 10 ming dona o'quv qo'llanmalar, Toshkentda esa 50 000 dona juft rezinali kalishlar, 400 000 arshin manufaktura mahsulotlari, ya'ni gazlamalar, 7 ming g'altak (o'ram) iplar, 50 yashik gugurt, 1 vagon oyna mahsulotlarini jo'natdi va 100 mln. so'm kredit ajratildi⁴.

Bu davrda XXSR Toshkentda Turkpaxtaqo'mitasi bilan Rossiyaga 200 vagon paxta tolasini jo'natish to'g'risida shartnoma imzoladi. Faqat 1922 yilning o'zida Xorazm Rossiyaga paxtadan tashqari 43 000 pud turli xil mahsulotlarni eksport qilgan⁵.

Ikkala mamlakat o'rtasidagi o'sib borayotgan doimiy savdo aloqalarini yanada kuchaytirish maqsadida qo'shimcha bir qancha tadbirlar

¹ ЎЗР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 41 в.

² Непесов Г. Из истории хорезмской революции... – С. 223.

³ Внешняя торговля: Ежедневник Наркомвнешторга РСФСР. 1923. № 40. – С. 17.

⁴ Мамажонов М. Социально-экономическое развитие ХНСР... – С. 28.

⁵ Погорельский И.В. Из истории хивинской революции и ХНСР.... – С. 170.

amalga oshirildi. Jumladan, 1921 yil 29 mayda «Pochta, telegraf va radioni boshqarish to'g'risida», shu yili 25 sentabr kuni esa «Amudaryo flotiliyasini o'zaro taqsimlash to'g'risida» XXSR va RSFSR o'rtasida shartnomalar imzolandi. Bu yo'l bilan Rossiya Xorazmdan xom-ashyo mahsulotlarini iloji boricha ko'proq tashib ketish imkoniyatlarini yanada rivojlantirishni rejalashtirgan edi. Shu bilan birga Xorazmning tashqi dunyo bilan bog'lovchi savdo yo'llarini yanada yaxshilash, ayniqsa, Amudaryo va Orol dengizida yuk tashuvchi kemalarni texnik jihatdan qayta tiklash zarurati tug'ildi. «Xorazm bilan savdo yo'llarining yaxshilanishi, - deb yozadi Rossiya iqtisodchisi V. Chaplignin, - Xorazmning xom-ashyo imkoniyatlarini kuchaytirish va davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini jonlantirish shartidir»¹.

Rossiyaning vayron bo'lgan sanoati bunday xom-ashyoga juda muhtoj edi. Xorazmday chekka mustamlakaning xo'jaligini tiklash Rossiyaning o'ziga juda zarur edi. «Shuni qayd qilish kerakki, - deb yozadi Moskvada chiqadigan «Jizn nasionalnostey» gazetasi, - biron-bir sobiq mustamlakaning iqtisodiy hayotini tiklash bu yerdagi mahalliy xo'jalikni mustahkamlash orqali amalga oshirilmog'i kerak»². Sovet Rossiyasi bu yerda bir vaqtning o'zida ikkita maqsadni ko'zlagan edi:

birinchidan, mustamlakalarning xom-ashyo imkoniyatlarini yanada oshirish, shu yo'l bilan o'z sanoati ehtiyojini qondirish;

ikkinchidan, butun jahonga Rossiya go'yo Sharq mamlakatlariga beg'araz yordam ko'rsatmoqda, degan g'oya siyosiy maqsadlarni ham ko'zlagan edilar. «Sharqda, bozor hayotning bosh dastagi hisoblanadi, amalga oshirayotgan iqtisodiy faoliyati siyosiy maqsadlarimiz uchun juda katta, bemsil ahamiyat kasb etadi»³.

Ammo XXSR rahbariyati mamlakatni sovet Rossiyasining xom-ashyo bazasiga aylantirishdan iborat siyosatiga qarshi chiqa boshladilar. Xorazm hukumati vakillari bu haqda hatto Rossiya matbuotida Xorazmni xom-ashyo mamlakatidan tayyor mahsulot yetishtiruvchi mamlakatga aylantirish imkoniyatlari to'g'risida tahliliy fikrlar bera

¹ Хлопковое дело. 1924. № 9-10. – С. 3-13.

² Жизнь национальностей. 1922. № 11. – С. 22.

³ Жизнь национальностей. 1922. № 11. – С. 8.

boshladilar. Masalan, XXSR MIK raisi Yangiboy Muratov 1922 yil iyun oyida «Xorazmda paxta bor, ammo bundan uni faqat Rossiyaga eksport qilish kerak, degan xulosa kerak emas, balki uni joyida (ya'ni Xorazmda) qayta ishlab, bozorga chiqarishni faqat so'zda emas, amalda o'ylashimiz kerak, ana shunda Xorazm respublikasi qoloq mustamlakadan gullayotgan o'lkaga aylanishi mumkin»¹, deb yozadi Moskvada chiqadigan «Jizn nasionalnostey» ilmiy, iqtisodiy-ijtimoiy jurnalida.

Shunday qilib, Xorazm hukumati aholining mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida kuch-g'ayrat bilan ishlay boshlashdi. Bunda tayyor mahsulotlarni eksport qilish asosiy vazifalardan deb e'lon qilindi. Natijada, 1922 yilga kelib Xorazm respublikasi Chorjuy orqali Turkistonning Zakaspiy viloyatiga 10 164 ayollar ustki kiyimi (xalat), 6 900 dona issiq yopinchiqlarning ustki qismi (pododeyalnik), 402 ming arshin manufaktura mahsulotlari, 230 gilamlar, 1 003 dona ayollar ko'ylagi va boshqa tayyor mahsulotlarni ekport qildi². Umu-man 1922–1923 yillarda davlat byudjeti yilida davlat xazinasiga faqat tashqi savdoning o'zidan 152 mln. 730 ming so'm Xorazm pul birligida foyda kelib tushdi³.

1922 yil iyun oyida XXSR va RSFSR o'rtasida tuzilgan yangi iqtisodiy shartnoma Xorazm Hukumatiga Rossiyaning savdo firmalari, kompaniyalari, trestlari bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalari o'rnatish imkonini berdi. Xorazm bilan savdo qilishdan manfaatdor kompaniyalar yetarli edi. Masalan, «Don-tamaki trest», «Qandrest», «Kovrovotrest», «Ipak trest» kabi ixtisoslashgan kompaniyalar, Serpuxovo, Vladimir-Bogorodskiy, Vladimir kabi paxta-qog'oz korxonalarini bilan shunday aloqalar o'rnatildi. Xorazm ularga paxta va boshqa mahsulotlar sotgan bo'lsa, buning evaziga manufaktura (gazlama)lar, tamaki, qand va boshqa eng zarur kundalik ehtiyoj mahsulotlarini sotib olganlar. Bunday bitimlardan 1923 yilda tuzilgan XXSR bilan «Kovrovotrest» o'rtasida shartnoma shunday savdo aloqalariga xos hisoblanadi. Masalaga oydinlik kiritish maqsadida shartnomaning to'liq matnini keltiramiz:

«Shartnoma»

¹ Ўша жойда. – С. 2.

² Внешняя торговля... 1923. № 40. – С. 17.

³ Внешняя торговля... 1923. № 40. – С. 17.

Moskva shahri - 30 noyabr 1923 yil

XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi qisqartirilgan holda «Xorazmsavdo», savdo vakilining o'rinbosari Kurgan Rafail Davidovich bir tomondan, «Kovrovotrest»i boshqaruvining raisi V.A. Dementev ikkinchi tomondan o'zaro quyidagi shartnomani imzolashdi:

1. Xorazmsavdo «Kovrovotrest»iga, fabrikada qayta ishlash va gazlama tayyorlash maqsadida 20 000 (yigirma ming) pud Amerika birinchi nav urug'idan tayyorlangan Xiva paxta tolasini yetkazib beradi.

2. Qayta ishlash uchun topshirilgan har qaysi pud paxta uchun, trest Xorazmsavdoga 781 023 arshin gazlama yetkazib beradi, uning 75 %i chit materiallarini, 10 % bez, 15 % satin materiallarini tashkil qiladi. Ularda Osiyocha suratlar aks ettirilgan bo'ladi.

3. Hisob-kitob quyidagicha amalga oshiriladi: barcha kelishilgan summaning 25 %ni gazlama bilan avans tariqasida beriladi, bu 248 920 metrni tashkil qiladi. Topshirilgan paxta uchun trest hisob-kitobini paxta belgilangan stansiyaga yetib kelganidan so'ng, 15 kun davomida amalga oshiradi¹. Bundan tashqari, Xorazmsavdo vakolatxonasi mazkur trestdan 1923 yil may-oktabr oylarida jami 700 ming arshin turli manufaktura olgan². Agar 1923 yil may oyida faqat 2 mln. so'mlik tayyor mahsulot olingan bo'lsa, 1923 yil iyun oyida savdo vakolatxonasi 3 mln. so'mlik to'qimachilik mahsulotlarini qabul qilib oldi³. Xorazm bo'lsa, bu vaqtda «Trest»ga 20 vagon birinchi nav tolasini, 5 vagon ikkinchi-uchinchi nav tolalarini yetkazib bergan⁴.

Kovrovo to'qimachilik tresti Xorazm savdo vakolatxonasining doimiy sheriklaridan edi. 1923 yil may-oktabr oylari davomida Savdo vakolatxonasi Trestdan 700 ming arshin miqdorida turli xil manufaktura sotib oldi. Agar 1923 yil may oyida savdo hajmi 2 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, iyun oyida 3 mln. so'mni tashkil qilgan⁵. Buning evaziga Xorazm trestga

¹ ЎЗР МДА. 70-жамғарма, 1-руйхат, 55-иш, 36 в.

² Ўша жойда. 12-14 в.

³ Ўша жойда. 1-3 в.

⁴ Ўша жойда. 7, 14 в.

⁵ Ўша жойда. 1, 3 в.

20 vagon birinchi navli paxta tolasi, 5 vagon II–III navli paxta tolasi yetkazib bergan¹.

Shuningdek, Xorazm savdo vakolatxonasi Ivanovo-Voznesensk paxta-qog'oz tresti bilan ham aloqalar o'rnatdi. Masalan, XXSRning Moskva savdo vakolatxonasi 1923 yil 26 iyunda trest ma'muriyatiga murojaat qilib quyidagi miqdorda manufaktura mahsulotlar yuborishni so'raydi:

1. Chit	- 28 to'plam	49245 so'm
2. Shotlandiya gazlamasi	- 11 to'plam	14 070 so'm
3. Gazlamalar	- 11 to'plam	14 070 so'm
4. Satin	- 15 to'plam	21 105 so'm
5. Kiyimlik gazlamalar	- 20 to'plam	14 070 so'm
6. Bayoz	- 17 to'plam	28 140 so'm
JAMI	- 102 to'plam	140.900 so'm ²

XXSRsining mazkur trest bilan dastlabki savdo operatsiyasi 1923 yil 8 iyunda amalga oshirilib, 100 ming so'mni tashkil qilgan edi³. Bundan tashqari, 1923 yil davomida XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi Rossiyaning Serpuxovo trestidan 1 mln. so'mlik, Vladimir paxta-qog'oz trestidan 300 ming so'mlik, «Ipak» trestidan 1 mln. so'mlik, Vladimir-Bogorodskiy trestidan 200 ming so'mlik, jami 2,5 mln. so'mlik manufaktura mahsulotlari sotib olindi va Xorazm xalqining ehtiyojlari uchun jo'natildi⁴.

Shuningdek, manufaktura mahsulotlaridan tashqari, tamaki, qand mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan savdo aloqalari o'rnatildi. Masalan, «Don-tabak-trest» korxonasidan 1923 yil iyun oyida 100 ming so'mga 1 mln. dona, iyul oyida esa 250 ming so'mga 3 mln. dona papiros sotib olish to'g'risida shartnoma imzolangan⁵.

Xorazm xalqining qandga bo'lgan ehtiyojini «Saxar-trest» korxonasi bilan tuzilgan shartnomalar orqali qondirishga harakat qilindi.

¹ Ўша жойда. 7, 14 в.

² ЎзР МДА. 0-жамағарма, 1-рўйхат, 55-иш, 11, 13 в.

³ Ўша жойда. 59-иш, 4 в.

⁴ Ўша жойда. 2, 4, 5, 8, 10 в.

⁵ Ўша жойда. 58-иш, 4, 8, 11 в.

Agar 1923 yil may oyida 3 vagon qand sotib olingan bo'lsa, iyun oyida esa 2000 pud miqdorida (har bir pud 1,25 chervones¹dan), avgust oyida esa 5 vagon miqdorida qand sotib olindi va Xorazmga jo'natildi². Shu vaqtning o'zida «Ipak-trest» boshqarmasi bilan ham 1 mln. so'm hajmida paxta-qog'ozdan tayyorlangan gazlamalarni sotib olishga shartnoma tuzildi³. XXSR Moskva savdo vakolatxonasi tijorat direktori, Xorazm farzandi Yusuf Salimjonov bu shartnomalarning bevosita tashabbuskori va ijrochisi bo'ldi. Tuzilgan shartnomalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sotib olingan mahsulotlar Xorazm xalqi ehtiyoji uchun birinchi galdagi o'ta zarur mollar tashkil qilgan. Ayniqsa, turli gazlamalarni sotib olish jarayonida ularning Xorazm iqlim sharoiti, an'analari, urf-odatlarini hisobga olindi. Masalan, 1923 yil 20 iyun kuni Vladimir-Bogorodskiy ipak tresti bilan tuzilgan bitimda 2000 chervones miqdorida paxta-qog'oz gazlamalarni sotib olishga kelishildi. Ammo gazlama quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) chit – 25 %;
- 2) bayoz – 25 %;
- 3) kiyimlik – 20 %;
- 4) sochiqlik gazmollar – 20 %;
- 5) satin matolar – 5 %;
- 6) turli xil – 5 %⁴.

1923 yil 23 iyun kuni esa XXSRning Moskvadagi savdo vakili M. Madiyurov Vladimir paxta-qog'oz mahsulotlari tresti bilan 3 000 chervones miqdorida gazlama sotib olishga shartnoma tuzdi⁵.

Buni evaziga Xorazm, asosan, paxta tolasi yetkazib bergan. Masalan, 1923 yil 2 iyul kuni XXSR savdo vakolatxonasi Kovrovo trestiga 10 vagon paxta jo'natib, undan 1 pud Xiva paxtasi uchun (Amerika navi asosida yetishtirilgan) 120 arshin gazlama yetkazib berilishi kelishib olindi.

¹ Червонец - 1922 йилдаги Россиянинг олтин пул бирлиги 10 рубл қиймати..

² ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 58-иш, 4, 8, 11 в.

³ Ўша жойда. 59-иш, 1 в.

⁴ ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 58-иш, 8 в.

⁵ Ўша жойда.

Gazlamaning 50 %i birato‘la, qolgan 50 %ni bir oy ichida yetkazib berilishi qayd qilinadi¹.

Moskva shahrida joylashgan Karl Libknext nomidagi gazlama ishlab chiqaruvchi fabrika bilan 1923 yil 30 iyulda 5 000 chervones, 6 avgustda ham 5 000 chervones miqdorida gazlama sotib olish to‘g‘risida kelishib olindi². 1923 yil 1 sentabr kuni esa Xorazm savdo vakolatxonasi 10 vagon paxta evaziga 521 727 arshin mato sotib olish to‘g‘risida qo‘shimcha shartnoma imzoladi³. Shu yili 13 oktyabrda Kovrovo tresti bilan 141 bog‘lam hajmda matolar sotib olish to‘g‘risida kelishib olingan⁴. 1923 yil 23 oktyabrda savdo vakolatxonasi «Kovrotrest»i bilan yana shartnoma imzolab, bunga muvofiq jami 10 ta vagon paxta tolasi uchun I-nav Xiva paxtasi uchun 120 arshin gazlama, II–III navli paxta uchun 120 arshin bayoz matodan yetkazib berishga belgilandi. Shunisi e‘tiborliki, yetkazib berilayotgan mahsulotlarning bir qismida osiyocha suratlar aks etgan bo‘lishi kerak edi⁵.

Xorazm vakillari savdo-sotiq geografiyasini yanada kengaytirish maqsadida Rossiyaning janubiy viloyatlari, hatto Ukraina bilan ham hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga muvaffaq bo‘lishadi. Avvalambor, bunday hamkorlikdan Ukraina manfaatdor edi. Quyidagi bir hujjat fikrimizni isbotlaydi. Unda, jumladan shunday deyiladi:

*«Xorazm XSRning Moskvadagi
savdo vakolatxonasiga Ukraina
fuqarosi Aleksey Georgievich
Bezradeskiydan (Kievda yashayman)*

A R I Z A

Nozirlikning Moskva kontorasi, asosan paxta yetkazib beruvchi bo‘lganligi va bu xom ashyoga Ukraina bozorlarida talab juda kattali-

¹ Ўша жойда. 55-иш, 7 в.

² Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 55-иш, 10, 11, 13 в.

³ ЎзР МДА. 14 в.

⁴ Ўша жойда. 16 в.

⁵ Ўша жойда. в.18.

gi uchun (bu talab o'nlab trillion so'mlarda ifodalanadi), bevosita Ukraina firma va trestlari va Sizlar o'rtangizda vositachi bo'lishi mumkin. Siz paxta o'rniga qand, un, don, gazlama va boshqa narsalar olishingiz mumkin»¹.

XXSR Ukraina bozorlarida zarur mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish mumkinligini hisobga olib bu yo'nalishdagi ishlarni jonlantirib yubordi. 1923 yil kuziga kelib esa Ukraina savdo tashkilotlari bilan dashtabki shartnoma imzolandi. Quyida shunday shartnomalardan birining qisqacha matnini keltiramiz:

«ShARTNOMA № 375

Kiev shahri 3 noyabr 1923 yil imzo chekuvchilar: Bir tomondan «Ukraina davlat vositachi» savdo tashkiloti Kiev viloyati o'ng qirg'oq idorasi (qisqacha «Ukrdav vositachi» deb nomlanadi) nomidan boshqaruvchi Marshlis Z.I. va ikkinchi tomondan XXSRsining Moskva savdo vakolatxonasi (qisqacha «Xorazmsavdo»), Vakolatxonaning janubiy-sharqiy savdo idorasi bo'limi mudiri R.D. Kurgan nomidan (XXSRining Muxtor vakolatxonasi tomonidan berilgan 13.09.1923 y. 517-sonli ishonch qog'ozi asosida) quyidagi shartnomani imzolashdi:

- 1) «Xorazmsavdo» 1923 yilda yetishtirilgan rej hosilidan
- 2) 100 ming pudni «Ukrainadavlatvosita»dan sotib oldi.
- 3) ...Mazkur yilning 20-noyabridan qoldirmasdan «Ukrdavvosita» 40 vagon rejni «Xorazmsavdo» ko'rsatgan manzilga yetkazib berish majburiyatini oladi.

- 4) «Xorazmsavdo» «Ukrainadavvosita»ga 2 mln. 900 chervones miqdorida Serpuxovo trestining manufakturalarini yetkazib beradi»².

Ammo, 1923 yilgacha Xorazm tashqi eksportining asosiy qismini xom-ashyo, aniqrog'i paxta tolasi tashkil qilardi. Bu holat Xorazm hukumatini qanoatlantirmas edi. Chet davlatlarga Xorazmning tayyor mahsulotlarini savdoga chiqarish maqsadida yangi eksport siyosati ishlab chiqildi. Buning uchun Xorazmda ishlab chiqarilayotgan mahalliy hunarmandchilik va sanoat mahsulotlarini reklama qilish zarur

¹ Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 55-иш, Ўша жойда. в. 23.

² Ўша жойда. 18-иш, в. 39.

edi. Xorazmsavdo vakillari Moskvada, Bokuda, Nijniy-Novgorodda faol qatnasha boshladi. Birinchi marta Xorazm vakillari 1922 yil iyul-avgust oyida Nijniy Novgorod shahrida o'tkazilayotgan Markaziy yarmarka ishida qatnashish uchun maxsus vakillar guruhi yuborildi. Xorazm delegatsiyasi quyidagi tartibda tayinlandi:

1. Polvonniyoz Hoji Yusupov – rais.
2. Abdullaboy Husan o'g'li – rais muovini, xo'jalik mudiri.
3. Mengliboy Ollabergan o'g'li – sarkotib.
4. Xalil Turg'unlov – tarjimon.
5. Abdulla Shixboyev – a'zo.
6. Muxammadyoqub Ashur o'g'li – a'zo.
7. Otaboy Yusupov – komendant.
8. Rahmatulla Erniyoz o'g'li – soqchi¹.

Mazkur delegatsiya 1922 yil iyul boshlarida safarga chiqib, 22 avgust kuni Nijniy Novgorod shahriga yetib kelishdi. Bu yerda RSFSRning trestlari, firmalari, Boltiqbo'yi respublikalari, Finlyandiya, Zakavakaze, Turkiya, Buxoro va boshqa ko'plab mamlakatlardan vakillar kelishgan edi. Xorazm vakillari mazkur yarmarkada 7 000 dona qorako'l teri, 1 000 dona tulki terisi, 1 000 donadan ko'proq gilamlar va tayyor hunarmandchilik mahsulotlari, jami 500 ming so'mlik (yangi pulda) mol sotishga erishdilar. 1923 yilda esa mazkur yarmarkada deyarli ikki baravar ko'p, 920 ming so'mlik mahsulot sotishga muvaffaq bo'lindi.

SSSR va XXSR o'rtasida oshib borayotgan savdo aloqalarini hisobga olib, Xorazm bilan bundan keyin ham savdo aloqalaridan manfaatdor bo'lgan Rossiya vakillari Xorazmni yarmarkalarda doimiy qatnashtirish choralari ko'ra boshladi. Hatto «...SSSRning Sharq mamlakatlari bilan savdosida Buxoro va Xorazm muhim o'rin tutishini Nijniy Novgorod shahri yarmarkasida SSSR xo'jalik tashkilotlari va Buxoro, Xorazm savdogarlarining o'zaro manfaatli savdo aloqalarini hisobga olib Rossiyaning Sharq savdo palatasi Nijniy Novgorod shahri yarmarkasida maxsus, o'zbek tilida «Byulleten» chiqarishga qaror qildi»².

¹ Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч, 2000. 405-б.

² ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 140-иш, 7-8 в.

Bu esa Xorazmning tashqi savdo faoliyatini yanada oshirishga turtki bo'ldi. Aytish mumkinki Rossiya hududida o'zbek tilida savdo ma'lumotnomasi (byulleten)ning nashr qilinishi katta voqea bo'ldi. Xorazm vakillari SSSR hududidagi boshqa doimiy yarmarkalarda ham faol ishtirok eta boshladilar.

1923 yil 26 avgust kuni Moskvada xalq iste'mol mollarining ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Yarmarkada hunarmandchilik mahsulotlari bilan Xorazm vakillari ham ishtirok etdi. Xorazmning maxsus delegatsiyasi Xojiboy Madaminov rahbarlik qilgan. Shuningdek, mazkur delegatsiyada Xudoybergan Devonov ham ishtirok etgan. O'zbek kinonining asoschisi hisoblangan Xudoybergan Devonov bir vaqtning o'zida Moskva, Petrograd va Boltiqbo'yi shaharlarida safarda bo'lib, Xorazm kinoteatrlari va madaniy uylari uchun kino va foto apparatlar, asbob-uskunalar olib kelib, o'zbek madaniyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. 1924 yil yanvarida Petrograddan Xorazmga qishloq xo'jalik asboblari bilan «Gaz», «Kok» markali har biri 50, 45 chervones qiymatidagi kino apparatlarni olib keldi¹.

Moskva yarmarkasida Xorazm tayyor hunarmandchilik mahsulotlari, ya'ni gilamlar, g'ildiraklar, metall va chinni buyumlar, tayyor ipak kiyimlari bilan ishtirok qiladi².

SSSR va G'arbiy Yevropa mamlakatlari savdo-tijorat vakillarida Xorazmning tayyor mahsulotlari katta qiziqish uyg'otdi. Hatto Finlyandiya, Estoniya, Litva, Latviya mamlakatlari Xorazm mahsulotlarini sotib olish to'g'risida shu yerning o'zida shartnomalar tuzishdi. Bunday muvaffaqiyat Xorazm hukumat tashqi savdo siyosati olib boshlashga jiddiy o'zgarishlar kiritishini talab qila boshladi. Xorazm asta-sekin faqat xom-ashyo sotuvchi mamlakatdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va sotuvchi mamlakat sifatida tanila boshladi. Vujudga kelgan yangi talab va ehtiyojlarni maxsus o'rganish, shuningdek, bu boradagi faoliyatni tartibga solish maqsadida Xorazm respublikasining iqtisodiy Kengashi chaqirildi. Unda tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil qilish masalasi ko'rildi. Savdo-sanoat noziri Tursunxo'jaevning taklifi bilan quyidagi qaror qabul qilindi: «SSSR va chet davlatlarning bozorlarida hunarmandchilik sanoat

¹ ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 17-иш, 10 в.

² Ўша жойда. 73-жамғарма, 1-рўйхат, 80-иш, 3-4 в.

mahsulotlarni sotishni yo'lga qo'yish, bunda asosiy e'tibor gilam va ipak kiyimlari ishlab chiqarishga qaratish maqsadga muvofiqdir»¹. Xorazm respublikasi o'z savdo aloqalarini yanada kengaytirib, janubiy mamlakatlar, Sharq mamlakatlari bilan savdo munosabatlarini o'rnatishga intildi.

1924 yil 20 maydan - 20 iyulgacha Boku shahridagi o'tkazilgan yarmarkada Eron, Turkiya, Afg'oniston, Kaspiybo'yi mamlakatlari, Mo'g'uliston, Buxoro kabi davlatlar bilan Xorazm vakillari ham faol ishtirok etishdi. Bunda ham Xorazm qishloq xo'jalik mahsulotlari qatori, hunarmandchilik mollari, gilamlar, jun, qorako'l va boshqa tayyor mahsulotlar bilan keng ishtirok etdi².

Xorazm hukumati xalq xo'jaligini yuksaltirish uchun nafaqat savdo yo'llarini yaxshilash, sug'orish tarmoqlarini takomillashtirish, balki zamonaviy agro-texnika usullarini joriy qilish, qishloq xo'jalik mashina va asbob-uskunalarini sotib olish muhimligini yaxshi tushundirdi. Shu maqsadda Xorazm hukumati Turkistonning «Turktraktor» jamiyati bilan 1924 yil sentabr oyida shartnoma imzoladi. Bunga muvofiq «Turktraktor» jamiyati XXSRda qishloq xo'jalik mashinalari va asboblari omborxonasini zahira mollar bilan ta'minlash majburiyatini oldi. Xorazm dehqonlarini qishloq xo'jalik inventarlari bilan ta'minlash maqsadida «Qishloq xo'jalik banki» Toshkent shahrida 30 ming so'mga uzoq muddatli kredit ajratdi³. Bularning natijasi o'laroq 1924 yil kuzida Xorazm uchun 4 ta traktor yetkazib berildi⁴.

Shuningdek, XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi Xorazm xo'jaligini tiklash va rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalar izlay boshladi. 1923 yil iyul oyida: «Xorazm xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish, SSSR va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan to'g'ri savdo aloqalarini o'rnatishga yordam berish maqsadida «Xorazm savdo-sanoat aksionerlik jamiyati» ta'sis qilinib, uning kapital mablag'lari quyidagicha taqsimlandi:

¹ ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 17-иш, 4-иш, 54 в.

² Ўша жойда. 177-иш, 8 в.

³ Народное хозяйство Средней Азии. 1924. № 2-3. С. 214.

⁴ Ўша жойда.

1. Asosiy kapital 1 mln. so‘m oltin miqdorida belgilansin va aksiyalarga taqsimlansin;
2. Barcha aksiyalar quyidagicha taqsim qilinsin:
 - 51 % aksiya miqdori – savdo vakolatxonasi va boshqa Xiva davlat muassasalariga;
 - 39 % Rossiya davlat muassasalariga;
 - 10 % Xorazm xususiy kapitaliga»¹.

Mazkur savdo-sanoat aksiyadorlik jamiyatining tashkil qilinishi Xorazmning SSSR va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi. Masalan, Ukrainaning «Texta’mi not» firmasi «Xorazm savdo-sanoat aksiyadorlik jamiyati»ning moliyaviy vositachiligida 1924 yil 20 yanvar kuni 4 vagon oliy navli Xorazm paxta tolasini sotib oldi².

Shuningdek, mazkur jamiyat bevosita Xorazmdagi ishlab chiqarish potensialini qayta tiklash uchun ham mablag‘lar ajrata boshladi. Asosiy maqsad Xorazmda paxtani qayta ishlovchi, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yoki yangilarini qurish, XXSRning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish edi.

Xorazm hukumati va Moskva savdo vakolatxonasi hamkorlikda mamlakatda gazlama ishlab chiqaruvchi fabrikalar qurish maqsadida Rossiya korxonalari bilan muzokaralar olib bora boshladilar. Natijada XXSRning Moskva savdo vakolatxonasi Xorazmda to‘qimachilik fabrikasi qurishni ta‘minlash maqsadida Rossiya to‘qimachilik sanoatiga xizmat ko‘rsatuvchi davlat-kardon sanoat boshqaruvi va korxonalarining davlat birlashmasi bilan 1923 yil dekabrda Moskvada shartnoma imzoladi³. Shartnomaga ko‘ra: «Fabrika 4 yoki 5 ta zamonaviy texnikadan tashkil topdi. Fabrikaning mehnat unumdorligi 8 soat davomida 8 pud paxtani qayta ishlaydigan bo‘ldi»⁴.

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 99 в.

² Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 3-иш, 43 в.

³ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 107-иш, 4-5 в.

⁴ Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 3-иш, 4-5 в.

Natijada 1924 yil boshida Xorazmda birinchi ip yigirish fabrikasi qurilib, ishga tushirildi. Xorazmning Moskva savdo vakolatxonasi bu bilan chegaralanmay, Rossiyaning oʻzida ham zarar bilan ishlayotgan korxonalarni, fabrikalarni ijaraga olib bevosita ishlab chiqarish bilan shugʻullana boshladi. Shu maqsadda 1924 yil 23 aprelda Xorazm hukumat «Qizil oktabr» toʻqimachilik fabrikasi bilan korxonani ijaraga olish toʻgʻrisida shartnoma imzolandi. Fabrikadagi 127 dastgoh, asbob-uskunalar birgalikda boshqarish uchun aralash mulk shakliga oʻtkaziladi. Shartnomaga muvofiq: «Oʻzaro munosabatlar quyidagi tartibda amalga oshirilgan:

Xorazm hukumatining asosiy hissasi 5000 pud paxta, fabrika maʼmuriyati esa 30 000 soʻm, uning 15 000 soʻmi texnika sotib olish va mavjudlarini remont qilishga, 15 000 soʻmini naqd pul mablagʻ shaklida ishlab chiqarishga sarf qilinadi.

Foyda quyidagicha taqsimlanadi: fabrika 30 %ini, Xorazm hukumati esa sof foydaning 70 %ini oladi. Asosan, sharqona gazlamalar ishlab chiqaramiz, chunki bu mahsulotga Oʻrta Osiyo, Kavkazorti va boshqa mamlakatlarda talab juda kattadir»¹.

Bundan koʻrinadiki, XXSR rahbariyati nafaqat anʼanaviy hunarmandchilik mahsulotlarini, balki zamonaviy korxonalar qurish yoʻli bilan Xorazmda toʻqimachilik yengil sanoati tarmogʻini shakllantirish siyosatini ham olib borgan. Qoʻshimcha ravishda ishga kapital chiqarish, yaʼni Rossiyada sanoat korxonalarini ijaraga olish yoʻli bilan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi fabrikalarning ishlashini taʼminlash choralarini koʻradi.

Bunday katta xajmdagi iqtisodiy loyihalarni, ulardan koʻzlangan maqsadlarni amalga oshirish qoʻshimcha mablagʻlar jalb qilishni talab qilardi.

Ekport-import operatsiyalarni amalga oshirish, Xorazmning ishlab chiqarish potensialini rivojlantirishga qoʻshimcha kreditlarga ehtiyojlarni keltirib chiqardi. XXSR 1922 yil 1 avgustda RSFSRdan zarur kreditni olish maqsadida moliyaviy shartnomani imzoladi. Shartnomani RSFSR tomonidan moliya xalq komissari oʻrinbosari M. Vladimirov, XXSR tomonidan XXSRning RSFSRdagi muxtor

¹ Ўша жойда. 148 в.

Vakolatxonasining ish boshqaruvchisi Muzaffarov Yusuf Hasanovich imzoladilar¹. Shartnomada, jumladan, shunday deyiladi:

«1. RSFSR moliya xalq komissarligi XXSRga yillik 6 % ustama bilan 6 oy muddatga 1 mln. so‘m (1922 yil yangi pul qiymatida) ssuda beradi.

2. XXSR hukumati mazkur summani foyda ustamalari bilan imzo chekilgan kundan boshlab 6 oy ichida 490 dona oliy sifatli qorako‘l yetkazib berish yo‘li bilan qoplash majburiyatini oladi»².

Xiva xonligida Birinchi jahon urushi arafasida kelib 36 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta teri tozalash, 2 ta yog‘ ishlab chiqaruvchi, 11 ta g‘isht ishlab chiqaruvchi zavodlar faoliyat yuritardi. Ammo Rossiya ro‘y bergan chuqur siyosiy-iqtisodiy inqiroz natijasida mazkur korxonalar deyarli to‘xtab qolgan. Buning asosiy sababi yoqilg‘i va mablag‘ yetishmasligi edi. Xorazm hukumati milliy sanoatni tiklash, ishga tushirish va yangilarini qurish maqsadida katta pul mablag‘ini – salkam 1 mln. so‘m pul ajratdi. Bundan tashqari, RSFSR hukumati paxta tozalash va yog‘ ishlab chiqarish zavodlarini ishga tushurish uchun 575 006 so‘m miqdorida ssuda ajratdi³.

Bunday harakatlar natijasida 1924 yil boshlariga kelib 6 ta paxta tozalash, 1 ta yog‘, 4 ta teri tozalash va 10 dan ortiq g‘isht zavodlari qayta tiklandi, Xiva tipografiyasi, elektrostansiya ishga tushirildi, shuningdek, qog‘oz fabrikasi va oyna ishlab chiqaruvchi zavod ishga tushirildi⁴.

Xorazmda savdo-sotiqni yanada rivojlantirishga yordam bergan muhim voqea matbuot kooperatsiyasining tashkil qilinishi bo‘ldi. XXSRda matbuot kooperatsiyasini yanada mustahkamlash bilan bog‘liq faoliyat aholini zarur va arzon oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari bilan ta‘minlashda

¹ Ўз МДА. 73-жамғарма, 1-рўйхат, 4-иш, 17 в.

² Ўша жойда.

³ Народное хозяйство Средней Азии. 1924. № 1. – С.57.

⁴ Иноятов Х.Ш. Народы Средней Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюции. – М., 1984. – С. 357.

katta rol o'ynadi. Xorazm kooperatsiyasining a'zolari 1100 kishi bo'lib, 70 ming so'm kapitalga ega edi¹.

1923 yilning yozida yuqoridagi iqtisodiy muammolarni, shuningdek, SSSR bilan munosabatlardagi barcha masalalarni hal qilish maqsadida Moskvaga XXSRning rasmiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. Delegatsiya quyidagi tarkibda edi:

1. Safaev Karimbergan – XXSR MIKining raisi, delegatsiya rahbari.

2. Qalandar Avdinaev – XKP MKning ma'sul kotibi.

3. Mamedov Atomulla – XXSR MIK raisining o'rinbosari.

4. Sa'dullaev Karimbergan – XXSR Moliya noziri.

5. Ishmuhamedov Qutlimurat – XKP Markaziy nazorat hay'atining muxtor vakili.

6. Irmanov Koraboy – o'quvchi-talabalar vakili².

«Mazkur vakolatli missiya, - deyiladi berilgan mandatda, - SSSR hukumati bilan, shuningdek, ayrim tashkilotlar, organlar, muassasalar va xususiy shaxslar bilan har qanday shartnoma, bitimlar imzolash huquqiga ega»³. XXSRning delegatsiyasi sovet davlati rahbarlari, moliya xalq komissarligi, turli firma va trestlarning vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazib, bir qancha foydali shartnomalarni imzoladilar.

Xorazm xalq xo'jaligini, sanoat korxonalarini tiklash, tashqi bozorga tayyor mahsulotlarni eksport qilish, Xorazm mollarini realizatsiya qilish geografiyasining kengayib borishi davlat byudjetiga kelib tushayotgan daromadni yanada ko'paytirishiga olib keldi.

Agar 1920 yilda import bor yo'g'i 18 ming pudni tashkil qilgan bo'lsa, 1924 yilga kelib 83,5 ming pudga yetgan, ya'ni 5 barobar o'sgan. 1922 yilda eksport (paxta tolasiz) 43 ming pudni tashkil qilgan bo'lsa, 1924 yilda esa 159,5 ming pudni (paxtasiz) tashkil qildi. Natijada, 1922–1923 byudjet yilida davlat xazinasi tashqi va ichki savdodan 152 mln. 730 ming 904 so'm Xorazm pul birligida daromad

¹ Мамажонов М. Социально-экономические преобразования и развитие экономики в Хорезмской Народной Советской Республике. – М., 1979. – С. 56.

² ЎзР МДА.70-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 3 в.

³ ЎзР МДА.70-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 3 в.

kelib tushgan bo'lsa, 1923–1924 byudjet yilida esa 200 mln. so'm foyda kelib tushgan, foydaning yillik o'sishi 25 % ni tashkil etgan.

Xorazmdan kelayotgan mahsulotlar evaziga, 1924 yili SSSRdan Xorazmga 2 vagon qand, 1 mln. 715 ming so'mlik manufaktura mahsulotlari, 300 yashik kalish, 9620 so'mlik uy-ro'zg'or buyumlari, 5500 so'mlik parfyumerlar, 18 ming so'mlik xo'jalik uskunalari jo'natildi. 1924 yil noyabriga kelib esa, 1 mln. 800 ming so'mlik mahsulot, jumladan, 25 ming pud un, 12 ming pud qand, 4 ming pud choy, 25 ming dona ketmon va belkurak, 5 ming bosh qoramol yetkazib berildi¹.

Turkistondagi respublikalar, ya'ni BXSR, XXSR va Turkiston Muxtor Respublikalarining iqtisodiy hayotini nazoratda ushlab turish, tashqi savdosini o'z manfaatlariga bo'ysundirish maqsadida RKP(b) MK siyosiy byurosi uchta respublikani iqtisodiy jihatdan birlashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

1922 yil noyabrida Toshkent shahrida Buxoro, Xorazm va Turkiston vakillarining ishtirokida iqtisodiy yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Turkiston Respublikasi, BXSR, XXSR iqtisodiy birlashmasi, ya'ni O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilindi. Iqtisodiy Kengashning asosiy maqsadi respublikalarning xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtirib berishdan iborat deb kelishib olindi. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (O'OIK) Moskvada O'rta Osiyo Respublikalarining Iqtisodiy Vakolatxonasini tashkil qildi. Vakolatxonani ta'sis qilishdan asosiy maqsad O'rta Osiyo Respublikalarining SSSR, RSFSR oliy organlari bilan uzluksiz aloqalarni o'rnatish, shuningdek, respublikalarning Markazda xo'jalik manfaatlarini himoya qilish»², deb belgilandi.

Shunday qilib, O'OIK Respublikalarning moliyaviy-iqtisodiy, savdo faoliyati ustidan qattiq nazorat o'rnatib, butun boshqaruvni o'z qo'lida to'plab oldi. Doimiy boshqaruv O'OIK Hay'ati tomonidan amalga oshirildi. Shunisi qiziqarliki, Iqtisodiy Kengash Hay'atiga biron-ta ham mahalliy millat vakillari kiritilmadi. Ammo, Kengash yig'ilishlarida doimiy ravishda O'rta Osiyo respublikalarining iqtiso-

¹ Непесов Г. История хорезмской революции... С. 186.

² ЎзР МДА. 7-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 22 в.

diy hayotiga oid muammolar, shuningdek, eksport, import masalalari ko'rib borildi. Masalan, 1924 yil 22 mayda O'OIK hay'ati yig'ilishida XXSR savdo va sanoat noziri Tursunxo'jaev ishtirokida maxsus masala Xorazmning eksport va import imkoniyatlari keng muhokama qilindi¹. Yig'ilishda Xorazmdan olib chiqilayotgan xomashyo, qorako'l va boshqa mahsulotlar evaziga «Turksavdo» savdo tashkilotiga 1924 yil iyun oyigacha 100 ming so'mlik mahsulot, jumladan, 21 500 so'mga 2 vagon qand, 13 793 so'mga 533 to'plam gazlamalar, 9 620 so'mga buyumlar, 4 800 so'mga 300 yashik kalish, 5 500 so'mga parfyumera, 6 300 so'm mix, chelaklar, 1 000 so'mga suv isitkichlar, 200 so'mga boshqa mahsulotlar, 1800 so'mga klenkalar, shuningdek, oyoq kiyimlar jo'natishga qaror qilindi². Barcha mahsulotlar kelishilgan muddatda Xorazmga yetkazib berildi. Xorazm bilan savdo aloqasi asosan suv yo'llari, Amudaryo va Orol dengizi orqali olib borilgan. Qish mavsumi boshlanishi bilan muzlash oqibatida mazkur yo'llardan foydalanish imkoni umuman mumkin bo'lmay qoladi. Shuni hisobga olib O'OIK hay'atining 1924 yil 22 sentabr kuni o'tkazilgan yig'ilishida bahorda yo'llar qayta ochilgunga qadar Xorazmni yetarli mollar bilan ta'minlash masalasi ko'tarib chiqildi. 1924 yil oktabr, noyabr oylari davomida Xorazmga 5 oyga yetadigan miqdorda mollar, jumladan, 25 000 pud un, 12 000 pud qand, 4 000 pud choy, 20 vagon gazlamalar, 3 vagon chinni buyumlari, 1 000 pudcha teri mahsulotlari, 25 000 juft kalish, 30 000 so'mga qishloq xo'jalik mashinalari, 5 000 so'mga lampalar (kerosinli chiroq uchun), 5 000 pud ketmon va belkurak uchun metallar, jami 1 million 800 ming so'mlik mahsulot yetkazib berildi³.

Xorazm tashqi dunyo bilan asosan suv yo'li bilan aloqa olib borganligini aytib o'tilgan edi. Ammo mazkur yo'l O'rta Osiyoning boshqa xududlari bilan olib borilayotgan aloqalarni izchil ta'minlashda ishonchsiz edi. SSSR va Buxoro bilan pochta-yo'lovchilar tashish aloqasini yanada rivojlantirish maqsadida

¹ Народное хозяйство Средней Азии. 1924. № 2-3. – С. 213.

² Народное хозяйство Средней Азии. 1924. № 2-3. Ўша жойда. – С. 233.

³ Народное хозяйство Средней Азии. 1924. № 2-3. – С. 224.

XXSRning Moskvadagi muxtor vakili Rossiya ko'ngilli havo floti jamiyati boshqaruvi bilan Toshkent - Xiva yo'nalishi bo'yicha (Buxoro orqali) samolyotlar qatnovini tashkil qilish to'g'risida kelishuv imzoladi¹. Kelishuvga muvofiq «Ko'ngilli flot» o'zaro bitim imzolanganidan keyin 10 kunlik muddatda Xivaga 2 ta samolyot jo'natadi². Natijada 1924 yilning boshlarida Toshkent - Xiva yo'nalishi bo'ylab doimiy samolyot qatnovi yo'lga qo'yiladi³. Bu esa Xorazmning tashqi mamlakatlar bilan aloqalarini yanada tezlashtirish va rivojlantirish, dunyoga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoit yaratdi.

Shunday qilib, XXSR qisqa muddatda turli tarixiy, iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra o'zining asosiy savdo sherigiga aylangan RSFSR, keyinchalik SSSR bilan izchil tashqi-savdo aloqalarni olib bordi. Bunda Xorazmning hududiy-geografik joylashuvi asosiy omil bo'ldi. Chunki XXSR har tomondan asosan RSFSR (SSSR) bilan o'rab olingan bo'lib, faqat Rossiya bilan hamkorlik qilishga majbur qilingan edi. Xorazm xalq xo'jaligi «sun'iy» ravishda Rossiya iqtisodiyotiga bog'lab qo'yilgan edi. Shunga qaramasdan, Xorazm hukumatining Moskvadagi muxtor vakolatxonasi, savdo vakolatxonasi rahbarlarining millatparvarlik faoliyati oqibati o'laroq Xorazm Rossiya-ga nafaqat xom-ashyo yetkazib berdi, balki tayyor mahsulotlarni eksport qila boshladi. Hatto Rossiya sanoatiga kapital olib kirish bilan shug'ullandi. Ammo 1924–1925 yillar davomida O'rta Osiyoda o'tkazilgan, yagona Turkistonni bo'lib tashlashga qaratilgan milliy hududiy chegaralanishi natijasida XXSR rasman tugatilishi, oqibatda Xorazm respublikasi O'zSSR tarkibida viloyat maqomidagi hududga aylantirildi. Tashqi-savdo aloqalari esa O'zbekistonning tashqi-savdo aloqalari tarkibida amalga oshirila boshlandi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi bilan savdo-sotiq aloqalari

1920 yil 2 sentyabrda qizil armiya va Buxoro inqilobiy kuchlarining birlashgan qo'shinining hujumi natijasida Buxoro amirligi ag'darib tashlandi. 1920 yil 8 oktyabrda amirning yozgi saroyi – Sito-

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 6 в.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда. 65-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 66 в.

rai moxi xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I Qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi – BXSR tuzilganligi eʼlon qilindi¹.

Maʼlumki, XXSR 1920 yil aprelida tashkil qilingan edi. Xiva xonligi va Buxoro amirligi davrida ikki mamlakat oʻrtasidagi savdo-diplomatik munosabatlari yaxshi yoʻlga qoʻyilgan edi. Ammo 1920 yil 2 fevralida amalga oshirilgan davlat toʻntarishi natijasida Xiva xonligi agʻdarib tashlangach, Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi oʻrniga tuzilgan, Xorazm jadidlari boshchilik qilayotgan XXSR hukumati oʻrtasidagi barcha munosabatlar toʻxtab qolgan edi. Chunki «Buxoro ham Xorazmda «inqilob» boʻlganidan soʻng bizlarga kor etib hech mol bermay, munosabatni butunlay kesdi»².

Chunki Buxoro amirligi hukumati, mamlakatda milliy demokratik oʻzgarishlar uchun kurashayotgan yosh buxoroliklar bilan dushmanlik munosabatida edi. «Yosh xivaliklar» va yosh buxoroliklarning siyosiy maqsad, vazifalari bir-biriga juda yaqin edi. Shuning uchun ham Buxoro amirligi va XXSR oʻrtasida savdo-diplomatik munosabatlari umuman oʻrnatilmadi. Eʼtirof qilish kerakki, bu borada RSFSRning Buxoro amirligiga nisbatan oʻta dushmanlik siyosati ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Chunki XXSR tashkil topgan dastlabki vaqtlarda yoq bolsheviklar Xorazm hukumatining tashqi siyosatini oʻz nazoratiga olishga harakat qilgan edi. Ammo, Buxoro amirligining tugatilishi va BXSRning tashkil topishi, hokimiyat tepasiga Fayzulla Xoʻjaev rahbarligidagi Buxoro jadidlaridan iborat hukumatning kelishi vaziyatni keskin oʻzgartirdi. Milliy davlatchilik qurishga intilayotgan bu ikki mamlakat oʻrtasida yaqin qoʻshnichilik munosabatlari oʻrnatilib, savdo-diplomatik munosabatlari oʻrnatishga keng imkoniyat yaratildi.

Maʼlumki, Boboovun Salimov boshchiligidagi XXSR muxtor hayʼati RSFSR hukumati bilan keng qamrovli shartnoma tuzish uchun 1920 yil avgust-sentabr oylarida Moskvada safarda boʻlgan edilar.

¹ Ўзбекистон давлатчилиги очерклари. – Т., 2000. 193-б.

² Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... 245-б.

Xuddi shu davrda Buxoroda hokimiyat ommalashib, buxorolik milliy-demokratlar BXSРni tashkil qilgan edilar. XXSRning rasmiy vakillari Rossiya bilan imzolangan shartnomalardan keyin Toshkent, Buxoro orqali Xorazmga qaytayotgan vaqtda 1920 yil oktabr oyining boshlarida BXSРning hukumat rahbarlari bilan birinchi rasmiy uchrashuvi boʻlib oʻtdi. Xorazm muxtor hayʼatining Kogon temir yoʻl bekati kelib tushganini eshitgan «Buxoroning Muvaqqat raisi, jumhuriyat xorijiya noziri Fayzulla Xoʻjaev tarafidan kishilar kelib, bizlarni faytunlarga mindirib, Buxoro shahridagi Xorijiya noziriga olib bordilar. Unda borib, birodar Fayzullo Xoʻjaevni koʻrib, Buxoro inqilobini tabrik qildik», - deb aytadi XXSR adliya noziri, muxtor hayʼat boshligʻi Boboovun Salimov oʻz esdaliklarida¹.

Fayzulla Xoʻjaevning iltimosi bilan Xorazm delegatsiyasi 1920 yil 6-8 oktabr kunlari Buxoroda oʻtkazilgan Buxoro Xalq vakillarining I qurultoyida ishtirok etdilar².

XXSR nozirlar kengashi raisi Polvonniyoz Hoji Yusupov Buxoro nozirlar kengashi raisi Fayzulla Xoʻjaevning mustaqil davlat tuzilganligi va qurultoy ishi yakunlariga muvaffaqiyat tilab yoʻllagan tabrik shoshilinchnomasi Boboovun Salimov tomonidan Fayzulla Xoʻjaevga topshirildi³. Shunday qilib, ikki mustaqil davlat oʻrtasida dastlabki diplomatik aloqalar oʻrnatildi. Bu davrda Xorazmga eng yaqin temir yoʻl bekati Chorjuyda, yaʼni Buxoroda joylashgan edi. Chorjuy (400 km dan ortiq) bilan 2 ta yoʻl – 1. Amudaryo orqali – suv yoʻli; 2. Qizilqum orqali – tuproq yoʻli bilan bogʻlanish mumkin edi.

Umuman, Xorazmning tashqi savdo munosabatlarida Chorjuy shahrining oʻrni juda katta edi. Garchi, Buxoro XSР bilan XXSR oʻrtasidagi rasmiy aloqalar 1920 yildayoq boshlangan boʻlsa-da, RSFSР bilan XXSR oʻrtasida 1920 yil 13 sentyabrda imzolangan iqtisodiy shartnoma ikki davlat oʻrtasidagi keng koʻlamli savdo-diplomatik aloqalarga xalaqit berardi. Faqat 1922 yil iyun oyiga kelib

¹ Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи... 305-б.

² Ўша жойда. 306-б.

³ Ўша жойда.

XXSR va BXSР o'rtasida iqtisodiy shartnoma imzolandi¹. RSFSR va XXSR o'rtasidagi tuzilgan 1922 yil 29 iyundagi yangi iqtisodiy shartnomaga muvofiq, Xorazm respublikasi Rossiyadan boshqa mamlakatlarda faqat RSFSRning roziligi bilan konsullik yoki savdo vakolatxonalari ochish mumkin edi.

BXSР va XXSR o'rtasidagi o'zaro kelishuvga muvofiq XXSRning BXSРdagi konsulxonasi 1922 yil iyul oyida Chorjuy shahrida ochildi². Konsulxona qoshida Xorazm tashqi savdo nozirligining Buxorodagi maxsus savdo vakili (ikki kishidan iborat) tayinlandi³.

Ikki mamlakat o'rtasida savdo-sotiq aloqalarining kuchayib borishi natijasida Chorjuy shahridagi Xorazm savdo vakilining apparati kengaytirilib, huquqlari yanada oshirildi va XXSRini BXSРdagi Muxtor savdo vakolatxonasiga aylantirildi⁴.

Shuni ta'kidlash kerakki Chorjuy nafaqat Buxoro bilan savdo aloqalariga balki Turkiston va boshqa sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini olib borishda asosiy bog'lovchi bekat, chorraha vazifasini bajardi.

BXSРdagi XXSR savdo vakolatxonasining boshlig'i X. Tregulovning bergan hisobotiga ko'ra, Chorjuy orqali quyidagi mahsulotlar chet ellarga eksport qilingan:

- paxta va paxta tolasi, barcha navlarida;
- qorako'l;
- kishkalar;
- movut (tuya, qo'y junlaridan);
- qo'y, echkilar;
- Farg'ona va Buxoro ipak matolari;
- gilamlar, paloslar;
- tulki terisi;
- o'simlik bo'yog'i;
- cho'pon uchun matolar;

¹ ЎзР МДА. 73-жамғарма, 1-рўйхат, 6-иш, 13 в.

² ЎзР МДА. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 43-иш, 142 в.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда. 65-жамғарма, 1-рўйхат, 4-иш, 14 в.; 5-иш, 36 в.

- urug‘lar va beda mahsuloti¹.

Shu yerning o‘zida Xorazm aholisi uchun zarur mahsulotlar, ya’ni import tovarlari haqida ma’lumot beriladi. Bular:

1) manufakturalar, osiyocha surat va gullar bilan ishlangan mishkanl (parcha qog‘oz) gazlamalar;

2) har xil yo‘g‘onlikdagi arqonlar;

3) choy uchun idishlar, osiyocha piyolalar, choynaklar

4) qand va shakar;

5) chet el bo‘yoqlari, ipak va qog‘oz gazlamalari - bo‘yash uchun;

6) temir va temir buyumlari, mixlar;

7) papiroslar (bunda ularning mayinligi va mahalliy xususiyatlarini hisobga olmoq kerak);

8) deraza oynalari;

9) har xil kattalikdagi qozonlar;

10) gugurtlar;

11) uy-ro‘zg‘or buyumlari, kir yuvish vositalari;

12) ipak va movutlardan tayyorlangan osiyocha fabrika ko‘ylaklari;

13) gorekali va oynali lampalar, ularga ishlatiladigan 5, 7, 10 chiziqli yonuvchi lentalar;

14) yoqilg‘i materiallari (neft, kerosin, mazut va surtiladigan moylar)².

Bundan xulosa chiqadiki, Chorjuy savdo vakolatxonasi nafaqat Buxoro bilan savdo aloqalari, balki Sharq va G‘arb bozorlari bilan asosiy bog‘lovchi bekat, vositachi rolini bajargan. 1923 yil yozida Buxoro XSR savdo nozirligi Chorjuy savdo vakolatxonasiga savdo shartnomasini tuzish to‘g‘risida taklif kiritadi³. Taklifda Buxoro, Xorazmdan turli xil tovarlar, ya’ni movut mahsulotlari, hunarmandchilik, mahalliy sanoat mahsulotlarini sotib olishdan manfaatdor ekanligini qayd etib o‘tadi⁴. Natijada ikki davlat o‘rtasida o‘zaro tovar ayirboshlash to‘g‘risida 1923 yil avgust oyida navbatdagi shartnoma

¹ Ўша жойда. 65-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 36 в.

² ЎзР МДА. 65-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 36 в.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда.

imzolandi. Shartnoma bo'yicha o'zaro savdo qiymati jami 2 mln. so'mni (Xorazm pulida) tashkil qilgan¹.

XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasining 1924 yil 15 yanvar № 179 ko'rsatmasida Chorjuy «...savdo vakolatxonasining asosiy vazifasi Xorazm respublikasi eksport va import imkoniyatlarini yanada rivojlantirish»dan² iborat ekanligi alohida qayd qilingan.

Shuni ta'kidlash kerakki, BXSР va XXSR iqtisodiy munosabatlarida ikki tomonlama aloqalar sust bo'lishiga, avvalo, Moskva tomonidan mustaqil respublikalarning ichki va tashqi ishlariga ochiqdan-ochiq aralashuvi sabab bo'ldi. 1923 yil mart oyida Toshkent shahrida Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarni iqtisodiy jihatdan birlashtirish uchun iqtisodiy konferensiya chaqirilgan edi³. Konferensiya respublikalarni iqtisodiy jihatdan birlashtirish, ularning iqtisodiy, jumladan, tashqi savdo aloqalarini boshqarish, muvofiqlashtirib turish maqsadida doimiy ishlovchi organ O'rta Osiyo respublikalarining iqtisodiy kengashi tashkil qilindi. Moskvada mazkur kengashning iqtisodiy vakolatxonasi ochildi⁴.

Bunday tadbirlar natijasida ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalarini O'rta Osiyo Iqtisodiy kengash tomonidan amalga oshirish boshlandi. Masalan, mazkur Vakolatxona, Rossiya Ko'ngilli havo floti jamiyati boshqaruvi bilan 1923 yil 31 oktabr kuni imzolangan kelishuvga binoan «jamiyat» 1924 yil 1 apreldan boshlab Buxoro-Xiva yo'nalishi bo'ylab doimiy pochta-yo'lovchi tashishga mo'ljallangan samolyot qatnovini yo'lga qo'yish majburiyatini oladi⁵.

Buxoro XSRning yordamida XXSR Shovot kanali, Amudaryo orqali Chorjuyga qatnaydigan, 3000 pud yuk ko'tara oladigan kemalar qatnovga qo'yildi⁶. Buxoro va Xorazm o'rtasida imzolangan shartnoma 1921 yil avgust oyida Chorjuydan Xorazmga quyidagi tovarlar yuborilgan: 5 dona stanok, 2 ming pud sement, 727 pud telegraf va

¹ Ўша жойда.

² ЎзР МДА. 65-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 36 в.

³ Инкилоб куёши. 1923. № 45. 24 март.

⁴ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 22 в.

⁵ Ўша жойда. в. 6.

⁶ Ахбор. 1921. № 10. 27 июл.

telefon asboblari, ming pud lampa yog‘i, 28 dona telefon, 1000 pud cho‘yan, 4000 ming gugurt, 25000 (bog‘lam) manufaktura, 3 dona matbaa uchun dinom moshi (*ya‘ni elektr toki ishlab beruvchi mexanik moslama* - S.Sh.), bo‘yoqlar, kanselyariya asboblari va boshqa narsalar jo‘natilgan¹.

Iqtisodiy jihatdan XXSRdan ancha yuksak hisoblangan BXSР Xorazm bilan nafaqat savdo aloqalarini, balki ta‘lim sohasida munosabatlarni yo‘lga qo‘yib, kadrlar tayyorlash ishiga yordam bergan. BXSР hukumati tashabbusi bilan xorazmlik 10 ta o‘quvchining o‘qish, yo‘l xarajatlarini Buxoro hukumati o‘z zimmasiga olgan².

Xulosa qilib aytganda, XXSRning 1920–1924 yillarda RSFSR va BXSР bilan olib borgan aloqalari mohiyati va ko‘lami jixatidan bir-biridan farq qilar edi. Rossiya bilan olib borilgan iqtisodiy va savdo aloqalari RSFSR manfaatlari asosida qurilgan edi. XXSRda RSFSR uchun zarur paxta xom ashyosini yetishtirish uchun Rossiya katta moddiy mablag‘ va kreditlar ajratdi. Garchi XXSR bu yordam asosida o‘z xo‘jaligi, sug‘orish tizimini tiklab oldi. Lekin, bu davrda ham Xorazm agrar mamlakat bo‘lib qolaverdi. Tashqi savdo aloqalari Xorazmda ishlab chiqarilgan an‘anaviy xunarmandchilik maxsulotlari ham bo‘lsa-da, Rossiyaning keng iste‘mol sanoat maxsulotlariga muxtoj edi.

Savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda Rossiya XXSRga doimo o‘z ta‘ziyqini o‘tkazib turdi, uning imkoniyatlarini to‘la ishga solishga yo‘l bermaslikka urindi. BXSР bilan bo‘lgan aloqalar ko‘lami Rossiya bilan aloqalarga nisbatan ancha kam edi. Lekin mohiyat jixatidan ikki janublikka ikki tomonlama teng huquqiy va manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘ydilar. Bu munosabatlar rivojiga ham Sovet Rossiyasi tomonidan to‘siq qo‘yilib, markaz nazorati ta‘minlandi.

¹ Хоразм хабарлар. 1921. № 14. 22 август.

² Қизил байроқ. 1922. № 182. 10 май.

3 §. XXSRning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan tashqi savdo aloqalari

XXSR chet davlatlar, xususan G‘arb mamlakatlari bilan olib borgan savdo munosabatlarining qanday bo‘lganligini yoritishdan oldin XX asr boshlarida XXSRda eksport va import, ya‘ni chetga tovar chiqarish va chetdan tovar keltirish bilan bog‘liq holatlarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Shunisi e‘tiborliki, arxiv materiallarini o‘rganish bu borada shu paytgacha an‘anaviy tushuncha bo‘lib kelgan ba‘zi bir fikrlarni o‘zgartirishga asos bo‘ladigan xulosalarga kelish imkoniyatini beradi. Gap shundaki, shu paytgacha tadqiqotchilar XX asr boshlarida Xorazmda eksportga nisbatan importning ustunligini qayd qilib kelishgan edi. Ammo quyidagi ma‘lumotlar bu fikrlarni noto‘g‘riligini isbotlaydi.

Jadval № II 3. 1. Eksport, import (ming pud)¹.

Yillar	1897	1907	1909	1912	1921-22	1924
Import	163	704	886	1569	17,86	83,5
Eksport	458	1170	1115	2800	42,84	158,5
Jami:	621	1874	2001	4369	68,70	242

Keltirilgan jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda XXSRning eksport, import hajmi to‘xtovsiz o‘sib borgan, ya‘ni 1897 yildan 1912 yilga qadar bo‘lgan davrda deyarli 10 barobar o‘sgan. Ikkinchidan, bizningcha, Xorazm eksport va import saldosida² eksportning yaqqol ustunligi ko‘rinib turibdi. Bu an‘ana XXSR davrida ham saqlanib qolgan. Xorazm iste‘mol qiluvchi o‘lkadan ishlab chiqaruvchi o‘lka sifatida tanilgan. Ammo, shuni qayd qilish kerakki, eksport hajmida xom-ashyo mahsulotlari, ayniqsa, paxta yetakchi o‘rin egallaganligini ko‘ramiz. Quyidagi keltiriladigan ma‘lumot fikrimizni tasdiqlaydi³.

¹ ЎЗР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 82 в.

² Сальдо – экспорт ва импорт ўртасидаги фарқ. Агар бирон мамлакатда экспорт кам бўлиб, импорт юхори бўлса, ташқи савдоси номутаносиб ёки қарздор мамлакат ҳисобланади.

³ ЎЗР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 82 в.

Жадвал № II. 3. 2. Хоразмдан пахта чиқариш (минг пуд)¹.

Yillar	Miqdori
1897	293
1907	363
1910	600
1912	800
1913	659
1914	1316
1915	1400
1916	1740
1918	10
1921	25
1924	80

Агар oldingi ma'lumotnoma bilan yuqoridagi ma'lumotnoma solishtirilsa, paxta Xorazmning eksport hajmida katta salmoqqa ega bo'lganligini ko'rish mumkin, u foiz hisobida o'rtacha eksportning 30 %idan – 50 % igacha ko'rsatkichni tashkil qilgan. Masalan, 1897 yilda eksport jami 458 ming, shundan paxta 293 ming pudni tashkil qilgan. Bu yerda paxta eksporti juda yuqori bo'lgan. 1912 yilda esa umumiy eksport 2 mln. 280 ming pudni tashkil qilgan holda paxta 800 ming pudni, ya'ni eksport hajmining 27 %ini tashkil qilgan, xolos. Xuddi shunday holatni XXSR davrida ham kuzatish mumkin.

Masalan, 1924 yilda umumiy eksport hajmi 158,5 ming pudni tashkil qilgani holda, paxta 80 ming pudni, ya'ni umumiy eksportning 50 % ini tashkil qilgan. Shuningdek, Xorazm chetga yuqori sifatli urug'lar, teri va teri mahsulotlari (hunarmandchilik sanoati nazarda tutilmoqda) ham jahon bozoriga sotish uchun chiqarilgan.

Quyidagi ma'lumotnoma Xiva xonligi va XXSR davrida Xorazmning eksport tuzilmasi qanday bo'lganligini aniq ko'rsatadi².

Жадвал № II. 3. 3.

¹ 1921-1924 йиллардаги маълумотномада факат давлат органлари томонидан чиқарилган пахта хажми келтирилган. Хусусий савдогарлар чиқарган пахта маълумотга қўшилмаган. Шунинг учун маълумот камайитирилиб кўрсатилган бўлиши мумкин.

² ЎзР МДА. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 73-иш, 84в.

Eksportning tarkibi va foizdagi nisbati (1912 yil)

№	Tovarlar	Hajmi (ming pud)	Foizga nisbati
1.	Paxta	800	51%
2.	Beda (urugʻi)	400	25,5%
3.	Teri va teri xomashyosi (qorakoʻlsiz)	65	5,0%
4.	Qorakoʻl	11	0,7%
5.	Xalatlar	80	3,2%
6.	Gilamlar, paloslar	10	0,6%
7.	Hunarmandchilik mahsulotlari	10	0,6%
8.	Baliq, baliq mahsulotlari	150	9,6%
9.	Movut	25	1,6%
10.	Gʻildiraklar, yogʻoch mahsulotlar	6	0,4%
11.	Quruq mevalar	2	0,2%
12.	Guruch	10	2,2%
13.	Qoramol yogʻi	2	0,2%
	Jami:	1569	100%

Bundan koʻrinib turibdiki, garchi Xorazmning biz tadqiq qilayotgan davrdagi eksport hajmida paxta va xom-ashyo ustunlik qilsa-da, maʼlum darajada tayyor mahsulotlarini ham chetga sotgan.

Xorazmga chetdan asosan tayyor fabrika va yarim fabrika mahsulotlari, uy-roʻzgʻor, oziq-ovqat va yoqilgʻi mahsulotlari olib kelingan. Quyidagi maʼlumot Xorazmga chetdan olib kelingan mahsulotlar haqida toʻla tasavvur beradi¹.

Jadval № II. 3. 4. Chetdan olib kelingan mahsulotlar

№	Mahsulotlar	1912	Foiz	1923-24	Foiz
1.	Manufaktura va ipak mahsulotlari	210	8,1	2,289	
2.	Choy	150	9,5	-	
3.	Qand	250	9,3	8,336	
4.	Metall va metall buyumlari	265	10	1,493	
5.	Terilar	50	1,8	-	
6.	Pryaja	50	1,8	-	

¹ ЎзР МДА. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 73-иш, 84в.

7.	Galanteriya	20	0,7	1,2	
8.	Idishlar	60	2,1	87	
9.	Uy-ro'zg'or buyumlari	100	3,6	3,906	
10.	Q/x mahsulotlari, qoplar	40	1,4	-	
11.	Kerosin va neft	575	19	17,836	
12.	Yog'och	30	1,08	19,104	
13.	Arqonlar	50	1,8	17,1	
14.	Un	200	7,2	1,906	
15.	Don	500	18	4,5	
16.	Boshqa mahsulotlar	170	4,5	8,333	

Ro'yxatda keltirilgan mahsulotlar nafaqat yaqin qo'shni mamlakatlarga, balki uzoq davlatlarga ham eksport qilinib, masalan, G'arb mamlakatlari bilan ham doimiy savdo aloqalarini o'rnatishda omil bo'ldi.

Ayniqsa, 1922 yil 29 iyunda XXSR va RSFSR o'rtasida tuzilgan yangi iqtisodiy shartnoma Xorazmga Rossiyadan tashqari boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ammo, XXSRga faqat RSFSR munosabatlar o'rnatgan mamlakatlar bilangina savdo aloqalar o'rnatishga ruxsat berilgan edi. RSFSR Tashqi savdo xalq komissarligidan (bundan keyin TSXK deb yuritiladi) maxsus ruxsatnoma olgandan keyingina XXSRning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatishga yo'l ochildi. XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi tomonidan 20 fevral 1923 yildan RSFSRning Finlyandiyadagi savdo vakolatxonasiga yozilgan xatda shunday deyiladi: «RSFSR va XXSR o'rtasida imzolangan iqtisodiy shartnomaning 6-moddasiga asoslanib, Tashqi savdo xalq komissarligi 1922 yil 12 dekabrda № 66405 tasdiqnomasida, XXSRning Moskvadagi vakolatxonasiga RSFSR savdo aloqalari o'rnatgan chet davlatlar bilan savdo operatsiyalarini o'rnatishga qarshilik bildirmasligini ma'lum qildi. Bu haqda Tashqi savdo xalq komissarligi tomonidan RSFSRning chet davlatlardagi savdo vakolatxonalariga yuborilgan alohida uqdirishnomada ko'rsatib o'tilgan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, XXSR davrida eksport va import masalalari bilan nafaqat davlat organlari, balki xususiy savdogarlar

ham shugʻullanganlar. Quyidagi jadvalda davlat organlari, kooperativ tashkilotlar va xususiy kapital tomonidan amalga oshirilgan eksport va importning oʻzaro nisbati aniq koʻrsatilgan.

Jadval № II. 3. 5. (ming pud hisobida)¹

№		Davlat organlari va kooperativlar	Kooperativlar	Xususiy kapital	Natijaga nisbat	Jami tovar aylanmasi	Foiz
1	Eksport	77,670	86,9	109,34	13,1	188,913	100
2	Import	109,210	71,8	48,827	28,2	158,637	100
3	Jami	182,189	76,8	59,761	23,1	241,950	100

Maʼlumotnomadan koʻrinib turibdiki, importning 6/1 qismi, eksportning esa deyarli 3/1 qismi, umumiy tashqi tovar aylanmasining 4/1 qismi xususiy savdogarlar tomonidan amalga oshirilgan.

XXSR yillarida koʻrinib turibdiki, tashqi savdo aloqalari bilan asosan davlat idoralari shugʻullanganlar. Bu vazifani quyidagi 5 ta yirik davlat organlari amalga oshirgan:

1. Xorazm davlat savdo tashkiloti.
2. Buxoro davlat savdo tashkiloti.
3. Davlat paxtachilik jamiyati.
4. Rossiya davlat savdo tashkiloti.

5. Neftsindikat², shuningdek, boshqa oʻrta va mayda kooperativ tashkilotlar ham shugʻullangan.

Endi bevosita XXSRning Gʻarb davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo munosabatlari masalasiga kelsak, bu oʻrinda Xorazmning asosiy savdo sherigi Finlyandiya boʻlganligini alohida qayd qilib oʻtish kerak. XXSRning Gʻarb va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari RSFSR va Xorazm oʻrtasida 1922 yil 29 iyulda imzolangan iqtisodiy shartnomaga muvofiq amalga oshirila boshlandi. Ammo Xorazm va Finlyandiya oʻrtasida doimiy savdo aloqalarni oʻrnatish uchun XXSR Finlyandiyadagi savdo vakolatxonasini ochish zarur edi. Buning uchun ancha vaqt va tashkiliy ishlar talab qilinardi. XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi Gʻarb mamlakatlar,

¹ ЎзР МДА. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 73-иш, 86 в.

² ЎзР МДА. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 73-иш, 86 в.

jumladan, Finlyandiya bilan savdo aloqalarini tezroq boshlash, bu borada vaqtdan yutish maqsadida RSFSRning Finlyandiyadagi savdo vakolatxonasiga murojaat qiladi. Unda shunday deyiladi: «XXSR va RSFSR oʻrtasida tuzilgan iqtisodiy bitimning 6-moddasiga muvofiq, RSFSR tashqi savdo xalq komissarligi 1922 yil 12 dekabr 6405-bildirishnomasida XXSR savdo vakolatxonasiga RSFSR savdo munosabatlarida boʻlgan mamlakatlar bilan savdo aloqalari oʻrnatishga eʼtiroz bildirmasligini maʼlum qilgan. Bu haqda RSFSR tashqi savdo xalq komissarligi oʻzining chet davlatlardagi savdo vakolatxonalariga 1923 yil 23 yanvardagi 75499 koʻrsatmasida maʼlum qilgan. Yuqorida qayd qilingan iqtisodiy shartnoma keltirib chiqargan huquqlaridan foydalanib XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi shu kunlarda muayyan chet davlatlarda, jumladan, Finlyandiyada ham oʻz savdo vakolatxonasini tashkil qilmoqda»¹.

Shuni qayd qilish kerakki, mazkur xatda XXSRning Moskvadagi savdo vakili RSFSRning (keyinchalik SSSR) savdo vakilidan, Xorazm Finlyandiyada oʻz savdo vakolatxonasini ochgunga qadar, XXSRning Finlyandiya savdo manfaatlarini himoya qilishni soʻraydi².

Finlyandiyada Xorazm mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojni oʻrganish va shuningdek, Finlyandiyaning savdo firmalari va kompaniyalari bilan doimiy savdo aloqalarini oʻrnatish maqsadida XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasi tijorat direktori Yusuf Salimjonov 1923 yilning fevral oyida rasmiy safar bilan Xelsinki shahriga keladi. Finlyandiyaning koʻpgina firma va kompaniyalari bilan doimiy savdo sherikchiligini oʻrnatish uchun muzokaralar olib boradi. Ularda uning Yevropa va jahon savdosida tutgan oʻrni haqidagi maʼlumotlar tahlil qilindi. Natijada Gʻarbiy Yevropa davlatlari bilan savdo operatsiyalarini amalga oshirishga vositachi va sherik qilib oʻsha davrdagi Finlyandiyaning yirik kompaniyalaridan «Transbaltik» savdo aksionerlik jamiyati tanlandi. «Transbaltik» savdo kompaniyasi Gʻarbda ancha mashhur boʻlib, Angliya, Germaniya, Daniya va Fransiya kabi yirik, iqtisodiy taraqqiy qilgan mamlakatlarda oʻz filiallariga ega edi. Shun-

¹ ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 50-иш, 9 в.

² Ўша жойда.

ing uchun ham Finlyandiyaning poytaxti Xelsinki shahrida Xorazm respublikasi va «Transbaltik» oʻrtasida oʻzaro hamkorlik toʻgʻrisida shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq «Transbaltik» kompaniyasining: «... butun boshqaruvi, shuningdek, uning Kopengagen, Gamburg, London va Parijdagi savdo agentlari Xorazmning ixtiyoriga jalb etiladi. Bu strukturalar sizlarning eksport va import tovarlaringiz narxlarining chet el bozorlaridagi kurslari toʻgʻrisida maʼlumot berib turadi»¹.

Shunday qilib, Xorazmning Finlyandiya va Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari bilan doimiy savdo aloqalarini oʻrnatishiga asos yaratildi.

«Transbaltik» firmasi bilan olib borilgan muzokaralar tezda oʻz natijasini berdi. «Transbaltik» va XXSR oʻrtasida birinchi mustaqil savdo shartnomasi 1923 yil 22 fevralda Petrograd shahrida imzolandi². Quyida shartnomaning qisman matnini keltiriladi:

«Shartnoma»

Petrograd 1923 yil 22 fevral. Quyidagi imzo chekuvchilar: Transbaltik Aksionerlik jamiyati boshqaruvi Gelsingfors shahrida bir tomondan, XXSRning savdo va sanoat nozirligi Moskva savdo boʻlimi ikkinchi tomondan oʻzaro quyidagi shartnomani imzolashdi:

1. Transbaltik sotadi, Moskva savdo vakolatxonasi quyidagi mahsulotlarni sotib oladi:

- metall perolar - 1 000 - gross³;
- qalamlar - 300 - gross;
- yozuv qogʻozlar - 10 000 kg;
- boshqa qogʻozlar - 10 000 kg....

4. Mahsulotlar ikki oy muddatga kredit asosida yuboriladi. Toʻlov fin valyutasi asosida amalga oshiriladi...

6. Mahsulotlarni Finlyandiyadan olib chiqib ketish bilan bogʻliq rasmiyatchiliklarni, bojxona toʻlovlarni Transbaltik RSFSRga mahsu-

¹ ЎзР МДА.70-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 11 в.

² Ўша жойда. 1-рўйхат, 50-иш, 10 в.

³ Гросс - фин оғирлик бирлиги.

lotlarni olib o'tish, bojxona to'lovlarini, yig'implarni to'lashni Moskva savdo vakolatxonasi amalga oshiradi.

9. Tomonlarning yuridik manzillari: sotib oluvchi: Moskva, Ilinka, Issiq qatorlari (Tyoplie ryadi) ko'chasi 314-uy; sotuvchi: Petrograd, Oktabr ko'chasi, 26-uy»¹.

«Transbaltik» firmasining XXSRning Moskva savdo vakolatxonasiga bergan ma'lumotnomasida yuqorida sotilgan mahsulotlarning bahosi quyidagicha belgilanadi:

- metall perolar - 1 gross uchun - 16 - 18 fin markasi;
- qalamlar - 1 gross uchun - 72 - 200 fin markasi;
- yozuv qog'ozlari - 1 pud uchun - 78 fin markasi;
- boshqa qog'ozlar - 1 kg uchun - 2,45 fin markasi².

Agar sotib olingan mahsulotlar yuqoridagi baholar bo'yicha narxlansa, shartnoma bo'yicha Finlyandiya olib kelingan tovarlarning umumiy summasi salkam 1 million fin markasini tashkil qiladi.

Ikki tomonlama keng miqyosdagi savdo aloqalarini o'rnatish uchun Xorazm aholisiga zarur oziq-ovqat mahsulotlarini jahon va Yevropa bozorlaridagi baholarni aniqlash muhim edi. 1923 yilda o'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra G'arbda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining baholari quyidagicha edi:

- | | | | |
|----|---|------|---------------|
| 1. | «Rokfor» pishloqlari (Gollandiya) | 1 kg | 40 marka |
| 2. | Shveysariya pishloqlari | 1 kg | 15 marka |
| 3. | Sut mahsulotlari kukuni (mannaya krupa) | 1 kg | 4,35 marka |
| 4. | Shpik | 1 kg | 15 marka |
| 5. | Dog'langan yog' | 1 kg | 15 marka |
| 6. | Margarin yog'i | 1 kg | 15 marka |
| 7. | Avstraliya texnologiyasi bo'yicha yog' mahsulotlari | 1 kg | 9,25 marka |
| 8. | Kakao yog'i | 1 kg | 7,5-9,5 marka |
| 9. | Kakao yog'i (oliy sifatli) | 1 kg | 39 marka |

¹ ЎзР МДА.70-жамғарма, 1-рўйхат, 50-иш, в.10.

² ЎзР МДА.70-жамғарма, 1-рўйхат, 50-иш, в.8.

10.	«Santo» kofesi	1 kg	18 marka
11.	Seylon choyi	1 kg	36 marka
12.	«Osram» elektron lampochkasi:		
	220 volt	1	6,25 marka
		dona-	
	110 volt	si	5,25 marka
		1	
		dona	
		i	

13. Primus (fonus¹)lar 1 donasi 50-70 markagacha².

Bundan ko‘rinadiki, Xorazm aholisi uchun «Transbaltik» firmasi eng ilg‘or mamlakatlarda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini keng assortimentini taklif qilgan. Albatta, bunda XXSRning savdo sherigi sifatida iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olingan.

Tomonlar o‘rtasida keng qamrovli, juda katta hajmdagi o‘zaro manfaatli shartnoma 1923 yil may oyida Moskva shahrida imzolandi³. Shartnomaga muvofiq XXSR «Transbaltik»dan quyidagi mahsulotlarni sotib oldi:

1.	Yozuv qog‘ozlari	– 20 000 kg
2.	Bosmaxona qog‘ozlari	– 10 o‘ram (rulon)
3.	Qalamlar (kimyoviy va qora)	– 20 000 gross
4.	Yozuv mashinalari uchun lentalar (tasma)	– 500 dona
5.	Inglizlarning nusxa oluvchi qog‘ozlari	– 50 quti
6.	Musulmoncha shriftli (harfli) yozuv mashinasi	– 2 dona
7.	Arra (katta, o‘rtacha) va duradgorlik asboblari	– 500 dona
8.	Go‘shhtmaydalagich	– 5 000 dona
9.	Fonuslar	– 1 000 dona
10.	Tikuv ignalari	– 10 000 gross

¹ Фонус - тунда уйни, юраётган йўлни ёритадиган лампали металл чирок

² ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, в. 111.

³ Ўша жойда. 16-иш, в. 7.

11. Turli boshqa mahsulotlar – 700 dyujin¹
12. «Kultor» firmasi preyskurant bo'yicha sir- – 200 dyujin
langan idishlar, bular quyidagi mahsulotlar
edi:

Shartnomaga ko'ra mazkur mahsulotlar imzo chekilgan kundan 1 oylik muddat ichida Xorazmga jo'natilishi qayd qilib o'tiladi. Shu vaqtda, ya'ni 1923 yil may oyining o'zidayoq boshqa shartnoma ham imzolandi². Shartnomaga muvofiq XXSR, Transbaltikadan quyidagi mahsulotlarni sotib oldi:

1. Qalamlar – 800 gross.
2. Yozuv mashinalari uchun tasma 13 mm lik – 500 dona.
3. Ignalar – 10 000 gross³.

O'zaro foydani, o'sib borayotgan savdo aloqalarini yanada rivojlantirish, qo'shimcha shartnomalar tuzish maqsadida 1923 yil 21-28 iyun kunlari Xorazmning Moskvadagi savdo vakolatxonasi Yusup Salimjonov va Dmitriy Medvedevdan iborat savdo missiyasi Finlyandiyaga yuboriladi⁴.

Shu savdo missiyasidan keyin «Transbaltik» va XXSR o'rtasida ketma-ket bir qancha shartnomalar imzolandi. 1923 yil iyul oyining oxirida Transbaltik Xorazmga 160 ming fin markasi miqdorida 5 000 dona turli xo'jalik uy-ro'zg'or buyumlari, 100 ming fin markasiga mahkama ishlari uchun mo'ljallangan har xil o'lchamdagi qalamlarni jo'natdi. Bunga javoban, Xorazm Finlyandiyaga 1 000 bosh chorva va shuncha miqdorda tayyor arava g'ildiraklarini jo'natdi⁵.

XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasining boshlig'i M. Madiyorov 1923 yil iyul oyining oxirida Finlyandiyada xizmat safarida yurgan Xorazmning savdo agentlari Yu. Salimjonov va D. Medvedevlarga yuborgan xatida shunday deb yozadi:

¹ Дюжина - 12 дона

² ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 114 в.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 3 в.

⁵ Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 11 в.

«Xorazm uchun quyidagi tovarlarni sotib olish va XXSRning SSSRdagi savdo vakolatxonasiga yuborishingizni soʻrayman:

1. Sirlangan idishlar – 2 000 gross
2. Kimyoviy va qora qalamlar – 2 000 gross
3. Angliyaning nusxa oluvchi qogʻozlari – 50 quti
4. Yozuv mashinalari:
musulmoncha shriftli – 2 ta
ruscha shriftli – 5 ta
5. Perolar – 1 000 gross
6. Fonuslar – 500-1000 dona
7. Goʻshtmaydalagich – 500 dona
8. Arralar (katta, kichik) – 1 100 dona
9. Germaniyada ishlab chiqarilgan gorelkalar (fonuslar uchun):
5 ta liniyali – 30 000 dona
7 ta liniyali – 50 000 dona
10. Boʻyoqlar – 1 000 kg¹.

Taklif qilingan tovarlarni sotib olish va Xorazmga joʻnatish maqsadida «Transbaltik» bilan 1923 yil iyul-avgust va sentabr oylarida ketma-ket bir qancha shartnomalar imzolandi. Shunday shartnomalardan biri 1923 yil 30 avgust kuni imzolandi.

Ammo bu aloqalar asosan sobiq SSSR tashqi savdo xalq komissarligi vositachiligida olib borilayotgan edi. Bu esa Xorazmning Yevropa mamlakatlari bilan savdo munosabatlariga jiddiy xalaqit berardi. Xorazm hukumati Finlyandiya bilan savdo aloqalarini mustaqil olib borish maqsadida sovet hukumatiga qatʼiy talab qoʻydi. Shundan keyingina savdo-sotiq munosabatlari SSSRning Finlyandiya-dagi savdo vakolatxonasi orqali toʻgʻridan-toʻgʻri amalga oshirilishga ruxsat berildi. Bu esa tezda ikki tomon, yaʼni Finlyandiya va Xorazm uchun ham oʻzining samarali natijasini berdi. Uzoq muzokaralardan keyin 1923 yil 30 avgustda Xorazm respublikasining Moskva savdo vakolatxonasi va Finlyandiyaning «Transbaltik» savdo kompaniyasi oʻzaro birinchi mustaqil ikki tomonlama foydali shartnomani imzolashdi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: «Transbaltik»

¹ Ўша жойда. 17-иш, 13 в.

акционерлик jamiyati, bundan keyin «Transbaltik» deb ataladi, bir tomondan, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining savdo vakolatxonasi (bundan keyin «Xorazm Xalq Sovet Respublikasi» deb ataladi) ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. «Transbaltik» Xorazm Xalq Sovet Respublikasidan oʻz andozalari, chizmalari va hajmlariga muvofiq keladigan 2 000 juft dubdan¹ tayyorlangan gʻildiraklarni sotib oladi.

2. Gʻildiraklar 1924 yil 1 yanvargacha bosqichma-boqich yetkazilib beriladi.

3. Mahsulot uchun «Transbaltik» quyidagi tartibda haq toʻlashni amalga oshiradi: 50 % haqi birdaniga, oldindan toʻlanadi, bunda 5 000 dona arra; uzunligi 3,5 fut², eni 6,5 dyum³ har donasi 25 fin markasidan 1 000 dona Bolindor tizimidagi goʻsht maydalagich, shundan 300 donasi № 0 - andozali, donasi 32,50 fin markasidan, 700 dona № 2 - andozali, donasi 42,50 fin markasi bahosida hisob-kitob qilinadi. Qolgan 50 % gʻildiraklar uchun haq tovar qabul punktlariga yetib kelgandan keyin darhol toʻlanadi»⁴.

Bundan koʻrinadiki, Xorazm Finlyandiyaga nafaqat xom-ashyo mahsulotlari, balki tayyor tovarlar ham yetkazib bergan. Oʻzaro ishonchli hamkorlik yanada kuchayib, 1923 yil avgust oxirida keyingi shartnoma imzolandi. Bunga muvofiq «... 1. «Transbaltik» Xorazm respublikasiga quyidagi tovarlarni sotadi:

- qalamlar	- andoza № 2	- 1 000 gross;
- nusxa oluvchi qalamlar	- andoza № 3	- 500 gross;
- metall yozgichlar	- andoza № 16	- 500 gross;
- chizish uchun metall yozgich		- 500 gross;
(pero)		
- Shved fonuslari		- 1 000 dona;
- alohida andozali sirlangan idishlar		- 1 000 dona;

¹ Қадимдан Хоразм ўзининг чидамли гуҷум ёғочидан ясалган ғилдираклари билан машҳур бўлган. Ҳужжатда финлар томонига тушунарли бўлиши учун гуҷум сўзи ўрнига дуб сўзи ишлатилган

² фут - Европа узунлик ўлчови, 0,25 см тенг.

³ дюйм - 2 см га тенг узунлик ўлчови.

⁴ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 13 в.

- kerosin lampalari¹ uchun misdan qilingan maxsus moslamalar - 100 000 dona (*ya'ni kerosinli lampalarning kerosin quyadigan ostki qismi - S. Sh.*)

Shundan

a) 5 chiziqli – 50000 dona

b) 7 chiziqli – 50000 dona.

Xorazm respublikasining to'lov sharti: Petrograd (*Sankt-Peterburg – S.Sh.*) bojxonasiga yetib kelgan tovarning 40 % qiymatini darhol, qolgan 60 % ini tovar yetib kelgandan keyin 4 hafta ichida to'laydi»². Shu vaqtning o'zida 1923 yil 12 iyuldagi SSSR Tashqi Savdo Xalq Komissarligining 753-sonli ruxsatnomasiga asosan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi 1923 yil noyabr oyigacha Finlyandiya-ga 25 000 dona duga (arava g'ildiragining gupchagi), 5 000 dona - yog'och g'ildiraklari, 10 000 dona metallardan (*asosan mis asboblari - S.Sh.*) tayyorlangan turli xil mahsulotlar, 100 000 dona - yog'ochdan yasalgan belkuraklar yetkazib beradi³.

1923 yil avgust oyida Finlyandiyaning poytaxti Gelsingfors shahrida navbatdagi shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq quyidagi mahsulotlar Xorazmga yetkazib berildi.

- qalamlar – 1 000 gross;

- nusha oluvchi qalamlar – 1 000 gross;

- metall perolar:

a) №86 – 500 gross;

b) chizish uchun – 200 gross.

¹ Керосинли лампалар куйидаги тартибда ишлатилган, металдан қилинган куйи қисмига, яъни ёнилги куйишга мослашган қисмига махсус усулда шишадан қилинган лампа шиша ўрнатилган. Лампанинг керосин солинган идишига горелка (мисдан қилинган махсус мослама) орқали қалин пилта каноплардан тўқилган пилик туширилган. Пилик керосинни шимиб юқорига кўтариши ҳисобига чироқ ёниб, ёруғлик тарқатган. Пилик тўқимасининг узунасига қайқ чоклари бешта, еттита, ўнта ва ҳоказо бўлишига қараб, лампалар 7-, 10-, 20-рақамлар билан аталган.

² ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 18 в.

³ Ўша жойда. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 19 в.

«Kultor» firmasining preyskurant bo'yicha Xorazmga yetkazib berilgan sirlangan idishlar (alohida xususiyatli – 10 000 dona):

Bu yerda shuni aytib o'tish kerakki, uy-ro'zg'or buyumlarini tashkil qiluvchi sirlangan idishlar ham metall va chinni buyumlardan tashkil topgan. XXSR mazkur tovarlar uchun nafaqat xom-ashyo mahsulotlari, ya'ni paxta, qora ko'l, balki tayyor mahsulotlar, mahalliy hunarmandchilik buyumlari, g'ildiraklar, xalatlar, baliq mahsulotlari, mahalliy bo'yoqlar va boshqa mahsulotlar eksport qilingan. 1923-1924 yillar davomida XXSR Finlyandiyaga, shuningdek, boshqa G'arb mamlakatlariga quyidagi boshqa mahsulotlar eksport qilingan:

1. Paxta – 100 000 pud
2. Bada urug'lari, boshqa urug'lar – 30-40 000 pud
3. Qorako'l (Buxoro, Xiva) – 100 000 dona
4. Jun – 15 000 pud
5. Hunarmandchilik tayyor mahsulotlari – 250 000 dona
6. Teri va teri xom-ashyosi – 10 000 dona
7. Mahalliy bo'yoq – 2 000 pud
8. O'simliklar ildizi – 15 000 pud
9. Xalatlar – 50 000 dona
10. Baliq va baliq mahsulotlari – 50 000 pud¹.

Mahsulotlarning asosiy qismi Finlyandiyaga yetkazib berilib, o'rniga Xorazm xalqi ehtiyoji uchun zarur mahsulotlar, eng birinchi navbatda, tayyor sanoat mahsulotlari olib kelingan.

«Transbaltik» firmasi XXSR bilan doimiy savdo aloqalari o'rnatib, ishonchli hamkor ekanligini isbot qildi. Xorazm G'arbiy Yevropa, ayniqsa, Germaniya, Fransiya, Angliya kabi rivojlangan davlatlar bilan izchil aloqalarni o'rnatishga harakat qildi. Bu borada «Transbaltik» firmasi vositachilik, yo'l ko'rsatuvchilik vazifasini bajardi. Chunki mazkur firma Yevropa savdo-biznes olamida obro'-e'tiborga, mustahkam munosabatlarga ega edi. «Transbaltik» vakilining XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasiga 1923 yil 21 iyulda yuborgan xatida shunday deyiladi:

¹ ЎзР МДА. 71-жамғарма, 1-рўйхат, 5-иш, 164 в.

«Transbaltik» firmasining direktori London va Parijdagi xizmat safaridan qaytib keldi. Uning ma'lumotiga ko'ra, mahsulotlaringizga, ayniqsa, qorako'l, o'simliklar tomirlari, paxtaga qiziqish katta»¹.

XXSRning G'arb mamlakatlari bozorlarida o'ziga xos o'rin egallab borayotganligini quyidagi hujjat ham ko'rsatib turibdi. Bu Angliyaning «Arkos» aksionerlik jamiyati (Arcos Limited) tomonidan, XXSR ning Moskvadagi savdo vakolatxonasiga yuborgan xatidir. «Arkos» firmasi jahon bozorida ancha tanilgan kompaniya bo'lib, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida AQSh (Nyu-York), Fransiya, (Parij), Turkiya (Konstantinopol), Rossiya (Moskva, Petrograd), Gruziya (Tbilisi, Batumi) o'z vakolatxonalariga ega edi. Mazkur hujjatda, ya'ni xatda (1923 yil fevral) «Arkos» vakillari shunday deb yozadi:

«Biz siz bilan doimiy ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatishga to'liq tayyormiz (chetga tovar chiqarishga lisenziyangiz bo'lsa agar). Arkos chet el bozorlarida sizlarning tovarlaringizni sotishda vositachilik qilish majburiyatini oladi. Sizga mijozlarimiz bilan tuziladigan shartnomalar nusxasini yuboramiz»². Bundan ko'rinadiki, XXSR G'arbda nafaqat Finlyandiya bilan, balki Angliya bilan ham savdo aloqalarni o'rnatgan.

G'arbnin rivojlangan davlatlaridan biri Germaniyaning savdo, vositachilik firmalari ham XXSR bilan doimiy aloqalar o'rnatishdan manfaatdor edilar. Shunday aloqalar 1922 yil oxirida o'rnatila boshlangan edi. Germaniyaning «Orientliniya K. Mebes» paroxod-transport va ekspedisiya kontorasi jamiyati 1922 yil 14 oktabr kuni Toshkentdagi XXSR Bosh konsuliga murojaat qilib, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishni taklif qiladi. «Orientliniya K. Mebes» paroxod transport jamiyati Gamburg shahrida joylashgan bo'lib, Konstantinopol, Botumi, Boku shaharlarida o'z agentliklariga va bo'limlariga ega edi³. Mazkur jamiyat o'z xatida quyidagilarni yozgan: «German «Orientliniya»ning O'rta Osiyo vakolatxonasi sizdan XXSR hududida Germaniya «Orientliniya» paroxod-transport va ekspedisiya agentligining bo'limini ochishga siz tarafdan e'tiroz bildirilmasligi to'g'risida gu-

¹ ЎзР МДА. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 57-иш, 25 в.

² Ўша жойда. 70-жамғарма, 1-рўйхат, 50-иш, 47 в.

³ ЎзР МДА. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 45-иш, 3 в.

vohnoma berishingizni so‘raymiz. Agentlikning faoliyatida XXSR va RSFSR fuqarolari ham ishlash uchun taklif qilinadilar»¹.

Mazkur Germaniya firmasi daryo va dengizlarda yuk tashish ishlariga ixtisoslashgan edi.

Xuddi shu vaqtda XXSRning Moskvadagi savdo vakolatxonasiga Germaniyaning mashhur tadbirkorlaridan janob Mishan Yueritdan quyidagi mazmunda xat kelib tushdi: «Janob Yu.G. Salimjonov bilan olib borilgan muzokaralar natijasiga ko‘ra quyidagilarni Sizga taklif qilaman.

Hozirgi vaqtda doimiy ravishda Berlinda yashamoqdaman, Sizlar bilan import-eksport bo‘yicha savdo aloqalarini boshlash niyatim bor. Bu borada Yu. Salimjonov sizlarni qiziqtirayotgan mahsulotlar ro‘yxati bilan meni tanishtirdi. Sizga Berlinda savdo vakolatxonasi ochish uchun o‘z xizmatlarimni taklif qilaman. Bundan tashqari, o‘zaro qo‘shma sarmoya asosida Berlinda mustaqil savdo muassasasi ta‘sis qilishimiz mumkin. O‘zaro hamkorlikni tezlashtirish uchun o‘z vakilingizni Berlinga yuborsangiz ma‘qul bo‘lur edi. Dastlabki muzokaralarni olib borish uchun mening Moskvadagi maxsus vakilim sizga albatta uchrashadi. Sizlardan ijobiy javob kutib qoluvchi M. Yuerit»².

Yuqoridagi hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, G‘arbning rivojlangan mamlakatlaridan hisoblangan Germaniya XXSR bilan har tomonlama savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intilgan. Hatto xorazmlik talaba Mariyam Sultnomurodova 1922–1926 yillarda Germaniyaning Darmstادت shahrida pedagogika seminariyasida ta‘lim olgan³.

Sovet Rossiyasi tomonidan qo‘yilgan jiddiy to‘siqlarga qarshi izehil ravishda kurash olib borib, imkon qadar g‘arb davlatlari bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yishga intildi. Natijada Xorazm respublikasi qisqa muddatga bo‘lsa-da, ya‘ni 1923–1924 yillarda G‘arb davlatlaridan Finlyandiya bilan doimiy savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Shuningdek, XXSR Germaniya va Angliya kabi davlatlar bilan ham shunday aloqalarni o‘rnatishga intildi. Bu borada

¹ Ўша жойда. 3 в.

² Ўша жойда. 69-жамғарма, 1-рўйхат, 45-иш, в. 3.

³ Халқ сўзи. 19991. 3 июл. Мариям Султономуродова кейинчалик Германияда таълим олганлик учун 1937 - 38 йилларда совет ҳокимияти томонидан қатағон қилинган.

Germaniya va Angliyaning «Arkos», «Orientliniya» kabi firmalari asosiy tashabbuskor bo'ldilar. Demak XXSR savdo potentsiali mustaqil tashqi savdo aloqalarini yo'lga qo'yish uchun yetarli edi. Bu soxaga ma'sul shaxslar ham yetarli bilimga va mahoratga ega ekanliklarini namoyon qilib, ma'lum natijalarga erishdilar. Lekin markazning ta'ziyqlari, siquvga olishi tufayli va nihoyat XXSRning tugatilishi bularning bariga chek qo'ydi.

RSFSR (SSSR) rahbariyati O'rta Osiyo respublikalarini nafaqat siyosiy-iqtisodiy jihatdan qaram qilish, balki butkul tugatish siyosatini olib bordi. Turkistonda o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanish siyosati natijasida XXSR tugatildi. Uning tashqi savdo aloqalarini olib boruvchi davlat organlari ham tugatilib, vazifalari O'zSSR va TSSR davlat organlariga o'tkazildi.

XULOSA

Xiva xonligining ag'darilishi va XXSRning o'rnatilishi sovet davri tarixchilari tomonidan juda keng tadqiq qilinsa-da, o'sha davrda hukmron kommunistik mafkura va markaz manfaatlariga mos ravishda yoritildi. Bu esa tarixiy voqelikni soxtalashtirilishiga olib kelindi.

Mustaqillik yillarida tariximizni xolis, voqealarni haqiqat ko'zi bilan o'rganish imkoniyati tug'ildi. Xiva xonligining ag'darilishi va XXSRning tashkil qilinishi mustaqillik davri tarixchilari tomonidan ham keng o'rganila boshlandi.

Arxiv hujjatlari va manbalarni keng tahlil qilish, tadqiqot davri matbuoti materiallarini chuqur o'rganish Xivada xonlik tuzumini tushatishda asosan uchta ijtimoiy-siyosiy kuch qatnashganligini ko'rsatmoqda. Bular quyidagilar:

1. Rossiya bolsheviklari. Chunki xonlikdagi ijtimoiy siyosiy tizim sovet hokimiyatining sotsializm, keyinchalik kommunizm qurish g'oyalariga to'g'ri kelmas edi. Bolsheviklar o'zga davlatning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashib, davlat tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish orqali Xiva xonligida sovet hokimiyatini o'rnatishni maqsad qilib olgan edilar.

2. Xorazm jadidlari. Ularning siyosiy harakati uyushmasi «Yosh xivaliklar» partiyasi hisoblangan. Ular Xiva xonligini ag'darib, milliy-demokratik davlat tashkil qilish, mamlakatni mustaqil demokratik yo'ldan rivojlanishini ta'minlashni o'zlari uchun oliy maqsad qilib qo'ygandilar. «Yosh xivaliklar» bolsheviklarning balandparvoz gaplariga, va'dalariga ishonib dastlabki davrda ular bilan hamkorlik qilishdi. Shuning uchun ham Xiva jadidlari xonlik tuzumini ag'darishda faol ishtirok etishdi.

3. Siyosiy kuch – turkman urug'larining ayrim oqsoqollari, qabila boshliqlari. Xiva xonligida amalda hokim bo'lgan Junaidxonning hukmronligiga qarshi kayfiyatda bo'lgan turkman sardorlarining bir qismi (Qo'shmuhammadxon, G'ulomali) Xivada xonlik tuzumini ag'darish orqali Junaidxondan qutulmoqchi edilar. Shuning uchun ular ham Xiva jadidlari bilan bolsheviklarga qo'shildilar.

Ammo Xiva jadidlari va turkman sardorlari bolsheviklarga ishonib qattiq adashganliklarini XXSRning tashkil qilinishi, Xorazm hu-

kumatining keyingi faoliyati davomida tushunib yetdilar. Bolsheviklar Xivada xonlik tuzumi agʻdarilishining dastlabki kunlaridanoq Xorazmda sovet tuzumini, uning boshqaruv shakllarini zoʻrlilik bilan tiqishtira boshlashdi. Bu esa «Yosh xivaliklar»ning milliy davlatchilik qurish borasidagi maqsadlariga umuman muvofiq kelmas edi. Sovet Rossiyasi oʻzining Xivadagi maxsus vakillari, shuningdek, Xorazm hududidagi qizil armiya qoʻshinlariga suyangan holda bolsheviklarga mos keluvchi siyosatni zoʻrlilik bilan oʻtkaza boshladilar.

Mustaqil davlatning ichki ishlariga qoʻpol ravishda aralashdilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, bolsheviklar XXSRda mavjud boʻlgan sal kam besh yillik muddat davomida hukumat oʻn marta oʻzgartirildi, yaʼni davlat toʻntarishini amalga oshirdilar. Xiva jadidlari rahbarlarining koʻpchiligi oʻz lavozimlaridan olindilar, otib tashlandilar, ayovsiz quvgʻin qilindilar. Ularning bir qismi esa bolsheviklardan qochib, sovet hokimiyatiga qarshi qatʼiy kurash olib borayotgan, mustaqillik uchun kurashuvchilarga yetakchilik qilayotgan Junaidxon safiga borib qoʻshildilar.

Xonlik tuzumini agʻdarishda faol qatnashgan turkman sardorlarining taqdiri ham fojeali yakun topdi. Ularning koʻpchiligi 1921 yil noyabr oyida bolsheviklar tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida otib tashlandilar. Qolganlari bolsheviklarga qarshi murosasiz kurash olib borayotgan Xorazm hududlarida qarshilik koʻrsatish harakatining rahbari Junaidxon tomoniga qochib oʻtdilar.

Shunday qilib, bolsheviklar oʻzlarining kechagi «ittifoqchilari» hisoblangan Xorazm vatanparvarlarini yoʻq qilib, 1923 yilda XXSRni XSSR deb eʼlon qildilar. 1924 yilga kelib esa, Xorazm respublikasi ham mustaqil davlat sifatida tugatildi.

Ammo shunisi eʼtiborliki, Xorazmning vatanparvar rahbarlari Xorazmni milliy taraqqiyot yoʻlidan rivojlantirishda jonbozlik koʻrsatdilar. Ayniqsa, XXSRning mustaqil tashqi siyosat olib borish bilan bogʻliq faoliyatini amalga oshirish uchun qattiq kurashdilar. Manba va hujjatlarni tadqiq qilish shuni koʻrsatmoqdaki, Xorazm respublikasi qisqa tarixiy davr davomida (1920–1924 yy.) qoʻshni va uzoq mamlakatlar bilan doimiy savdo aloqalarini oʻrnatgan.

Bu borada RSFSR (SSSR) tomonidan qo'yilgan to'siqlarga qaramay, Rossiyadan tashqari Buxoro, Ukraina, Finlyandiya, Afg'oniston, Kavkazorti respublikalari bilan ham savdo aloqalarini o'rnatishga harakat qilgan. XXSR ko'pgina davlatlarda, ya'ni Buxoro, Rossiya, Finlyandiya va boshqa davlatlarda doimiy savdo aloqalarini o'rnatish uchun davlatning vakolatli vakillik organi hisoblangan savdo vakolatxonalarini ochishga muvaffaq bo'ldi.

Eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida XXSR nafaqat xom-ashyo yetkazib beruvchi davlat sifatida, balki tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi davlat sifatida tanila boshlandi. Hatto Rossiyada zarar bilan ishlayotgan korxonalarni ijaraga olib, zamonaviy dastgohlar o'rnatib, qo'shimcha sarmoya kiritish hisobiga tayyor mahsulotlar chiqara boshladi. G'arbning rivojlangan davlatlari Angliya va Germaniyaning yirik savdo kompaniyalari XXSR bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatish boshladilar.

Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Sovet hokimiyatining zo'rovonlik siyosati Xorazm hukumatiga mamlakat oldida turgan o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, madaniy qurilish va milliy manfaatlariga javob beradigan siyosat olib borish imkoniyatlarini chegaralab qo'ygan edi. Xatto, shunday og'ir sharoitga qaramay, yosh Xorazm respublikasi hukumati xalq farovonligini oshirishga, milliy-davlatchilikni mustahkamlashga yo'l beruvchi har qanday imkoniyatdan foydalanishga harakat qildi. Bunday mas'ul vazifani hal qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri xalqaro maydonga chiqish borasida hukumat tadbirlarini ko'chaytirish mustaqil tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ekanligini Xorazm vatanparvarlari yaxshi anglagan edilar.

2. RSFSR XXSRning asosiy savdo sherigi edi. Xorazm hukumati mahsulot ayirboshlash aloqalaridan tashqari Rossiyadagi zarar bilan ishlovchi korxonalarni ijaraga olish, teng huquqli iqtisodiy munosabatlarni o'rnatishga yo'l beruvchi shartnomalar tuzish uchun harakat qildi. Natijada 1922 yil davlatlararo tuzilgan yangi iqtisodiy bitimga muvofiq Xorazm respublikasi Rossiyada, shuningdek, uning savdo

vakolatxonalari faoliyat olib borayotgan mamlakatlarda savdo vakolatxonalarini ochish huquqini qoʻlga kiritdi.

3. RSFSRda sovet hukumati mustahkamlanib borgan sari RSFSR keyinchalik SSSRning kommunistik rahbariyati Xorazm respublikasiga nisbatan har qanday mustaqil davlatning asosiy suveren huquqlaridan hisoblangan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkin amalga oshirishga yoʻl qoʻymaslik siyosatini yurgizdi. 1924 yilda Oʻrta Osiyoda oʻtkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralanishi natijasida Xorazm respublikasi tugatildi. Uning hududlari Turkmaniston, Qoraqalpogʻiston, shuningdek, Oʻzbekiston Sovet Respublikalariga qoʻshib yuborildi. Uning Oʻzbekiston SSRga qoʻshilgan hududida Xorazm viloyati tashkil qilindi.

4. Ammo Oʻzbekiston SSR ham xalqaro maydonga chiqish huquqidan mahrum qilindi. Faqat SSSRning parchalanishi, mustaqillikning eʼlon qilinishi natijasida Oʻzbekiston halqaro hamjamiyatning toʻlaqonli aʼzosiga aylandi, haqiqiy suveren davlat darajasiga erishdi. Hozirgi kunda Oʻzbekiston hukumati xalq manfaatlariga, demokratik taraqqiyot tamoyillariga mos keluvchi siyosat olib bormoqda.

Garchi dissertatsiyada tadqiqot davriga oid juda koʻp maʼlumotlar birinchi marta ilmiy muomalaga kiritilib, ilmiy jamoatchilikka yetkazilayotgan boʻlsa-da, hali oʻrganilishni talab qilayotgan juda koʻp muammolar borligini eʼtirof qilishimiz kerak.

Bular:

- XXSRning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli;
- XXSR davlat boshqaruv organlarining tashkiliy tuzumi, qonunchilik va ijro faoliyati;
- Agrar sohadagi islohotlar va ularning oqibatlari;
- Bolsheviklarning terror va diktaturaga asoslangan Xorazmni zoʻrlilik asosida sovetlashtirish borasidagi siyosati va oqibatlari;
- Bolsheviklarning madaniyat, maorif va matbuot sohasidagi faoliyati;
- Xorazmdagi siyosiy voqealarda qizil armiyaning oʻrni masalasi bilan bogʻliq bir qancha muammolar oʻz yechimini kutmoqda.

Bundan keyingi tadqiqotlarda bu masalalarga oydinlik kiritish tarixchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Zero, oʻzbek davlatchi-

ligi tarixida ilk xalq respublikalaridan biri bo'lgan XXSR sovet hokimiyatining ta'ziyq va cheklashlariga qaramay, milliy-demokratik davlatchilik barpo etish yo'lida izchil kurash olib bordilar. Respublikaning milliy, siyosiy huquqlari uchun kurash, uning tashqi iqtisodiy siyosatida ham ustivor o'rin egalladi.

Har qanday to'g'riqlarga qaramay XXSR bu borada ma'lum natijalarni qo'lga kiritdi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

I. Prezident I.A. Karimov asarlari

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. 73-b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. 314-b.
3. Karimov I.A. Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi - uchinchi ming yillikka. – T., 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. 30-b.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat qilsin. – T.: O'zbekiston, 1998. 29-b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. 47-b.
7. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. // Turkiston, 1000. 2 fev.
8. Karimov I.A. Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman // Fidokor. 2000. 8 iyun.
9. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari // Xalq so'zi. 2002. 30 avgust.

II. Manbalar

1. O'zR MDA, 17-jamg'arma.
2. O'zR MDA, 25-jamg'arma.
3. O'zR MDA, 69-jamg'arma.
4. O'zR MDA, 70-jamg'arma.
5. O'zR MDA, 71-jamg'arma.
6. O'zR MDA, 73-jamg'arma.
7. O'zR MDA, 75-jamg'arma.
8. O'zR MDA, 76, 80, 81-jamg'armalar.
9. Yusupov P. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar). – Urganch, 2000. – 474b.

III. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev C. Obrazovanie XNSR i osnovnie etapi razvitiya 1920–1924 gg. – T., 1971.
2. Abdullaev C. Komsomol i molodyoj Xorezma v borbe za ukreplenie Sovetskoy vlasti v 1920–1924 gg. – T., 1977.
3. Abdullaev C. Pobeda narodnoy sovetskoy revolyusii v Xive. 50 let XNSR. – T., 1972. – 105 s.
4. Abdullaev R.M., Agzamxodjaev S.S., Alimov I.A. i dr. Turkestan v nachale XX veka. K istorii istokov nasionalnoy nezavisimosti. – T.: Sharq, 2000. 672 s.
5. Alimov I. Agrarnie preobrazovaniya v narodnix sovetskix respublikax Xorezma i Buxari. 1920–1924 gg. – T., 1970. – 128 s.
6. Alimov I. Russko-xivinskie otnosheniya v pervoy polovine XIX – nachale XX veka. – T., 1970.
7. Alimov I. Sozdanie i razvitie sovetskoy kulturi v XNSR. – T., 1975.
8. Alimov I. Istoricheskiy opit agrarnix preobrazovaniy Xorezmskoy i Buxarskoy Narodnix Sovetskix Respublikax. – T., 1981.
9. Alimov I. Likvidatsiya Xivinskogo xanstva i obrazovanie Xorezmskoy Narodnoy Sovetskoy Respubliki. // Turkestan v nachale XX veka. K istorii istokov nasionalnoy nezavisimosti. – T.: Sharq, 2000. – S. 297-310.
10. Alimov I. Xozyaystvennaya jizn Buxarskogo i Xivinskogo gosudarstv v 1917–1920 gg. // Turkestan v nachale XX veka. K istorii istokov nasionalnoy nezavisimosti. – T.: Sharq, 2000. – S. 335-362.
11. Volobuev P.V. Put Buxari i Xivi k sotsializmu. – M., 1966.
12. Volobuev P.V. i dr. Istoriya Buxarskoy i Xorezmskoy Narodnix Sovetskix Respublik. – M., 1971.
13. Golovanov A.A. Xorezmskaya Respublika v 1921–1924 gg. // Turkestan v nachale XX veka. K istorii istokov nasionalnoy nezavisimosti. – T.: Sharq, 2000. – S. 612-640.
14. Gordienko A.A. Sozdanie narodno-sovetskogo gosudarstva i prava i ix revolyusionno preobrazuyushaya rol v Xorezme i Buxare. – T., 1959.

15. Gordienko A.A. Sozdanie sovetskoy nasionalnoy gosudarstvennosti v Sredney Azii. – M., 1959. – 251 s.
16. Jo‘raev M. Xorazm va Buxoro Respublikalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar. // O‘zbekistonning yangi tarixi. II- jild. – T.: Sharq 2000. – B. 213-249.
17. Jo‘raev M., Nurullin R., Kamolov S. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. // O‘zbekistonning yangi tarixi. II jild. – T.: Sharq, 2000. – 687 b.
18. Inoyatov X. Istoriya XNSR. – T., 1976.
19. Inoyatov X. Narodi Sredney Azii v borbe protiv interventov i vnutrenney kontrrevolyusii. – M.: Misl, 1984. – 484 s.
20. Karaev K. Obshchestvennie organizatsii trudyayuxsya Xorezma v 1920–1924 gg. – Ashxabad, 1974.
21. Kalandarov N.X. Obrazovanie i deyatelnost Xorezmskoy Kommunisticheskoy partii. 1920–1924 gg. – T., 1975.
22. Kamalov G.I. Lenin i pobeda narodnoy sovetskoy revolyusii v Xive i Buxare. – T., 1970. – 161 s.
23. Kahhar T. Hur Turkiston uchun. – T.: Cho‘lpon, 1994. – 110 b.
24. Koshanov A. Iz istorii agrarnix otnosheniy v Xivinskom xanstve v konse XIX – nachale XX veka. – T., 1966.
25. Koshanov A. Qoraqalpog‘iston shiddatli o‘zgarishlar davrida (1917–1924) // O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 10-sinf uchun darslik. / Ma’sul muharrir D.A. Alimova. – T.: Sharq, 2000. – B. 302-312.
26. Koshanov B., Seytnazarov M. Revolyusiya? Vtorjenie? Sobitiya v Xivinskom xanstve (1919–1920 gg.). – Nukus: Bilim 1997. – 43 s.
27. Mamadjanov M. Sotsialno-ekonomicheskie preobrazovaniya i razvitie ekonomiki XNSR. – M., 1979.
28. Matkarimov M. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi. – Urganch: Xorazm, 1993.
29. Melkumov Ya.A. Minuya kapitalizm (O perexode k sotsializmu respublik Sredney Azii i Kazaxstana). – M., 1961.
30. Muminov I.L. 50 let Xorezmskoy Narodnoy Sovetskoy Respubliki. – T., 1972.

31. Muxammadberdiev K. Kommunisticheskaya partiya v borbe za pobedu narodnoy sovetsoy revolyusii v Xorezme. – Ashxabad, 1959. – 173 s.
32. Muxammadberdiev K. Borba XKP za ustanovlenie Sovetskoy Vlasti v Xorezme. – T., 1976.
33. Muxammadberdiev K. Istoriya Xorezmskoy revolyusii. – T., 1986. – 332 s.
34. Muxammadberdiev K. Lenin i narodi Xorezmskogo oazisa. – Nukus: Karakalpakstan, 1992.
35. Nepesov G. Pobeda sovetsskogo stroya v Severnom Turkmenistane. (1917–1963). – Ashxabad, 1950. – 181 s.
36. Nepesov G. Velikiy Oktabr i narodnaya revolyusiya v 1920 g. v Severnom i Vostochnom Turkestane. – Ashxabad, 1958.
37. Nepesov G. Iz istorii Xorezmskoy revolyusii. – T., 1962.
38. Nepesov G. Velikiy Oktabr i pobeda narodnoy revolyusii v Xorezme. – T., 1971.
39. Nurullin R. Xiva xonligi va Buxoro amirligining qizil armiya tomonidan. // O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 10-sinf uchun darslik. / Ma’sul muharrir D.A. Alimova. – T.: Sharq, 2000. – B. 102-112.
40. Pogorelskiy V. Ocherki ekonomicheskoy i politicheskoy istorii Xivinskogo xanstva v konse XIX – nachale XX vv. – L., 1968. – 244 s.
41. Pogorelskiy V. Istoriya Xivinskoy revolyusii i Xorezmskoy Narodnoy respubliki. – L., 1984. – 227 s.
42. Rajabov Q. Buxoro va Xorazm respublikalarida qurolli muxolifat kurashi. // O‘zbekistonning yangi tarixi. 3 jildlik to‘plam. II jild. – T.: Sharq, 2000. – B. 249-270.
43. Rajabov Q. Buxoro va Xorazm xalq respublikalari: davlatchilikning demokratik shakli. // O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T., 2001. – B. 185-202.
44. Rajabov Q., Karimov R. Xorazmda milliy demokratik harakat va Xiva xonligining ag‘darilishi. // O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 10-sinf uchun darslik. / Ma’sul muharrir D.A. Alimova. – T.: Sharq, 2000. – B. 37-43.

45. Rajabov Q., Karimov R. Xorazmda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. 1920–1924 yillar // O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 10-sinf uchun darslik / Ma’sul muharrir D.A. Alimova. – T.: Sharq, 2000. – B. 75-83.
46. Rajapova R. Suronli zamonlar. // Xiva ming gumbaz shahri. – T.: Sharq, 1997.
47. Raxmanov K. Istoriya razvitiya sotsialisticheskogo goroda Xivi. – T., 1977.
48. Rahmonov K. Xiva-Xorazm xalq revolyusiyasining beshigi. – T., 1970.
49. Sadikov A.S. Rossiya i Xiva vo vtoroy polovine XIX i nachale XX veka. – T., 1965.
50. Sadikov A.S. Ekonomicheskie svyazi Xivi vo vtoroy polovine XIX i nachale XX veka. – T., 1972.
51. Sadikov A. Xivada xalq revolyusiyasining g‘alabasi. Istoriya razvitiya sotsialisticheskogo goroda Xivi. – T., 1981
52. Sarsembaev A. Mejdunarodno-pravovie otnosheniya gosudarstv Sentralnoy Azii. – Alma-Ata, 1995.
53. Satlikov A. Istoriya razvitiya irrigasii v Xorezme (1920–1941 gg.). – T., 1980.
54. Toxtaxanov U. Vzaimootnosheniya Sarskoy Rossii s Xivinskim xanstvom. – M., 1956.
55. Toxtaxanov U. Vzaimootnosheniya RSFSR s XNSR. – T., 1961.
56. Toxtaxanov U. Sovetsko-xivinskie otnosheniya. – T., 1961.
57. Toxtaxanov U. Rossiya i Xiva v konse XIX – nachale XX veka. Pobeda Xorezmskoy narodnoy revolyusii. – M., 1969.
58. Toxtaxanov U. Ulug‘ Oktabr yo‘lidan. – T., 1970.
59. Toxtaxanov U. Sovetsko-xivinskie otnosheniya (1917–1924 gg.). – T., 1974.
60. Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov nasionalnoy nezavisimosti. – T., 2000.
61. Xamdamiy X. Istoriya Xorezmskoy Narodnoy Sovetskoy Respubliki. – T., 1962.

62. Chebotaryova V. Iz istorii vzaimootnosheniy s sopredelnimi stranami Srednego Vostoka cherez Srednyuyu Aziyu v 1918–1924 gg. – T., 1963.
63. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T., 2001.
64. O‘zbekistonning yangi tarixi. // O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. II jild. – T., 2000.
65. Hamdamov Q. Xiva xonligining ag‘darilishi va Xorazm Sovet Xalq Respublikasining o‘rnatilishi. – T., 1960.

IV. Davriy jurnal va gazeta maqolalari

1. Byulleten NKID Sredney Azii 1922 g. – S. 2.
2. Vneshnyaya trgovlya. Yejenedelnik Narkomvneshstorga RSFSR. № 40. 1923.
3. Jizn nasionalnostey. 1922. № 15; 1923. № 1.
4. Inqilob quyoshi. / O‘z KP(b) Xorazm oblast komiteti Urganch raykomi va O‘zSSR Oliy Soveti oblast tashkiloti organi. 1920–1939 yillar. -1920. oktabr. № 24-27; 1922. Noyabr. № 23, 25, 31, 33; 1923. May-iyun. № 46-47.
5. Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 1- 4.
6. «Turkiston» gazetasi. 1922. 14-16 noyabr.
7. Xlopkovoe delo. 1924. № 9-10.
8. Xorazm xabarlari. / Xorazm Markaziy ijroiya komitetining nashri. Xiva 1920-1922. - 1921. Avg.-sent. № 12-33; 1922. Yanv.- apr. № 36-50.
9. Byudjet i xozyaystvenniy plan XNSR. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 2-3. – S. 212-215.
10. Vinogradova A. Xorezmskaya Narodnaya Respublika. // Jizn nasionalnostey. 1923. № 1. – S. 181-194.
11. V Xorezme. // Jizn nasionalnostey. 1922. № 15. – S. 13.
12. Zavoz tovarov v Xorezm. //Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 2-3.
13. Ivanov. Sovremenniy Xorezm. // Byulleten NKID Sredney Azii 1922. – S. 2.
14. Ivanov. Snabjenie tovarami Xorezma. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 4. – S. 223-224.

15. K voprosu o sredstvax svyazi Xorezma s Soyuzom. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 4. – S. 164-172.
16. Kreditnie nujdi Xorezma. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 1. – S. 56.
17. Nalogi v Xorezme pri xane i teper. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 1.
18. Snabjenie traktorami i rabochim skotom Xorezma. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 2-3. – S. 224.
19. Torgoviy apparat v Xorezme. // Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii. 1924. № 2-3. – S. 224.
20. Uluchshenie soobsheniya s Xorezmom, kak usloviya podnyatiya yego xozyaystva. // Xlopkovoe delo. 1924. № 9-10. – S. 3-13.
21. Xasan R. Otilganlar va sotilganlar. // «Turkiston» gazetasi. 1992. 14-16 noyabr.

V. Avtoreferatlar

1. Toxtaxanov U. Vzaimotnosheniya RSFSR i XNSR (1920 1924 gg).: Avtoref. dis... kand. ist. nauk. – T., 1961. – 18 b.
2. Alimov I.A. Istoricheskiy opit agrarnix preobrazovaniy v Xorezmskoy i Buxarskoy Narodnix Sovetskix Respublikax: Avtoref. dis... dokt. ist. nauk. – T., 1981. – 42 b.
3. Seyitnazarov M. Istoriya nasionalnogo osvoboditelnogo dvijeniya v Karakalpakstane (1917–1920 gg).: Avtoref. dis... kand. ist. nauk. – Nukus, 1999. – 28 b.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. XXSRning tashkil qilinishi va tashqi aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi	5
1 §. Xiva xonligining ag‘darilishi va XXSRning tashkil qilinish	5
2 §. XXSR tashqi aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi	20
II BOB. XXSRning tashqi savdo aloqalari	36
1 §. XXSR tashqi savdo aloqalarining tashkiliy va huquqiy asoslari	36
2 §. Xorazm respublikasining RSFSR (SSSR) va BXSr bilan savdo-sodiq aloqalari	48
3 §. XXSRning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan tashqi savdo aloqalari	77
XULOSA	94
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati	99



Saidov Shavkat Jumabaevich, t.f.n., dotsent. 1963 yilda Xorazm viloyati, Kushkupir tumani, Gʻazavot qishlogʻida tugʻilgan. «Jalolid-din Manguberdi davlati», «Xiva xonligining ogʻdarilishi va XXSRning tashkil qilinishi» nomli ilmiy risolalar, «Xorazmshohlar-Anushtaginlar davlatining yuksalishi va halokati» nomli oʻquv qoʻllanma, shuningdek tariximizning eng muhim muammolariga bagʻishlangan 20 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. Ushbu monografiya uning birinchi yirik ilmiy asaridir.

SAIDOV Sh. Xorazm xalq Sovet respublikasining tashqi munosabatlari va savdo aloqalari (1920–1924 yy.). – T.: ToshDShI nashriyoti, 2007. – 108 b.



Tex. muharrir: ***S. YuSUPOVA***

Komp.verstkasi: ***A. YuNUSOV***

Ushbu monografiya ToshDShI Ilmiy Kengashida (2006 yil 30 iyun № 3) muhokama qilinib nashrga tavsiya qilingan.

Bosishga ruxsat etildi 16.02.2007

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 6,75 b.t. 200 nusxada bosildi. Buyurtma №

Toshkent Davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.

Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 25.

© Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2007